Jalǵan parazitler úlken organizimge hár qanday jollar menen tosattan túsip qalǵan parazit organizimler bolıp. Mısalı olar hár qanday azıq awqat ónimlerin yaki suwdı qabıllaǵan waqıtları, bunnan basqada sırtqı hár qanday ekologiyalıq faktorlar tásirinde omartqalılardıń organizimlerine kirip qalıwı múmkin. Jalǵan parazitlerge keneler yamasa olardıń omırtqalılar jutıp jibergen dáreti menen sırtqı ortalıqqa shıqqan máyekleri (tranzit jalǵan parazitler hám olardıń máyekleri) kiriwi múmkin.

Tosattan payda bolǵan parazitler ádette parazitlik jolı menen ómir súrmeydi, biraq tosattan xojayın organizimine túsip, tiri qaladı hám xojayın organiziminen azıq

awqat deregi sıpıtında paydalanadı. Buǵan mısal retinde shıbın shirkeylerdiń lichinkaların alsaq boladı.

Ayrım túr sinantrop organizmlerdi de belgili dárejed parazit organizimler qatarına kiritiw múmkin, olarǵa kemiriwshilerdiń ayrım túrleri hámde tarakanlar.

Ádebiyatlar

1. Akbaev M.Sh. i dr. Parazitologiya i invazionnıe bolezni jivotnıx. M., “Kolos”, 2000, 743 s.

2. Altuxov N.M. i dr. Kratkiy spravochnik veterinarnogo vracha. M., “Agropromizdat”, 1990, 574 s

THYSANIEZIA GIARDIA CESTODASI SHARWA MALLARÍ PARAZITI

[1]Kudaybergenova G.M. [2]Kızılbaeva K.S., [2]Atadjanov M.H.

[1]Ajiniyaz atındaǵı NMPI magistrantı

[2]Ajiniyaz atındaǵı NMPI studenti

Qaramallar tizanieziozı Thysanieziosis tiykarınan úy hám jabayı gúyis qaytarıwshı haywanlardıń gelmintoz keselligi bolıp onıń qozǵatıwshısı *Thysaniezia giardi* cestodası esaplanadı. Bul gelmint úy haywanlarınan qoy, eshki hám qaramallarda parazitlik qıladı. *T.giardi* cestodasınıń aktiv ómir súriwi kópshilik jaǵdaylarda ortasha ıssı klimatlı aymaqlarda ótedi, yaǵnıy Kavkaz artı, Qazaqstan, Orta Aziya, Tómengi Volga hám Ukraina qublasında populyaciyası tarqalǵan.

Thysaniezia giardia cestodasınıń sistematik kórsetkishi tómendegishe:

Tip: Plathelminthes Schneider, 1873

Klass: *Cestoda* Rudolphi, 1808

Otryad: Cyclophyllida Beneden in Braun, 1990

Tuqımlas: Avitellinidae Spassky, 1950

Tuwıs: *Thysaniezia* Skrjabin, 1925

Túr: *Thysaniezia giardi* Moniez, 1879

T.giardi cestodası Cyclophyllida otryadı Avitellinidae tuqımlasına tiyisli bolıp úy hám jabayı gúyis qaytarıwshı haywanlardıń jińishke bólim isheklerinde parazitlik qıladı. Bul cestoda biogelmintlerden bolıp uzınlıǵı 1 metrden 4,5 metrge shekem, enine bolsa 9 mm ge shekem baradı.

T.giardi cestodasınıń denesi moyın hám kelte buwınlardan ibarat, jınısıy apparatı jeke, jınısıy tesikleri nadurıs jaylasqan hám eki tárepinde náwbetlesip turadı. Dene buwınlarınıń qaptal táreplerinde uzınına jaylasqan ekskretor nayları kózge kórinedi, olardan sırtta 75 - 90 dana tuqımlıq jaylasqan. Jatırında bolsa iyrek - iyrek naysha kórinisindegi divertikulları bolıp olar kesesine jaylasqan. Divertikullardan máyekler menen tolǵan 2000 ǵa jaqın paraterin organlar (kapsulalar) qáliplesedi. Máyegi júdá mayda (diametri 0,018-0,027 mm), forması domalaq, kúlreń, máyek ishinde almurt tárizli apparatı joq bolǵan onkosfera jaylasqan boladı.

T.giardi cestodasınıń rawajlanıw ciklinde definitiv xojayın wazıypasın úy hám jabayı gúyis qaytarıwshı haywanlar atqaratuǵın bolsa, aralıq xojayın wazıypasın shıbın - shirkeylerdiń hár túrli wákilleri atqarıwı múmkin.

Úy hám jabayı gúyis qaytarıwshı haywanlarda invaziyanıń sezilerli hám kúshli dárejesinde tómendegi belgiler gúzetiledi:

- Sozılmalı ish ótiwi definitiv xojayın organizminiń kóp muǵdarda suwsızlanıwına alıp keliwi múmkin.

- Anemiya silekeyli qabatlarınıń aǵarıwı bul gemoglobinniń páseyiwin kórsetedi.

- Haywanlardıń ulıwma ázzilewi, kem háreketsheń bolıp qalıwı hám basqada organizmindegi bosasıw sıyaqlı hádiyseler gúzetiledi.

- Nerv sisteması iskerliginiń buzılıwı hám basqa nevrologiyalıq belgiler gúzetiliwi múmkin.

Ádebiy maǵlıwmatlarǵa qaraǵanda bul keselliktiń anıq klinik belgileri kópshilik jaǵdaylarda jaz máwsiminiń ekinshi yarımında, ásirese aralas invaziyada tizaniezioz + avitellinoz gúzetiledi.

Tizaniezioz keselligine qarsı gúresiwde paydalı antigelmintik preperatlarǵa tómendegiler kiredi:

Máselen. Mishyak kislotalı kalıy hár bir qoy hám eshkige jasına qarap 0,4 g nan 1 g ǵa shekem beriletuǵın bolsa, Fenasal 1 kg dene salmaqqa 0,075 g doza hám Bitionol 1 kg dene salmaǵına 0,1 g dozada usınıs etiledi.

Bul preparatlar parazitlerdi joq etiwge hám definitiv xojayın organizminiń jaǵdayın jaqsılawǵa járdem beredi.

Profilaktikalıq is - ilajlarǵa gúyis qaytarıwshı haywanlardıń tizaniezioz keselligi menen zıyanlanıwına jol qoymaslıqqa qaratılǵan bolıwı tiyis.

Bul keselliktiń belgileri bolǵan sharwa xojalıqlarında báhárde mallardı jaylawǵa shıǵarıwdan aldın hám gúzde malqoralarǵa qaytqannan keyin profilaktikalıq degelmintizaciyadan ótkeriw shártli túrde ámelge asırılıwı kerek boladı.

Ádebiyatlar

1. Гагарин В.Г. Гельминтозы овец Киргизии. – Фрунзе: Издательство АН Киргизской ССр, 1963. – 420 с.

2. Жариков И.С., Егоров Ю.Г. Гельминты жвачных животных Белоруссии. Минск: Ураджай, 1977. – 176 с.

3. Paluaniyazova D. A. Qoraqalpog‘iston mayda shoxli mollari gelmintlari (faunasi, tarqalishi, ekologiyasi).: Diss. … bio. fan. falsafa. dokt. (PhD) – Nukus, 2024. - 133 s.

4. Шумакович Е.Е. Гельминтозы жвачных животных. – Москва, 1968. – 392 с.

AVITELLINA CENTRIPUNCTATA CESTODASÍ SHARWA MALLARÍ PARAZITI

[1]Kudaybergenova G.M. [2]Kızılbaeva K.S., [2]Kongratbaeva P.O.

[1]Ajiniyaz atındaǵı NMPI magistrantı

[2]Ajiniyaz atındaǵı NMPI studenti

Avitellina centripunctata Rivolta, 1874 cestodası úy hám jabayı shóp penen azıqlanıwshı haywanlardıń jińishke bólim isheklerinde parazitlik qılıp ómir súredi. Jabayı haywanlardan ústirt qoyı, qızılqum qoyı, aq bóken, jeyran hám basqalarında bolsa úy haywanlarınan qoy, eshki, qaramal, túyelerde avitellinoz keselliginiń kelip shıǵıwına sebepshi boladı, bul bolsa óz náwbetinde sharwashılıqqa úlken ekanomikalıq zıyan jetiwine alıp keledi.

A.centripunctata cestodasınıń sistematik kórsetkishi tómendegishe.

klass *Cestoda* Rudolphi, 1808

otryad Cyclophyllida Beneden in Braun, 1990

tuqımlas Avitellinidae Spassky, 1950

tuwıs *Avitellina* Gough, 1911

túr *Avitellina centripunctata* (Rivolta, 1874)

A.centripunctata cestodasınıń uzınlıǵı 1 - 3,5 m, keńligi 2,2 − 3 mm shekem jetedi.

Parazittiń bas bóliminde 4 dana sorıǵıshı bar bolıp, olar tiykarǵı xojayınge jabısıp turıwı hám belgili dárejede azıqlanıw ushın xızımet qıladı. *A.centripunctata* cestodasınıń buwınları arasındaǵı shegara tek ǵana strobila sońında seziledi. *A.centripunctata* cestodasınıń jınısıy apparatı bir dana bolıp, jınısıy tesikleri nadurıs náwbetlesken halda jaylasqan boladı. Gel'minttiń jatırı jetilgen buwınlarında rawajlanǵan bolıp onıń forması almurt tárizli kórniste hám jatır átirapı oralǵan bolıp onda máyekler menen tolǵan fibroz kapsulalar bar boladı (uzınlıǵı 0,023 - 0,035 mm, keńligi 0,019 - 0,022 mm, onkosferası bar).

Avitellinoz belgileri tosattan payda boladı hám bul kesellik penen kesellengen

qoy hám eshkilerde háreket koordinaciyasınıń buzılıwı, bastı artqaǵa taslaw, ayaqlarınıń tartılıwı, titirkeniw, tislerdi qattı bir birine ǵashırlatıw, keskin túskinlik, ish ótiwi, jińishke bólim isheklerde silekeyli perdelerdiń kúshili zıyanlanıw belgileriniń payda bolıwı gúzetiledi. Kesellik bir neshshe saat dawam etkennen soń kópshilik jaǵdaylarda haywanlardıń nabıt bolıwınada alıp keledi. Ólgen haywan jarıp kórilgeninde jińishke bólim isheklerdiń silekeyli perdeleriniń kúshili kataral zıyanlanıw belgilerin gúzetiw múmkin.

Gelmintokoprologik usıllar járdeminde tekseriw nátiyjelerine qaraǵanda *A.centripunctata* cestodasınıń buwınları dáretler júzinde mayda ósimliklerdiń dánine uqsaǵan aq sút reńindegi daqlar kórinisinde baqlanadı.

Parazittiń rawajlanıw cikli tolıq úyrenilmegen. Usı jılı tuwılǵan qozı hám ılaqlardıń keselleniwi jaz máwsiminiń ortalarında baslanadı. Úlken jastaǵı qoy hám eshkilerde avitellinoz benen keselleniw hám zıyanlanıwdıń joqarı intensivligi gúz máwsiminde oktyabr', noyabr' aylarında bolsa, báhár máwsiminde mart hám aprel' aylarında baqlanadı.

Avitellinoz keselligi qáwpi bar bolǵan sharwashılıq xojalıqlarında qozılar hám ılaqlardı kaliy arsenatı yamasa kalciy arsenatı menen degel'mintizaciya qılıw usınıs etiledi. Usınıs etiletuǵın dozalardıń muǵdarı 6 - 8 aylıq qozı hám ılaqlarǵa - 0,8 g, bir jastan úlkenlerine - 1,0 g bir márte. Fenasal hám 0,1 g/kg dozada (hár bir qoy hám ılaq ushın keminde 1,0 g) individual túrde ámelge asırılıp barıladı.

Ádebiyatlar

1. Гагарин В.Г. Гельминтозы овец Киргизии. – Фрунзе: Издательство АН Киргизской ССр, 1963. – 420 с.

2. Жариков И.С., Егоров Ю.Г. Гельминты жвачных животных Белоруссии. Минск: Ураджай, 1977. – 176 с.

3. Шумакович Е.Е. Гельминтозы жвачных животных. – Москва, 1968. –392 с.

ECHINACEA PURPUREA O‘SIMLIGINING DORIVOR XUSUSIYATLARI VA KIMYOVIY TARKIBI

[1]Kutlimuratova G.A., [2]Kuandikova A.O.

[1]Ajiniyoz nomidagi NDPI, Biologiya fanlari boyicha falsafa doktori (PhD)

[2]Ajiniyoz nomidagi NDPI Tabiiy fanlar fakulteti talabasi

Yer yuzida dorivor o‘simliklarning 10 - 12 ming turi borligi aniqlangan. 1000 dan ortiq o‘simlik turining kimyoviy, farmakologik va dorivorlik xossalari tekshirilgan. O‘zbekistonda dorivor o‘simliklarning 700 dan ortiq turi mavjud. Shulardan tabiiy sharoitda o‘sadigan va madaniylashtirilgani 120 ga yaqin o‘simlik turlaridan ilmiy va xalq tabobatida foydalaniladi. Hozirgi davrda tibbiyotda qo‘llaniladigan dori-darmonlarning qariyib 40 - 47% o‘simlik xom ashyolaridan olinadi [9].

O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 20-maydagi “Dorivor o‘simliklarni yetishtirish hamda qayta ishlash chora-tadbirlari to‘g’risida”gi Farmoni madaniylashtirilgan va introduksiya qilingan dorivor o‘simliklar yetishtirishni rivojlantirish va ularning salohiyatini oshirishga alohida e’tibor bermoqda [1]. Shunday chora-tadbirlar doirasida, ayniqsa, yurtimiz iqlimiga mos keluvchi, yuqori dorivor salohiyatga ega bo‘lgan *Echinacea purpurea* - o‘simligi import qilinib, xususan bog’ va qishloq xo‘jaligi sharoitida muvaffaqiyatli ko‘paytirilayotgan turlardan biri sifatida paydo bo‘lgan. O‘zbekistonda ushbu o‘simlikning yetishtirilishi, biologik xususiyatlari hamda terapevtik jihatlari endi ilmiy-amaliy allomalar hamda fermer xo‘jaliklarida jiddiy o‘rganilmoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, *E. purpurea* 1950-yillarida Toshkent Botanika Bog’iga introduksiya qilingan va keyinchalik O‘zbekistonning Mirzacho‘l va Sirdaryo hududlaridagi ochiq maydonlarda yetishtirish tajribasi muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda [2].

Biologik xususiyatlari. *Echinacea purpurea, Asteraceae* oilasiga mansub ko‘p yillik dorivor o‘simlik hisoblanadi. U tabiiy ravishda Shimoliy Amerikada, xususan AQShning janubi-sharqiy va markaziy hududlarida keng tarqalgan bo‘lib, cho‘llar va

o‘rmon chekkalarida o‘sadi. *Echinacea* to'qqiz xil turga bo'linadi, lekin faqat uchtasi keng terapevtik maqsadlarda dorivor o'tlar sifatida ishlatiladi: *Echinacea purpurea (L.) Moench, Echinacea pallida (Nutt.) Nutt. va Echinacea angustifolia DC. E. purpurea* odatda quyoshli joylarni yaxshi ko‘radi, nam, drenajlangan qum-loy tuproqlarini afzal ko‘radi va qishki sovuqqa nisbatan bardoshlidir. O‘simlikning tirik shakli odatda 60–120 sm balandlikda bo‘lib, markaziy, dumaloq gulboshi va uzun, ignabargli barglarga ega. Gullari binafsha-qizil rangli va markaziy to‘plamli bo‘lib, iyun-iyul oylarida gullaydi. Mevalari kichik, quruq urug’ shaklida bo‘lib, tabiatda asosan shamol yoki hayvonlar yordamida tarqaladi. *E. purpurea* introduktsiya qilingan hududlarda, jumladan O‘zbekistonda Toshkent Botanika Bog’i va Mirzacho‘l, Sirdaryo hududlarida ochiq maydonlarda muvaffaqiyatli ko‘paytirilgan.

Uy sharoitida yoki bog’larda *Echinacea purpurea* odatda quyoshli joylarda o‘sadi, tuproq unumdor va namlikni yaxshi ushlab turadigan bo‘lishi kerak. O‘simlik yozning iliq oylarida faollik ko‘rsatadi va gullash davri iyun oyidan avgustgacha davom etadi. U ko‘paytirish uchun urug’ yoki ildiz bo‘lagi yordamida yetishtiriladi. O‘simlikning o‘sishi uchun muntazam sug’orish va begona o‘tlarni olib tashlash zarur, ammo u quruqchilikka nisbatan ham nisbatan chidamli hisoblanadi. *E. purpurea* tarkibida bioaktiv moddalar, jumladan polisaxaridlar, flavonoidlar va alkilamidlar mavjud bo‘lib, ular uning dorivor xususiyatlarini belgilaydi va xalq tabobatida immunitetni oshirish, yallig’lanishga qarshi va antivirus ta’sir ko‘rsatish uchun keng qo‘llaniladi [4,7].

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. *Echinacea purpurea* o‘simligi ko‘plab bioaktiv moddalarni o‘zida mujassam etgan bo‘lib, uning dorivor xususiyatlarini aynan shu tarkibi belgilaydi. O‘simlikning ildiz, poya, barg va gul qismi turli faol birikmalarni o‘z ichiga oladi. Asosiy kimyoviy komponentlar qatoriga alkilamidlar, polisaxaridlar, flavonoidlar, kinoid kislotalar, inulin va ketonlar kiradi [4]. Alkilamidlar immun tizimni rag’batlantirishda va yallig’lanishga qarshi ta’sirda muhim rol o‘ynaydi, polisaxaridlar esa viruslarga qarshi va immunitetni kuchaytiruvchi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Flavonoidlar antioksidant

xususiyatga ega bo‘lib, hujayralarni erkin radikallardan himoya qiladi va yallig’lanish jarayonini kamaytiradi.

Echinacea purpurea **o‘simligining dorivor xususiyatlari.** *Echinacea purpurea* o‘simligi keng qamrovli dorivor potensialga ega bo‘lib, uning asosiy xususiyati - immunitetni mustahkamlash va turli respirator infektsiyalarga qarshi samarali ta’sir ko‘rsatishidir. Tadqiqotlarga ko‘ra, sovuqni davolashda echinacea asosidagi preparatlarni qo‘llash kasallikning davomiyligini qisqartiradi va uning og’irlik darajasini yengillashtiradi. Shu bilan birga, o‘simlik takroriy respirator infektsiyalar rivojlanish xavfini va ularning asoratlarini kamaytiradi. *Echinacea purpurea* immunomodulyatsion, antiviral va yallig’lanishga qarshi ta’sir ko‘rsatadi, bu esa sezgir shaxslar uchun katta foyda beradi.

Sanoat miqyosida *E. purpurea* o‘tining sharbati yoki ekstrakti, masalan etil spirtidagi damlama asosida turli dori vositalari ishlab chiqarishda qo‘llaniladi. Klinik amaliyotda yangi hosil qilingan echinacea sharbatining faol moddalari og’iz orqali yuborilganda immunostimulyator ta’sir ko‘rsatadi. Tarkibida efir moylari, antioksidantlar, organik kislotalar, A, C va E vitaminlari mavjud bo‘lib, ular immunitetni oshiradi va tanaga gripp, gerpes va SARS viruslari bilan kurashishda yordam beradi. Shuningdek, o‘simlik qon hosil qilish tizimiga, tayanch-harakat tizimi va biriktiruvchi to‘qimalarga foydali mikroelementlar (temir, kaltsiy, selen) ta’sir qiladi. *Echinacea purpurea* ekstrakti takroriy respirator infektsiyalar xavfini sezilarli darajada kamaytiradi va asoratlar - pnevmoniya, otit, tonzillit - rivojlanish ehtimolini kamaytiradi. 18 yoshdan 65 yoshgacha bo‘lgan bemorlar bilan o‘tkazilgan platsebo-nazoratli tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, echinacea preparatlarini qo‘llash kasallik belgilarini engil shaklda kechishiga yordam beradi. Bundan tashqari, *E. purpurea* bog’ va manzarali bog’dorchilikda ham qo‘llaniladi. O‘simlik individual navlari mixborders yoki alohida guruhlarda o‘stiriladi, uning yorqin va uzoq davom etadigan gullashi dekorativ qiymatini oshiradi. Inflorescences kesish uchun mos bo‘lib, dekorativ fazilatlarini yo‘qotmasdan suvda uzoq vaqt saqlanishi mumkin [8].

Qizil exinatseya nafaqat xalq tabobatida balki, ofitsinal-ilmiy tabobatda ishlatiladi, uning yer ostki va yer ustki qismlaridan tayyorlangan dori vositalari ko‘pgina yevropa davlatlarida chunonchi Rossiya Federatsiyasi, Belorussiya va Ukraina respublikalarining davlat farmokapeyalariga kiritilgan bo‘lib, biologik faol moddalarga boy dorivor o‘simlik xisoblanadi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. *Prezident Qarori PQ-345: Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va eksportini rivojlantirish.* Toshkent, 2022.

2. Qodirova, L. *Echinacea purpurea o‘simligining biologik va dorivor xususiyatlari.* Farmakologiya va Tibbiyot jurnali, 2022; 2(5): 12-18.

3. Toshpulatov, B. “Dorivor o‘simliklarni uy sharoitida yetishtirish metodikasi.” Toshkent, 2019.

4. Qodirov, S. “Dorivor o‘simliklar va ularning farmakologik xususiyatlari.” Toshkent, 2020.

5. Xolmatov, A. “O‘zbekiston sharoitida introduktsiya qilingan dorivor o‘simliklar.” *Biologiya va Tabiatshunoslik* jurnali, 2021; 3(12): 45-52.

6. Karimov, N. “O‘zbekiston sharoitida dorivor o‘simliklar: tarixiy va amaliy ma’lumotlar.” Samarqand, 2021.

7. Rustamova, M. “Dorivor o‘simliklar va xalq tabobati.” Toshkent, 2020.

8. Бактиёрова М. Б., Содуллаева М. Н., Панаева И. М. «Экзинацея (Exinatsiya) o‘simligining dorivorlik xususiyatlari va xalq tabobatidagi ahamiyati». Science and innovation in the education system. International scientific-online conference, Toshkent davlat agrar universiteti, Samarqand filiali, 2024. DOI: 10.5281/zenodo.7715891.

9. Abdurahimova M. A., Nazirjonov U. A., Muhammadjonov R. R. (2022). *Dorivor Echinacea purpurea o‘simligining foydali xususiyatlari va undan xalq tabobatida foydalanish*. FarDU, Zootexniya va agronomiya kafedrasi; FarDU talabasi. DOI: 10.5281/zenodo.7158704.

THE REGIONAL DEVELOPMENT OF ECOTOURISM: A CASE STUDY OF THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN

[1]Maksetbaeva D., [2]Sadatdinova K.

[1]Third year student of Nukus State Pedagogical Institute, Faculty of Natural Sciences

[2]Second year Master's degree student of Karakalpak State University

Abstract: This paper explores the regional development of ecotourism in the Republic of Karakalpakstan. It analyzes the unique natural resources, cultural heritage, and ecological conditions that make the region suitable for sustainable tourism. The study highlights the current state of ecotourism infrastructure, identifies existing challenges, and proposes strategies for future growth. Special attention is given to the role of local communities in promoting eco-friendly practices and preserving biodiversity. The findings emphasize that the development of ecotourism in Karakalpakstan can contribute to both environmental protection and socio-economic improvement in the region.

Keywords: Ecotourism, sustainable development, Karakalpakstan, biodiversity, regional tourism, environmental protection, local community, natural resources.

Ecotourism is one of the fastest-growing sectors of the tourism industry, focusing on responsible travel to natural areas that conserves the environment and improves the well-being of local people. In recent years, the Republic of Karakalpakstan, located in the northwestern part of Uzbekistan, has been recognized as a region with great potential for ecotourism development. Its unique landscape, including the Aral Sea region, the Ustyurt Plateau, and the Amu Darya delta, provides rich opportunities for ecological and cultural tourism.

Karakalpakstan's natural diversity and environmental challenges make it an important case study for sustainable tourism development. The drying of the Aral Sea has drastically transformed the region's ecosystem, creating an urgent need for both

ecological restoration and new economic opportunities. Ecotourism offers a sustainable alternative that can help balance environmental protection with socio-economic growth.

The development of ecotourism in Karakalpakstan requires an integrated approach involving local communities, government organizations, and international partners. Local participation is a key factor in ensuring the long-term success of ecotourism projects. When residents benefit from tourism through employment, handicrafts, and eco-services, they become active protectors of their environment. Community-based tourism initiatives in the Moynaq district, for example, demonstrate how local engagement can strengthen the social and economic impact of ecotourism.In terms of infrastructure, the region still faces limitations. Poor road access to remote areas, lack of eco-lodges, and insufficient promotion remain major challenges. However, recent investments in tourism infrastructure and environmental projects have started to improve these conditions. The government of Uzbekistan and international organizations, such as UNDP and UNESCO, have initiated programs to promote sustainable tourism in the Aral Sea region.

Ecotourism in Karakalpakstan is not only about visiting natural sites; it also involves cultural exploration. The traditional lifestyle of the Karakalpak people, their art, music, and history add value to the tourist experience. Visitors can learn about the resilience of the local population and their adaptation to harsh environmental changes. This cultural dimension strengthens the concept of sustainable tourism, combining ecological awareness with cultural preservation.

Another important aspect of ecotourism development in Karakalpakstan is environmental education. Tourists who visit the region not only enjoy nature but also learn about the environmental issues caused by the Aral Sea crisis. Educational tours, guided by local ecologists, can increase awareness of desertification, climate change, and the importance of sustainable resource management. Such activities help visitors understand the value of nature conservation and inspire them to contribute positively to the environment.

In addition, the promotion of eco-friendly tourism products plays a vital role. Local handicrafts made from natural materials, traditional Karakalpak embroidery, and organic food products can attract environmentally conscious travelers. These products not only provide tourists with authentic experiences but also support the livelihoods of local artisans. Encouraging eco-markets and small green enterprises can further strengthen the connection between tourism and sustainable development.The use of digital technologies can also accelerate the growth of ecotourism in Karakalpakstan. Online platforms, mobile applications, and social media campaigns can promote the region's natural attractions to a global audience. Creating virtual tours and interactive maps of the Aral Sea region can spark international interest and attract more eco-travelers. Moreover, digital storytelling allows local voices to share their experiences directly with the world, making tourism more personal and meaningful.Government policy and strategic planning remain crucial for the long-term sustainability of ecotourism. The development of legal frameworks, environmental standards, and investment incentives can guide responsible tourism practices. Cooperation between the tourism, environmental, and cultural sectors is essential for managing natural resources effectively. By integrating ecotourism into the region's broader development strategies, Karakalpakstan can ensure that tourism growth benefits both nature and people.

In conclusion, the regional development of ecotourism in the Republic of Karakalpakstan holds great promise for the future. With proper management, investment, and education, ecotourism can become a driving force for environmental conservation and local prosperity. By balancing nature protection and human development, Karakalpakstan can serve as a model for sustainable regional tourism in Central Asia.

References

1. United Nations Development Programme (UNDP). Sustainable Tourism and Environmental Protection in the Aral Sea Region. Tashkent: UNDP Uzbekistan, 2021.

2. UNESCO. Cultural and Natural Heritage of Karakalpakstan and the Aral Sea Basin. Paris: UNESCO Publishing, 2020.
3. World Tourism Organization (UNWTO). Tourism and Sustainability in Central Asia: Opportunities and Challenges. Madrid: UNWTO, 2022.
4. Ministry of Ecology, Environmental Protection, and Climate Change of the Republic of Uzbekistan. National Strategy for Ecotourism Development 2023–2030. Tashkent, 2023.
5. International Ecotourism Society (TIES). Principles of Ecotourism. Washington D.C., 2019.
6. Karimova, N., & Berdimuratov, A. Ecotourism Potential of Karakalpakstan: Problems and Prospects. Journal of Tourism Studies, Vol. 15, No. 2, 2022.
7. Aral Sea Development Programme (ASDP). Community-Based Tourism Initiatives in the Aral Sea Region. Nukus, 2021.
8. World Bank. Enhancing Sustainable Tourism in Uzbekistan’s Regions. Washington D.C., 2022.

KEMIRUVCHI HAYVONLARNING QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA O‘RGANILGANLIK DARAJASI

[1]Paluanova G.J., [2]Qarjawbaeva K.B.

[1]Ajiniyoz nomidagi NDPI Biologiya kafedrasi o‘qituvchisi

[2]Ajiniyoz nomidagi NDPI Biologiya ta’lim yo‘nalishi talabasi

Bugungi kunda kemiruvchilar turkumi vakillari Respublikamiz quruqlik zonasining barcha biotoplarida, xususan Ustyurt platosida, Qizilqum cho‘llarida, tekisliklarda, Amudaryo vohasida va irmoqlarida, to‘qay chakalakzorlarida, qamishzorlarda, daryo vodiylarida, tog‘ etaklarida, dala chekkalarida, turar joy hamda xo‘jalik binolaridagi yoriq qismlarida, omborxonalarda, xarobalarda, er ostida, yo‘l chetlari va boshqa joylarda uchraydi. Shnday ekan shu va shu kabi hududlardagi eng ko‘p uchraydigan kemiruvchilar (Rodentia) turkumi vakillarini o‘rganishga ilm-

fanning rivojlanish davrlaridan boshlab har bir tabiatshunos olimlarning qiziqishlari bejiz emas.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining hududi sutemizuvchilarining xilma-xilligi bilan Markaziy Osiyo davlatlaridan ajralib turadi. Shuning uchun ham olimlar bu hududning flora va faunasini erta davrlardan boshlab tekshira boshlaganlar.

XIX asrning o‘rtalarida A.Leman va A.A.Eversman Qoraqum, Qizilqum va Quvandaryo bo‘ylab ekspeditsiyalar uyushtirib umurtqali hayvonlar bo‘yicha juda ko‘plab kollektsiyalar to‘plaganlar. Ushbu ekspeditsiya natijalarini akademik A.F.Brando 1852-yili nashr qildirgan.

1873-yilda u O‘rta Osiyoga qilgan ekspeditsiyalarida u zoologik kolleksiyalar to‘playdi va tadqiqot ishlarini olib boradi. Keyingi yili u yerda katta Orol-Kaspiy ekspeditsiyasiga qatnashadi, so‘ngra Peterburg tabiatshunoslar jamiyatiga hisobot yozadi va “Xiva vohasi va Qizilqum cho‘li tabiatining ocherklari”, “1873 yilgi Xiva yurishi tavsiflari” asarlarini yozadi.

Veltishev (1941); Mokeeva, Polyakov (1952); Soldatkin (1955); Soldatkin, Asenovlar (1957) o‘z davrida Amudaryoning quyi oqimidagi Plastinka tishli kalamushning ekologiyasiga bag‘ishlangan ishlar kam ekanligini, shunga asos qo‘shimcha tadqiqotlarni talab qilishini ta’kidlab o‘tishgan.

N.P.Naumovning boschiligida Qizilqumning Qoraqalpog‘iston qismidagi er usti umurtqali hayvonlari, asosan kemiruvchilar faunasi, ekologiyasini o‘rganishda yosh olimlar o‘zlarining tadqiqot ishlarini olib borgan.

Taniqli zoolog olimlardan V.P.Kostinning (1962) “Amudaryoning quyi oqimi, Ustyurt va unga tutash hududlarning kemiruvchilari: tarqalishi, ekologiyasi va iqtisodiy ahamiyati haqida materiallar” nomli ilmiy ishi nashrdan chiqarilgan.

R.Reymov (1972) Plastinka tishli kalamushning morfofiziologik xususiyatlari va populyatsiya xususiyatlarini o‘rganishdan tashqari, Amudaryoning quyi oqimidagi turli biotoplarda ushbu turning tarqalishi, son dinamikasi va ko‘payishi haqida ma’lumotlar to‘plagan.

R.Reymov va N.Qarabekov (1969) Qoraqalpog‘iston sharoitida Kaspiy orti dala sichqonining tarqalishi va ekologiyasi masalasi to‘g‘risida yozib qoldirgan. R.Reymov (1972) “Janubiy Orolbo‘yi sutemizuvchilar faunasini ekologik va morfofiziologik tahlil qilish tajribasi” nomli qo‘llanmasida sutemizuvchilarning ayrim turlarining morfologik va ekologik xususiyatlari xaqida to‘liq a’lumotlarni keltirib o‘tgan. Shuningdek Rodentia turkumi vakillari *Nesokia indica*, *Mus musculus*, *Microtus transcaspicus* larning o‘rganilishi hamda bioekologiyasi haqida keng ma’lumotlar yoritilgan.

Qizilqum cho‘li hududi bo‘ylab tadqiqotlar olib borgan T.Z.Zoxidov ushbu hududda tarqalgan umurtqali hayvonlarga kiruvchi ayrim turlarning faunasi va ekologiyasi bo‘yicha ilmiy izlanishlarining ahamiyati katta.

Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati, ekotizimlar va turlar tarkibi xilma-xilligi bilan maxsus tadqiqotlarni olib borishni talab qiladi; biologik xilma-xillik holatini baholash, inventarizatsiya, rivojlantirishga qaratilgan tabiiy biotizimlarni saqlash tamoyillari va usullari kabi. Shu munosabat bilan, zudlik bilan biologik resurslarni inventarizatsiya qilish va ularni himoya qilish choralari va usullarini ishlab chiqish zarur. 2007-2013 yillarda mavsumiy tarzda Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervatining butun hududidagi umurtqali hayvonlarning tur tarkibi, soni shshbb va ularning tarqalish maydonlari tadqiqotchilar tomonidan o‘rganildi va boshqa kuzatuvlar olib borildi. Olib borilgan sanoq ishlari natijalariga ko‘ra 36 turdagi sutemizuvchilar ro‘yxatga olingan.

S.Sh.Eshchanova (2022) ma’lumotlarida Janubiy Orolbo‘yi mintaqasi to‘qay ekotizimlarida mayda sutemizuvchilar populyatsiyalarining ekologik xususiyatlarini, kichik sutemizuvchilar atrof-muhit holatini o‘rganishda bioindikator ekanligi, *M. Ilaeus* populyatsiyasidan foydalanib, biotopik tarqalishi, ovqatlanishi, yoshi va jinsi tuzilishi o‘rganilgan.

Adabiyotlar

1. Jumanov M.A., Asenov G.A., Bekbergenova Z.O., Qoshanov D.E. “Qaraqalpaqstannıń haywanat dunyası” -Nókis. 2020. - 640 b.

2. Qayıpbekov Q. Qaraqalpaqstan faunası. Nukus. 2009. 191 b.
3. Ешчанова С.Ш. Экологические особенности популяций мелких млекопитающих тугайных экосистем Южного Приаралья // Универсум: химия и биология : электрон. научн. журн. 2022. 93 с.

KASPIY ORTI DALA SICHQONI (*MICROTUS TRANSCASPICUS*)NING HAYOT SHAKLI VA UMUMIY TARQALISHI

[1]Paluanova G.J., [2]Qurbaniyazov A.S., [2]Ayapova U.K.

[1]Ajiniyoz nomidagi NDPI Biologiya kafedrasi o‘qituvchisi

[2]Ajiniyoz nomidagi NDPI Biologiya yo‘nalishi talabasi

Kaspiy orti dala sichqoni (*Microtus transcaspicus*)ning areali juda katta hududni qamrab olgan. U Yevropa, Janubiy Sibir, Qozogıiston, O‘rta Osiyo, Mongoliya va Xitoyning shimoliy sharqida tarqalgan (Bobrinskiy, Kuznetsov, Kuzyakin 1965). MDX hududining Yevropa bo‘limida, Shimolda Karelyaning o‘rta qismining orqasigacha, Arxangelsk viloyatining janubiy tumanlarida), Kavkazda va Kavkaz tashqarisida, O‘rta Osiyoning ayirim tumanlarida va Qozog‘istonda, Sibirda-Amurning yuqori bo‘limida tarqalgan.

Keltirilgan tumanlarning barchasida tabiiy landshaftlarida, eski ekin maydonlarida, daryo bo‘ylarida, tog‘ yonbag‘irlarida, to‘qay massivlarida va insonlarning xususiy tamarqa yerlarida uchrashishi bayon etilgan.

Keltirilgan yashash o‘rinlarida - biotoplarda asosiy ozuqasi o‘simliklar bo‘lganiligi bois ularning ildizlari, urug‘larini yeb, ekinlarga kuchli zarar keltiradi.

Bu turning taksonomik holati unchalik yaxshi o‘rganilmagan. Yuqorida keltirilgan areal hududida dala sichqonining 11 kichik turi uchrashadi, yashaydi. Shundan 4 ta kichik turining tanasining yirikligi bo‘yicha alohidalikka ega ekanligi, nomlanishi, tarqalish mintaqasi keltirilgan:

Birinchi - *Microtus arvalis transcasphycus* Satunin, 1905. Turkmanistonning Chiliy soyi atrofidan ushlangan yirik ekzemplyar;

Ikkinchisi *Microtus ar. Transcaspicus* Thomas, 1912. Qozog‘istonning Panfilov shahri atrofidan ushlangan yirik ekzemplyar;

Uchunchisi - *Microtus ar. Kirgizorum* Ogne., 1950. Qirg‘iz tog‘ tizmasidan ushlangan yirik ekzemplyar;

To‘rtinchisi - *Microtus ar. caspicus* Ogne. Astraxanning tabiiy landshaftidan topilgan o‘rtacha kattaliktagi ekzemplyar.

Biz tadqiq qilayotgan *Microtus transcaspicus* esa Quyi Amudaryo del’tasining daryo bo‘yidagi to‘rang‘il, tol, yovvoyi jiyda daraxtzorlari va aralash buta, yarim buta, qalin qamishzorlik hamda qo‘g‘a to‘qaylik biotoplarida tarqalgan kichik tur hisoblanadi. Hozirgi tarqalish areali haqida ma’lumotlar S. Eshchanovaning (2020) tadqiqotlarida ham ta’kidlangan.

Bu kichik turning tarqalish hududi, biotoplarini aytmaganda bu masala bo‘yicha hali ham tadqiqotlar olib borishni kutib turgan ekologik muammolar juda ko‘p. Uning tarqalish arealini, landshaftli kesimda, biotoplarda o‘rganishning o‘zi ko‘plab muammolarga javob topishda katta ahamiyatga ega.

Kaspiy orti dala sichqonining sutkalik aktivliligi qanday biotsenozda ko‘proq uchraydi, atrof muhitning har qanday omillariga ta’sirlanuvchan hayvon, in qazib yashaydimi, uning tuzilishi va ozuqa turlarining tarkibi qanday degan savollarga javob topish uchun chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqoza etadi.

Microtus arvalis Transcaspicus ning ekologiyasi haqida to‘plangan tizimli, ishonchli statistik materiallarsiz u haqida ma’lumot berishning o‘zi qiyin.

Microtus Transcaspicus Qoraqalpog‘iston hududida tarqalgan kemiruvchilarning ichidagi eng kam sonli kichik tur hisoblanadi deb ta’kidlab o‘tgan edik yuqorida.

O‘zbekiston Sog‘liqni saqlash Vazirligi, Respublika O‘lat Profilaktika Markazi Qoraqalpog‘iston filialining ko‘p yillar davomida (1949-2020 yy) o‘tkazgan dala tekshirish kuzatishlarida, laboratoriya izlanishlarida *Microtus Transcaspicus* faqat 3 marta (1955, 1956 va 2019 yillari) 2 ta joydagina mayda kemiruvchilarning hisobini olishga mo‘ljallangan tutish quroli, yog‘och qapqoniga faqat 5 bosh *M.*

Transcaspicus tushgani, ushlangani ma’lum. U ham Amudaryoning eng quyi Orol dengiziga quyuvchi delta qismida joylashgan Qarajar aholi punkti atrofida quruqlikta va suv muhitida joylashgan vaqtinchalik baliqchilar foydalanadigan joyda bir bosh va quruqlikda qurilgan 100 ta yog‘och qapqonga bir boshi tushgan.

Ko‘p yillar, mavsumlar davomida esa kemiruvchilarni bakteriologik tekshirish va bir vaqtda ularning biotoplardagi son hisobini aniqlashga mo‘ljallangan, hisob-sanoq o‘tkazilgan biotoplarda ham ekishlik zonasi maydonlarida (aralash o‘t-o‘lan) butazorlik, yarim butazorlarda, har xil don va texnik ekin dalalarida, Amudaryo bo‘yi to‘qaylarining barchasida - har xil biotoplarda qurilgan juda ko‘p sonli bir nechta minglagan yog‘och qapqonda, temir qapqonlarda dala sichqoni ushlanmagan.

Bizning tadqiqot ishini olib borgan Baday, Bekbay, Cho‘rtanbay, Porlitov (Qozon ketgan) to‘qaylarida ham ko‘plap ushlangan uy sichqoni, Tamarisk qumsichqoni, tushki qumsichqon, Plastinka tishli kalamush va boshqada turlar qatorida *Microtus transcaspicus* kichik tur dala sichqoni faqatgina hozirgi biosfera rezervati hududidagina mavjud ekanligiga guvoh bo‘ldik.

Kaspiy orti dala sichqoni (*Microtus transcaspicus Satunini*)- to‘qayzorlarda, daryo bo‘ylarida, sholi maydonlari bo‘ylarida yashaydi.

Qamish, qo‘g‘a kabi suv o‘simliklari barglari, poyasi, tuxumlari bilan oziqlanadi. Ko‘payishi aprel-may oylarida bo‘ladi. Har tuqqanida 1-7 bola tug‘adi. Qoraqalpog‘istonda Amudaryo deltasida uchraydi. Ko‘pchilik holatlarda Amudaryo deltasida uy sichqoni (*Mus musculus)* va plastinka tishli kalamush *(Nesokia indica Gray)* bilan yashash sharoiti deyarli bir xil bo‘lgan hududlarda ham uchratishimiz mumkin.

Yuqorida takidlab o‘tganimizdek, kemiruvchilarning hudud bo‘yicha taqsimlanishida *M. Transcaspicus* ko‘p sonli kemiruvchilar qatoridan o‘rin olgan (15,5% ga teng) bo‘lib son ko‘rsatkichi bo‘yicha ikkinchi o‘rinda turadi. Bu esa ularning landshaftlarda tutgan son nisbati hisoblanadi. Ekologik nuqtayi-nazardan esa har bir turning ko‘p yillar, asrlar davomida moslashgan landshaft-biotoplik xusussiyatlari bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. Реймов Р., Карабеков Н. К вопросу о распространении и экологии закаспийской полевки Каракалпакии // Вестник ККО АН РУз.- № 4 (38).- Нукус.1969.- С. 25.

2. Асенов Г.А., Турекеева А.Ж., Утенова Г.У. Қарақалпақстанда тарқалған кемириўшилердиң анықлағыш гилти. Оқыў методикалық қолланба. - Нөкис, 2015. - 31 б.

TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA O‘QUVCHILARNING TEMPERAMENTLARINI HISOBGA OLISH MASALALARI

[1]Romanova L.K., [2]Qadamova H.B.

[1]Ajiniyoz nomidagi NDPI Biologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi

[2]Ajiniyoz nomidagi NDPI Biologiya ta’lim yo‘nalishi talabasi

Insonning shaxsiy xususiyatlari haqida fikr yuritganda, ularning tug‘ma, biologik xususiyatlariga alohida e’tibor beriladi. Chunki aslida shaxs bir tomondan ijtimoiy tirik jon, ikkinchi tomondan - biologik yaxlitlik, tug‘ma xususiyatlarni o‘z ichiga olgan substrat - individ hamdir. Temperament va qobiliyatlar individning dinamik - o‘zgaruvchan psixik faoliyat jarayonini ta’minlovchi xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. Bu xususiyatlarning ahamiyati shundaki, ular shaxsda keyinchalik ontogenetik rivojlanish jarayonida shakllanadigan boshqa xususiyatlarga asos bo‘ladi.Odam temperamentiga aloqador xususiyatlarning o‘ziga xosligi shundaki, ular odam bir ish turidan ikkinchisiga, bir emotsional holatdan boshqasiga, bir kasbni boshqasi bilan almashtirgan paytlarda reaksiyalarning egiluvchan va dinamikligini ta’minlaydi va shu nuqtayi nazardan qaraganda temperament shaxs faoliyati va xulq-atvorining dinamik va emotsional-hissiy tomonlarini xarakterlovchi individual xususiyatlar yig‘indisidir.

Temperament xususiyatlari shaxsning ichki tuzilishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ularning namoyon bo‘lishi uning konkret vaziyatlarga munosabatini,

ekstremal vaziyatlarda o‘zini qanday tutishini belgilab beradi. Masalan, inson turli vaziyatlarda o‘zini turlicha tutadi: oliy o‘quv yurtiga talaba safiga qabul qilinganligi haqidagi xabarni eshitgan bolaning o‘zini tutishi, yoki hayotning og‘ir sinovlari (yaqin kishisining o‘limi, ishdan bo‘shashi, do‘stining sotqinligi kabi) paytida odam beixtiyor tarzda bildiradigan reaksiyalari uning temperamentidan kelib chiqadi.Shuning uchun ham ikki holatni ham kimdir og‘ir-bosiqlik bilan, boshqasi esa o‘zini yo‘qotib qo‘yadigan darajada hissiyot bilan boshidan kechiradi. Shuning uchun ham temperamentning shaxsning shakllanishi ijtimoiy muhitda o‘ziga xos maqomga ega bo‘lishining ahamiyati juda katta. O‘zini qo‘lga olgan, hayot qiyinchiliklarini sabr-matonat bilan yenggan insonning odamlar o‘rtasidagi obro‘si ham baland bo‘ladi. Bu uning o‘ziga hurmatini ham oshiradi, ishga, odamlarga va narsalarga munosabatini takomillashtirib borishga imkon beradi. Temperamentning yana bir muhim jihati shundaki, u hayotiy voqealar, holatlarni, jamiyatdagi ijtimoiy guruhlarni "yaxshi - yomon,""muhim - muhim emas" mezonlari asosida ajratishga imkon beradi. Ya’ni, temperament odamning ijtimoiy obyektlarga nisbatan "sezgirligini" tarbiyalaydi, kasbiy mahorat va kasbiy tajribaning ortib borishiga yordam beradi.

Temperamental xususiyatlar aslida tug‘ma hisoblansa-da, shaxsga bevosita bog‘liq va anglanadigan bo‘lgani uchun ham ma’lum ma’noda o‘zgarib boradi. Shuning uchun ham tug‘ilgan paytida sangvinikka o‘xshash harakatlar ko‘ringan bolani umrining oxirigacha faqat shundayligicha qoladi, deb bo‘lmaydi. Demak, har bir temperament xususiyatlarini va uning shaxs tizimiga bog‘liqligini bilish va shunga yarasha xulosalar chiqarish kerak.

Sangvinik temperamenti to‘g‘ri tarbiyalangan vaqtda, yuksak darajada rivojlangan jamoatchilik tuyg‘usi, mehribonligi, ta’lim olishga, mehnatga va ijtimoiy hayotga faol munosabati bilan ajralib turadi. Tizimli, maqsadli tarbiya bo‘lmagan noqulay sharoitlarda sangvinikda ishga yengil-yelpi, beparvo va loqayd munosabatda bo‘lish, ishni oxiriga yetkaza olmaslik va yetkazishni istamaslik, ta’lim olishga, mehnatga, boshqa odamlarga yuzaki munosabatda bo‘lish, o‘z kuchi va

imkoniyatlarini ortiqcha baholash yuzaga kelishi mumkin. Sangvinik temperamentli o‘quvchilarni doimo diqqat markazida tutish, ularning boshqa narsa bilan band bo‘lib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik, ularni kuchi yetadigan ish bilan band qilish hamda ulardan o‘qishda va mehnatda faol bo‘lishni talab qilish lozim.

Flegmatik temperamenti tirishqoqlik, ishchanlik, qaysarlik kabi xususiyatlar oson shakllanadi. Ammo ayrim hollarda flegmatikda bo‘shanglik, xushyoqmaslik, dangasalik, yalqovlik kabi salbiy xususiyatlar shakllanib qolishi mumkin. Ba’zan bunday temperamentli odamda mehnatga, turmushga, atrofdagi odamlarga va hatto o‘ziga-o‘zi befarq, loqayd munosabatda bo‘lish rivojlanishi mumkin. Flegmatik temperamentli o‘quvchining o‘quv faoliyatida, ayniqsa tez eslab qolish, tez tushunish, tez bajarish talab qilinadigan hollarda uning zaifligi to‘siq bo‘lishi mumkin: bunday hollarda flegmatik zaiflik qilishi mumkin, lekin u hamma narsani yaxshi va mustahkam eslab qoladi. O‘qituvchi flegmatik temperamentli o‘quvchilarning faoliyatini ko‘proq faollashtirishi, ularda paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan befarqlik va sovuqqonlikni yo‘qotishi, bunday o‘quvchilarni darsda aniq (ma’lum) tempda ishlashga o‘rgatibgina qolmay, ularda o‘zlari va o‘rtoqlari qilayotgan narsalarga emotsional munosabat hosil qilishi zarur.

Xolerik o‘quvchilardan xushmuomalalik, lekin talabchanlik bilan shoshilmay, o‘ylab javob qaytarishni talab qilish, ularning xatti-harakatlarida, o‘rtoqlari va kattalar bilan bo‘lgan munosabatlarda o‘zini tuta bilishni doimo tarbiyalab borish lozim. Bunday o‘quvchilarning mehnat faoliyatida izchillik va ishida tartib-intizom bo‘lishini tarbiyalash, barcha topshiriqlarni butun faoliyat davomida yaxshi bajarishini talab qilish zarur. Xolerik o‘quvchilarning mehnat faoliyatining har qanday natijalariga juda qattiq, lekin haqqoniy talablar qo‘yish kerak.

Melanxoliklar yopiq bo‘lishga moyil bo‘ladilar, notanish, yangi odamlar bilan muloqot qilishdan qiynaladilar, ko‘pincha tortinchoq bo‘ladilar, yangi sharoitda qattiq qiynaladilar. Turmush va xizmatning noqulay sharoitlarida melanxoliyada biror narsadan ko‘ngli qolish, ko‘ngli cho‘kish, xafa bo‘lish, shubhalanish, sir saqlash, tashvishga berilish kabi xususiyatlar rivojlanishi mumkin. Bunday o‘quvchilar

jamoadan uzoqlashadi, ijtimoiy faoliyatdan bosh tortadi, o‘z shaxsiy his-tuyg‘ulari bilan cheklanib qoladi. Ammo qulay sharoitlarda to‘g‘ri tarbiyalangan vaqtda melanxolikning eng qimmatli xususiyatlari yuzaga chiqadi. Uning ta’sirchanligi, unga san’atda - musiqada, rasm chizishda, she’riyatda katta yutuqlarga erishish imkonini beradi. Melanxoliklar ko‘pincha muloyimligi, odob-axloqi, xushmuomalaligi, mehribonligi va rahmdilligi bilan ajralib turadi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida temperamentni o‘zgartirish vazifasini qo‘yish mumkin emas. Yuqorida aytib o‘tilganidek, nerv sistemasining "yaxshi" yoki "yomon" temperament tiplari bo‘lmaydi. Har bir temperament tipi ijobiy va salbiy tomonlariga ega bo‘ladi.

Shunday qilib, vazifa tarbiyalanuvchining nerv sistemasi (temperamenti) tipining xususiyatlariga moslashtirgan holda, shaxsning ijobiy xislatlarini tarbiyalashning eng yaxshi yo‘llari, shakllari va metodlarini topishdan iborat bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. Адизова Т.М. Психологическая методика изучения личности учащихся в процессе общения. Методическое пособие.-Т.: ТГПУ, 2000 г.
2. Almatov K. T. Voyaga yetish fiziologiyasi. M.Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti. T.2004.
3. Davletshin M.G. Psixologiyada shaxsni o‘rganish istiqbollari.- "Xalq ta’limi" jurnali, 2001-yil 3-5 sonlar.
4. Nuriddinov E. N. "Odam fiziologiyasi."

JASÍL EKONOMIKA HAQQÍNDA TÚSINIK, ONÍŃ JÁMIYET ÓMIRINDEGI ORNÍ HÁM ÁHMIYETI

Saparova G.A.

Ájiniyaz atındaǵı NMPI Milliy ideya, ruwxıylıq tiykarları hám huqıq tálimi kafedrası docenti, filosofiya ilimleri boyınsha filosofiya doktorı (PhD)

Gilt sózler: jasıl ekonomika, investiciya, texnologiya, modernizaciya, finans, mexanizm, bilimlendiriw, energetika

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, investitsiya, texnologiya, yangilanish, moliya, mexanizm, ta’lim, energetika

Ключевые слова: зеленая экономика, инвестиции, технологии, инновации, финансы, механизм, образование, энергия

2017–2021-jıllarda Ózbekstan Respublikasın rawajlandırıwdıń bes tiykarǵı baǵdarı boyınsha Háreketler strategiyasında belgilengen wazıypalardı izbe-iz ámelge asırıw, sonday-aq, Parij kelisimi (Parij, 2015-jıl 12-dekabr) minnetlemeleriniń orınlanıwın hám Ózbekstan Respublikasınıń “jasıl""ekonomikaǵa ótiwin támiyinlew maqsetinde:

Tómendegiler Ózbekstan Respublikasınıń “jasıl” ekonomikaǵa ótiwiniń tiykarǵı wazıypaları etip belgilendi:

- texnologiyalıq modernizaciyalaw hám finanslıq mexanizmlerdi rawajlandırıw arqalı ekonomikanıń energiya nátiyjeliligin arttırıw hám tábiyǵıy resurslardan aqılǵa uǵras paydalanıw;

- mámleket investiciyaları hám qárejetleriniń tiykarǵı baǵdarlarına aldıńǵı xalıqaralıq standartlarǵa tiykarlanǵan “jasıl” normalardı kirgiziw;

- mámleket tárepinen xoshametlew mexanizmlerin, mámleketlik-jeke menshik sheriklikti rawajlandırıw jáne xalıqaralıq finans institutları menen birge islesiwdi jedellestiriw arqalı “jasıl” ekonomikaǵa ótiw baǵdarları boyınsha tájiriybe-sınaq joybarların ámelge asırıwǵa kómeklesiw;

- bilimlendiriwge investiciyalar kirgiziwdi xoshametlew, jetekshi sırt el bilimlendiriw mákemeleri hám ilimiy-izertlew orayları menen birge islesiwdi rawajlandırıw esabınan “jasıl” ekonomikadaǵı miynet bazarı menen baylanıslı kadrlardı tayarlaw hám qayta tayarlaw sistemasın rawajlandırıw;

- Aralboyındaǵı ekologiyalıq krizistiń unamsız tásirin jumsartıw ilájların kóriw;

- “jasıl” ekonomika tarawında, sonıń ishinde, eki tárepleme hám kóp tárepleme shártnamalar dúziw arqalı xalıqaralıq birge islesiwdi bekkemlew [1].

Ekinshi bap Strategiyanıń maqset hám wazıypalarına baǵishlanǵan.

Strategiyanıń tiykarǵı maqseti mámlekette ámelge asırılıp atırǵan strukturalıq reformalarǵa“jasıl” ekonomika principlerin integraciyalaw arqalı sociallıq rawajlanıwǵa, ıssıxana gazleriniń shıǵındıları dárejesin azaytıwǵa, klimat hám ekologiya turaqlılıǵına imkaniyat beretuǵın bekkem ekonomikalıq rawajlanıwǵa erisiwden ibarat.

Jasıl ekonomika bul ekonomikalıq sistema bolıp, onıń tiykarǵı maqseti bolıp esaplanadı.Planetamızdıń ekologiyası hám onı saqlaw menen birge ekonomikanıńbarlıq tarawların rawajlandırıwǵa qaratılǵan. Solay etip jasılekonomika degende, insan ómiri hám densawlıǵı ushın zárúr bolǵanresurslardı, qorshaǵan ortalıqtı hám ekologiyanı bir pútin halda saqlap qalıp islep shıǵıpshıǵarıw hám xızmet kórsetiw tarawları menen baylanıslı ekonomikanı jáne de rawajlandırıwrawajlandırıwdı ámelge asırıwǵa tiykarlanǵan ekonomikalıq xızmettiń jańabaǵdarı túsiniledi [2].

Elimizde jasıl ekonomika rawajlanıwǵa erisilse,basqarıw tarawın jáne de rawajlandırıw hám jaqsı dárejege shıǵıwıntámiyinleydi. Mámleketke kirip keliwshi jergilikli hám sırt elinvesticiyalar ushın rawajlanǵan hám tallanatuǵın makroekonomikalıq ortalıqqa iye bolıw júdá áhmietli faktor esaplanadı. Mámleketimizge jasıl ekonomikalıq ortalıq ta ashıq-aydın bolıwı kerek ekenligin talap etedi. Basqarıw procesinde jaqsı hám kúshli basqarıw sisteması bolmasa, turaqlı rawajlanıw jolına ótiw itimallıǵı júdá az boladı. Jasıl ekonomikanı rawajlandırıwda nátiyjeli institutlar hám basqarıw strukturaları, rejeler hám baǵdarlamalardıń nátiyjeli ámelge asırılıwın támiyinlewde úlken áhmietke iye esaplanadı.

Jasıl ekonomikaǵa ótiw biznes júrgiziw procesinde jańasha pikirlewdi talap etedi. Bul, sonday-aq, túrli tarawlarda isley alatuǵın hám kóp tarmaqlı bólegi sıpatında isley alıw potencialına iye bolǵan jańa tájiriybeli jumısshı hám qánigelerdi talap etedi. Jasıl ekonomikaǵa ótiw ushın kadrlardıń potencialın jáne de arttırıw kerek.Jasıl ekonomikaǵa ótiw izertlew, texnologiyanı rawajlandırıw, innovaciyalar hám bilimlerdi turaqlı arttırıwǵa investiciya kirgizip barıw zárúrligin talap etedi.

Kóplegen rawajlanǵan mámleketlerdiń jasıl ekonomikanı rawajlandırıw ushın kóplegen resurslar ajıratılǵanlıǵın hám ilimiy-izertlew hám qollanbalarǵa úlken muǵdarda investiciya kirgizgen mámleketler ekonomikasınıń ósiw pátlerin tezlestiriwge eristi.

Buǵan Arqa Evropa mámleketleriniń tájiriybesin kóriwimiz múmkin. Bul mámleketler qatarına Daniya, Finlyandiya, Islandiya, Norvegiya hám Shveciya sıyaqlı mámleketler kiredi. Bul Mámleketler "Jasıl ekonomika"nı rawajlandırıwda salıq faktorınan.paydalanǵanlar [3].

Ilimiy-izertlew hám texnologiya innovaciyalıq háreketleri resurslardıń nátiyjeliligine, sonday-aq, aqaba suwlardı tazalaw hám duzsızlandırıw, qayta tiklenetuǵın energiya, qattı shıǵındılardı qayta islewislew hám qayta islew, jasıl qurılıs hám imaratlar, ekologiyalıq taza úskenelerhám sanaat texnologiyaları sıyaqlı tarawlarǵa baǵdarlanıwı kerekligin talap etiw qıladı.

Oǵan "Byurokratiyalıq tosqınlıqlardı jáne de qısqartıw hám mámleket uyımları hám shólkemleriniń jumısına zamanagóy basqarıw principlerin engiziw ilajları haqqında"ǵı Ózbekstan Respublikası Ministrler Kabinetiniń 09.03.2020-jıldaǵı 133-sanlı qararın da ayqın missal islewimiz múmkin [4].

Juwmaq ornında sonı aytıwımız múmkin, biz islep atırǵan yamasa islemey atırǵan hár bir háreketimiz átirapımızdaǵı dúnyanı qáliplestiredi. Onıń qanday jaǵdayda qáliplesiwi hám rawajlanıwı yamasa joq bolıp ketiwi insanlarǵa baylanıslı esaplanadı. Jasıl ekonomikaǵa ótiw hár qıylı qárejet -qárejetlerdiń azayıwın, qorshaǵan ortalıqtı saqlap qalıw imkaniyatın, mámlekettiń tovar eksportın arttırıw, jeke isbilermenlik jánede rawajlandırıwǵa imkaniyat jaratadı. Sırt el texnologiyaların keńnen engiziw hámjumıs sapasın jetilistiriwge de úlken túrtki boladı. Bunda texnologiyalar hám innovaciyalıq ideyalar menen isley alatuǵın kadrlarǵa bolǵan talaptı da barǵan sayın artıwına sebep boladı desek asıra aytqan bolmaymız.

Ádebiyatlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 04.10.2019 yildagi PQ-4477-son. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.10.2019-y., 07/19/4477/3867-son;

Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 03.12.2022-y., 07/22/436/1061-son; 04.10.2024-y., 06/24/149/0772-son). https://lex.uz/docs/-4539502
2.https://zarnews.uz/uz/post/yashil-iqtisodiyot
3.http://researchgate.net/publication/357097181_Shimoliy yevropa mamlakatlari
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 09.03.2020 yildagi 133-sonli qarori

TO‘QAY ZONASI EKOTIZIMI BIOTOPLARINI O‘RGANISH HOLATI

[1]Tadjibaeva M.K., [2]Sirajaddinova M.J.

[1]Ajiniyoz nomidagi NDPI Biologiya kafedrasi dotsenti

[2]Ajiniyoz nomidagi NDPI Biologiya yo‘nalishi talabasi

XX asrning oxirlarida jahonda aholi sonining tezlik bilan o‘sishi, ularning oziq-ovqatga bo‘lgan talablarining ortishi, shu bilan birga tabiat resurslari o‘rtasidagi dezbalans natijasida dunyo miqiyosida global ekologik inqiroz yuzaga kelmoqda.

Tabiiy to‘qay va madaniy landshaftlarda tarqalgan hayvonlar va wsimliklarning bioxilma-xilligi va ularning bugungi kundagi o‘zgaruvchan yashash muhitiga moslashuvchanligiga mo‘ljallangan jahonda olib borilayotgan izlanishlar samarasida qator ilmiy natijalarga erishilmoqda. Masalan, Orol dengizi suv sathining juda kamayib ketishi natijasida tabiatda yuz berayotgan katta o‘zgarishlar; iqlim, qurg‘oqchilik, havo va yerning, suvning ifloslanishlari va hakazolar hayvonlar va wsimliklarning yashash joylaridagi transformatsion o‘zgarishlar, ularning ommoviy migratsiyasini paydo qilmoqda. Ya’niy avvalgi tabiat qo‘ynini tashlap to‘qayzorliklarga, agrolandshaftlarga o‘tishi kuzatilmoqda. Mezofil turlar asta sekinlik bilan kserofit landshaftlarga moslashsa, kserofil turlar madaniy landshaftlarning qurg‘oqchilikka aylanishi bilan ular ham agrolandshaft zonalariga kirib kelmoqda. Shunday qilib, dunyoning tabiiy ekotizimida antropogen transformatsiyalangan sharoitlarga hayvonlarning ayirim guruhlarida faunistik majmualarida yuz berayotgan ko‘payishidagi, son dinamikasidagi, tarqalishidagi va

joylashishidagi o‘zgarishlarni o‘rganish uchun monitoring kuzatishlarni olib borishni taqozo etmoqda.

To‘qay ekotizimi qumli cho‘llar, tekisliklar, dashtlar, tog‘lar va sug‘orma dehqonchilik ekotizimlaridan oziq-ovqat, boshpana, himoya va osoyishtalikni topishingiz mumkin bo‘lgan optimal ekologik sharoiti bilan juda farq qiladi. Shuning uchun ular o‘zining ancha boy biologik xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Amudaryo deltasining shunday boy va noyob to‘qay ekotizimida Amudaryo daryosi suv sathining pasayishi va kamayishi Orol dengizining qurishi bilan bog‘liq katta o‘zgarishlar ro‘y bermoqda.

Insonlarning tabiatni keragidan ortiq bo‘ysindirishi, yani inson va tabiat, biosfera o‘rtasidagi munosabatlarning ekologik muammosi biologik xilma-xillik muvozanatining o‘zgarishiga - o‘simlik qoplami maydonining qisqarib, cho‘l qismi hududi darajasining ortishiga, yer usti suvlarining kamayishiga, yer osti grunt suvlarlarining pasayishiga, yer yuzasidan bir butun ekosistemalarning yo‘q bo‘lib ketishiga, atmosfera havosining buzulishiga, undagi korbanat angdrid gazi miqdorining ortishiga hamda texnoevolyutsiyaning tezligi bioevolyutsiyadan tez bo‘lishiga olib kelmoqda.

Unga misol qilib 1600-1800 yillarda (200 yil davomida) inson omili ta’sirida bir qancha hayvonlar va wsimliklar yo‘q bo‘lib ketgan, bunday holat hozirgi vaqtda ham davom etmoqda.

2004 yil 17-noyabrda Bangkog (Tayland)da o‘tkazilgan “Yashillar” nomli forumda yaqin 50 yilda yer yuzida 12000 atrofida flora va fauna turlari nobud bo‘lishi mumkinligi va u bugungi yer yuzidagi flora hamda faunaning 30% ga teng ekanligi aytilgan. Shuning uchun ham dunyo hamjamiyati atrof muhitni muhofaza qilishga asoslangan barqaror rivojlanishga o‘tishiga asoslanib biologik xilma-xillikni saqlab qolishni va uni yaxlit holida kelajak avlodga qoldirish printsipini qo‘llab quvvatlaydi.

XX-asrning 60-70 yillari biologik xilma-xillikni asrashga qaratilgan sayyoramiz tabiatini muhofaza qilish nazariyasining asosi bo‘lgan biologik xilma-

xillikni saqlashda ilm va bilimni vasiyatlash kontseptsiyasini foydalanishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida novatorlik kontseptsiya sifatida xalqaro milliy bog‘, qo‘riqxona, biosfera rezervati va muhofaza etiladigan tabiiy hududlar uyushmasini tuzish orqali inson bilan tabiat o‘rtasida ijobiy bog‘liqlikni yo‘lga qo‘yish masalasini yechish o‘rtaga tashlangan va uni boshqarish organi Hukumat aro, bir tartibda ish yuritadigan Yunesko dasturi “Odam va biosfera” koordinatsionaviy organ tashkillashtirildi. Uning tashkil etilishi 1970 yili Yunesko bosh assambleyasida qo‘llab quvvatlandi. Tuzilgan dasturni boshqarish va bajarish uchun Xalqaro koordinatsionniy Kengash (XKK) tuzildi va 1971 yil 9 noyabrda Kengashning birinchi majlisida maxsus turda tasdiqlandı. Eng ustuvor masalaning biri XKK da mahalliy xalqning biosfera rezervatda keng ishtirok etishi belgilab qo‘yildi.

Birinchi biosfera rezervat 1974 yili Amerika olimlari tomonidan uzoq vaqt foydalanishga mo‘ljallangan ilmiy tadqiqot hududi va o‘sha yili “Odam va biosfera” rezervati Yunesko tomonidan ish konseptsiyasi (Sevilskaya strategiya biosferalik rezervat uchun) ishlab chiqildi, 1976 yildan e’tiboran Biosfera rezervatining Dunyo bo‘ylab bo‘limlari paydo bo‘la boshladi va ushbu davrda jahonning 8 ta davlatida 59 ta biosfera rezervat tashkil qilingan.

Shunday qilib, Qoraqalpog‘iston to‘qaylarining biologik xilma-xilligini muhofaza qilish katta ahamiyatga ega. Sababi O‘zbekistonning 8050,4 ming ga maydonining 18,2% to‘qay maydoni tashkil etadi. Bu esa O‘zbekistonda to‘qay qoplamining juda oz ekanligin ko‘rsatadi.

Adabiyotlar

1. Асенов Г.А., Сейтназаров С.К., Есимбетов Р.М., Матрасулов Ғ.Ж., Абдигаппаров Ж.Ж. Проблемы сохранения биоразнообразии тугайной экосистемы низовьев реки Амударьи // «Жанубий Оролбўйи табиий ресурсларини оқилона фойдаланиш» VIII Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Нукус 2019 й. 18-21 б.

2. Быков Б.А. Экологический словарь.-Алма-Ата: Наука, 1983. 216с.

3. Гептнер В.Г. Общая зоогеография. М.: Биомедгиз, 1936. — 553 с.

КАТТА ҚУМСИЧҚОНЛАРНИНГ *(Rhombomys opimus)* СОН ДИНАМИКАСИ ВА УНИНГ ЙИРТҚИЧ ҚУШЛАР ПОПУЛЯЦИЯСИГА ТАЪСИРИ

[1]Алланиязов Н.П., [2]Қурбаниязов А.С.

[1]ЎзССВ Республикаси Ўлат Муҳофаза маркази ҚҚ Филиали Тахтакупир бўлими

[2]Ажиниёз номидаги НДПИ биология мутахассислиги талабаси

Аннотация: Ушбу ишда Белтов минтақасидаги катта қумсичқонларнинг кўпайиш ва камайиш давирларининг йиртқиш қушлар – айниқса сарисор (Buteo rufinus) каби турларнинг сони билан узвий боғлиқлигини кўрсатади.

Калит сўзлар: Бельтов, катта қумсичқон (Rhombomys opimus, сарисор (Buteo rufinus), динамика, экология.

Қизилқум чўлининг биогеоценозларида кичик сутэмизувчиларнинг ролини аниқлаш экотизимдаги тропик занжир муносабатларини тушуниш учун муҳим аҳамиятга эга. Кенг тарқалган *(Rhombomys opimus)* тури нафақат чўлнинг фитотўплари ва тўпроқ тузилишига таъсир кўрсатади, балки йиртқич қушлар учун асосий озуқа манбаи ҳисобланади. Қумсичқонларнинг кўпайиши чўлдаги йиртқич қушлар сони ва уларнинг кўпайиш фаолиятига бевосита таъсир кўрсатади. Хусусан, сарисор *(Buteo rufinus)* турининг тухум қўйиш даражаси катта қумсичқонларнинг гектарига тўғри келадиган зичлиги билан пропорционал равишда ўзгаради.

Кузатувлар Қизилқум чўлининг Белтов ҳудудида 2018-2024 йиллар давомида олиб борилиб, сарисор инидаги тухим сони билан қумсичқонлар зичлиги ўртасидаги боғлиқлик таҳлил қилинди. Натижаларга кўра, агар катта қумсичқонларнинг гектарига тўғри келадиган зичлиги 10-30% бўлса, сарисор инларида одатда 2 та тухим кузатилади. Зичлик 40-60% бўлганда 4 та тухим, 60% дан юқори бўлганда эса 5-6 та тухум учрайди. Бу ҳолат сарисор ва чўл

бургутининг кўпайиш даражаси тўлиқ озуқа базасига боғлиқ эканини кўрсатади. Расм 1.

Чўл бургути *(Aquila nipalensis)* ҳам худди шундай экотрофик занжирда иштирок этади. У катта қумсичқонлар сони динамикаси 80-90% бўлган секторлардагина учирайди. Аксинча, озуқа манбаи камайганда купайиш фаолияти пасаяди. Йиртқич қушлар фаолияти натижасида кемирувчилар сони табиий равишда тартибга солиниб, чўл экотизимидаги биологик баланс сақланади.



Расм 1. Сарисор *(Buteo rufinus)* уяси.

Олинган маълумотлар Қизилқум чўлидаги йиртқич қушлар популяцияси, айниқса сарисор ва чўл бургутининг кўпайиши катта қумсичқонлар зичлигига тўғридан-тўғри боғлиқ эканлигини тасдиқлайди. Шу сабабли, *(Rhombomys opimus)* популяциясини мунтазам мониторинг қилиш нафақат эпизоотологик, балки орнитологик нуқтай назардан ҳам муҳим аҳамиятга эга. Бу тадқиқот натижалари чўл экотизимининг биологик барқарорлигини сақлаш ва йиртқич қушлар популяциясини муҳофаза қилиш стратегияларини ишлаб чиқишда илимий асос бўлиб хизмат қилади.

Адабиётлар

1. Мартиневский И.Л., Кенжебаев А.Я., Асенов Г.А., Степанов В.М. Қызылқумский очаг чумы. Нукус 1991год. 68-74.

2. Асенов Г.А. Значение большой песчанки в природной очаговости чумы на территории Республики Каракалпакстан. Автореферат док.дисс. Тошкент 1999 жыл. 52.

РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВОДНОЙ РАСТИТЕЛЬНОСТИ ВОДОЕМОВ КАРАКАЛПАКСТАНА

Бектурсынов А.

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

Растительность в водоемах имеет существенное значение в жизни животных организмов: Они служат:

1) местами зимовок для моллюсков, ракообразных и водных насекомых;

2) местом обитания для многих видов рыб;

3) субстратом для бентосных организмов;

4) кормом для водоплавающей птицы, травоядных рыб, ондатры и др. водных животных;

5) местом гнездования птиц, устройства нор пушными зверями;

6) местом защиты от хищных животных и т.п.

Заросли водно-болотных растений оказывают существенное влияние на температуру водной среды. Высокие заросли препятствуют сильному нагреву поверхности воды. Также водные растения имеют важное значение в самоочищении водоемов.

Заросли служат барьером, противодействующим прибою и защищают берег от размывания.

Исследователями неоднократно было отмечено положительное значение для нереста и нагула рыб таких растений, как уруть, рдест гребенчатый, наяда морская, манники, зостеры и др. На побегах этих растений всегда наблюдается богатое обрастание из бентосных водорослей и животных.

Многие животные организмы, служащие пищей рыбам, такие, как личинки Trichoptera (ручейники), гусеницы бабочек, моллюски и др. питаются высшими водными растениями. Для мелких водных животных основной пищей являются водорослевые обрастания на стеблях макрофитов. Личинки хирономид, крупные моллюски поедают эти обрастания в большом количестве.

Отдельные виды водно-болотных растений имеют довольно широкое и разнообразное применение в народном хозяйстве.

Тростниковые заросли используются как сенокосы для получения сена для животноводства. Но в результате беспорядочного выпаса скота и сенокошения высокопроизводительные угодья могут быть превращены в пустошные солончаковые или заболоченные участки. На берегах водоемов тростники местами совсем исчезают, а местами становятся низкорослыми и малоценными.

Выжигание зарослей тростников является одним из вредных приемов который отрицательно действует на возобновляемость зарослей. При ежегодном применении выжигания тростниковых зарослей снижается возобновляемость, производительность зарослей и в конце концов наступает полная их деградация.

По мнению некоторых исследователей выжигание тростниковых зарослей вокруг водоемов – эффективный способ омоложения их зарослей. Однако наблюдения показали что огонь все же пагубно влияет на тростники, особенно при ежегодном регулярном выжигании, и местами может привести к полной деградации зарослей. Освобожденные от тростника места могут занимают заросли клубнекамыша, рогоза и др.

EKINSHI SEKCIYA

“JASÍL” EKONOMIKA HÁM AYMAQLARDÍ TURAQLÍ SOCIAL-EKONOMIKALÍQ RAWAJLANDÍRÍWDA ILIMIY-PEDAGOGIKALÍQ QATNASLAR

****

IKKINCHI SEKSIYA

“YASHIL” IQTISODIYOT VA HUDUDLARNI BARQAROR IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA ILMIY-PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

****

ВТОРАЯ СЕКЦИЯ

НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К УСТОЙЧИВОМУ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОМУ РАЗВИТИЮ РЕГИОНОВ И «ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА»

EKOLOGIK LOYIHALARNI ISHLAB CHIQISHDA O‘QUV-LOYIHA ISHLARINING KOMPLEKS TAVSIFI

[1]Abdiramanov J.B., [2]Bazarbaeva N.B.

[1]Ajiniyoz nomidagi NDPI Geografiya kafedrasi katta o’qituvchi

[2]Ajiniyoz nomidagi NDPI Geografiya bakalavr ta’lim yonalisi 2-kurs talabasi

Ekologik loyihalashtirish jarayonida o‘tmish, bugun va kelajakning o‘zaro bog‘liqligi intellektual jihatdan amalga oshiriladi. Loyihalashtirish texnologiya sifatida zamonaviy pedagogik nazariyalar va innovatsion pedagogik amaliyot xususiyatlarini o‘zlashtirib, o‘qitishning noan’anaviy shaklini yaratadi.

Pedagogik loyihalashtirish muammosi ilmiy adabiyotlarda yetarli darajada o‘rganilgan. Pedagogik rejalashtirishning eng katta zarurati pedagogik jarayon subyektlarining o‘zaro foydali ta’siri mumkin bo‘ladigan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish jarayonida ortadi. Pedagogik loyiha hayotiy loyihalar uchun o‘rin qoldiradi. Pedagogik rejalashtirish o‘zining barcha tuzilmalarida o‘z subyektlari rivojlanishining ilg‘or tendensiyalarini hisobga oladi. Pedagogik loyihalash jarayonida o‘z maqsad va vazifalari shakllantiriladi va bu maqsadga erishishga intilish izchillik bilan amalga oshiriladi.

Loyihalashtirib o‘qitish tizimi konsepsiyasining ishlab chiqilishi ma’lum ma’noda ekologik ta’lim bosqichini ochadi. Mazkur konsepsiya ilgari shakllangan xulosalarga nisbatan ta’lim nazariyasi va amaliyoti sohasiga o‘quvchilarning aqliy va shaxsiy rivojlanishining eng muhim tarkibiy qismi sifatida ularning ekologik madaniyatini shakllantiradigan nafaqat bilishga qiziqish, tafakkur va boshqalarni faollashtirishning ayrim elementar usullarini, balki yaxlit tizimni ham kiritdi.

Boshqacha aytganda, bilimlarni rivojlantirish, harakatchanlik, ulardan foydalanishda ijodkorlikka e’tibor qaratiladi. Talabalarning abstrakt bilimlarning katta zahirasini egallashga bo‘lgan ehtiyoji kechiktirilmoqda.

O‘quv-loyiha faoliyatining predmeti - inson ijodini yaratuvchi yoki qayta yaratuvchi real obyektlar, jarayonlar va hodisalar haqidagi tushuncha. U talabaning

zamonaviy madaniyatni shakllantirish jarayonining ma’lum bir qismida yashab qolishini yoki ta’lim oluvchilarning atrofdagi dunyo haqida ilmiy tasavvurlarni shakllantirish, moddiy yoki boshqa obyektlarni konstruksiyalash va boshqalar bilan yaqinlashishini nazarda tutadi [1].

O‘quv-loyiha ishi jarayonida bilimlarning integratsiyalashgan ko‘p tarmoqli sohasi asosiy masalalarni yetarli darajada qamrab oladigan yirik mazmunli bloklarga bo‘linadi. Ushbu bloklar ekologik muammolarni hal qilishning borishi uchun mas’ul bo‘lgan va o‘zining, shuningdek, boshqa tadbirlardan chetlashtirilgan imkoniyatlarini tanlab olish orqali loyihani yaratish va uning yakuniy g‘oyasini amalga oshirish bo‘yicha maqsadli harakatlarni tushunish sifatida tushuniladigan loyihalashtiriladigan harakatlar ko‘rinishida amalga oshiriladi.

Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv-loyiha faoliyati orqali kelajakdagi kasbiy faoliyatni modellashtirish fan va ijtimoiy jihatdan o‘qitishning rivojlantiruvchi xarakteriga ta’sir ko‘rsatadi, chunki o‘quv motivatsiyasi, shaxsning o‘quv-bilish faoliyatidagi faolligi, shaxslararo dialogning o‘zaro ta’siri uchun zarur shart-sharoitlarni ta’minlaydi.

Ekologik loyihalashning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri, uning ko‘p sonli subyektlarining barham topmasligi bo‘lib, bu holat loyiha mualliflari uchun ko‘plab turli yo‘nalishlardagi omillar va talablarni hisobga olish zaruratini yuzaga keltiradi. Bu borada ekologik loyihalar bo‘yicha yagona yechimlar yo‘qligini, loyihalar xilma-xilligini tushunish mumkin.

Olimlarning fikricha, ekologik loyihaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- insonning tarbiyasi va rivojlanishi uchun sharoitlar yaratishda izlanishning aniq yo‘nalishlarini asoslash, uning ichki kuchlarini, ijtimoiy o‘zini o‘zi belgilash va shakllantirishni jadallashtirish;

- ekologik jarayonlar va tizimlarning rivojlanishini bashorat qilish;

-ta’lim sohasida istalgan natijalarni aniqlash va erishish imkonini beradigan kasbiy faoliyat jarayonlarini yaratish, ta’minlash, tashkil etish;

- ekologik tahlil o‘tkazish va uning asosida mutaxassislarning ishlab chiqarish faoliyatiga tuzatishlar kiritish va boshqaruv qarorlariga tuzatishlar kiritish [3].

Ekologik loyihalarni ishlab chiqishda loyihalashtirish jarayonlarini tashkil etish o‘zaro mantiqiy bog‘liqlikda amalga oshiriladi. Ekologik loyihalashdagi jarayonlarning o‘zgarishi deganda bir-biriga bog‘liq bir qator hodisalar tushuniladi.

Shuning uchun loyihalashtirishda dastlab kutilayotgan natija asoslanib, keyin unga erishish bosqichlari va vositalari aniqlanadi. Ekologik loyihalashtirish muammosi bo‘yicha adabiyotlarning o‘tkazilgan tahlili shuni ko‘rsatdiki, loyihalashtirish mantig‘ining eng asosiy xususiyati va murakkabligi natijani yakuniy bashorat qilishdir, bu natijaga erishish variantlari va vositalari hali o‘rganilmagan bosqichda erishiladi.

Demak, loyihachi kutilayotgan natijadan kelib chiqishiga ta’sir etuvchi sabablardan kelib chiqib, shartlardan kelib chiqishiga ta’sir etuvchi sabablarga teskari tartibda harakat qiladi [2].

Ekologik loyihalashtirish jarayonida bo‘lajak mutaxassislar sa’y-harakatlar to‘plami va loyihalar to‘plami o‘rtasidagi farqni ko‘rsatadi: sa’y-harakatlar to‘plami - loyihani ishlab chiquvchilar tomonidan bajariladigan loyihalar yig‘indisi (jarayonli jihati) va ularning sa’y-harakatlari natijalari - mintaqaning ekologik muammolarini umume’tirof etilgan baholarga muvofiq o‘zlashtirish asosida uni o‘zgartirishga intiluvchi loyihachilar tomonidan bajariladigan loyihalar yig‘indisi (mahsuldor jihati).

Ekologik loyihalashning yagona jarayonida ikki tomonning muvofiqlashuvi xususiy mulk maqsadlarini belgilash, shuningdek, ushbu maqsadlarga erishish jarayonining izchilligi orqali amalga oshiriladi. Demak, bosqichlarni loyihalash jarayoni shartli bosqichlar to‘plamini ifodalaydi.

Adabiyotlar

1. Абдираманов Ж.Б., Беласарова Ш.М., «Географиялық билим бериўде жойбарлаў (проект) технологияларын қолланыў» Qaraqalpaqstan. Ilim hám jámiyet. №4.2023. 69-70 b.

2. Ekologiyalıq bilimlendiriw, xalıqtıń tábiyattı qorǵaw tárbiyası teoriyası hám ámeliyatınıń ayırım máseleleri / Sarıbekov N., Kabirova S., Sarıbekova K. // Atameken. - 1997. (No18). - 2b.
3. Sarıbekov N. Biosferanı qorǵawga oqıwshılardı tayarlawdıń pedagogikalıq tiykarları. Alma-Ata: Mektep, 1978. - 28 b.

QARAQALPAQSTAN XALÍQ XOJALÍǴÍ TARAWLARÍNÍŃ RAWAJLANÍWÍNA EKOLOGIYALÍQ SHARAYATLARDÍŃ TÁSIRI

[1]Abdiramanov J.B., [2]Erkinbaeva U.B.

[1]Ájiniyaz atındaǵı NMPI Geografiya kafedrası úlken oqıtıwshısı

[2]Ájiniyaz atındaǵı NMPI Geografiya hám ekonomikalıq bilim tiykarları bakalavr tálim baǵdarı 3-rurs talabası

Keyingi jıllarda Oraylıq Aziya respublikalarınıń tábiyiy ortalıǵı, topıraq, suw, hawa ortalıqları, tábiyiy landshaftlarınıń tábiyiy jaǵdayları bir qansha ózgerislerge ushıradı. Ásirese bunday jaǵday Qaraqalpaqstan Respublikasınıń xalıq xojalıǵına, sotsial-ekonomikalıq rawajlanıwına úlken ziyanlar keltirdi hám keltirmekte. Sol sebepli júzege kelgen mashqalalardı tereń úyreniw hám analiz etiw olardı aldın ala bes onlaǵan jıllarǵa ózgerisleriniń boljawların beriw házirgi kúnniń baslı máselelerinińiń biri esaplanadı.

Qaraqalpaqstan Respublikası iri tábiyıy, mineral hám awıl xojalıǵı resursları, miynet potencialı, jol, transport hám injenerlik-kommunikaciya tarmaqları, sanaat infrastrukturası, qolaylı geografiyalıq jaylasıwı hám áhmietli aymaǵına ie.

Házirgi rawajlanıw dáwirinde respublikamızdıń sanaat, awıl-xojalıǵı tarawlarınıń nátiyjeli rawajlandırıw máselesi tiykarınan alǵanda bul regiondaǵı ekologiyalıq jaǵdaylarǵa tikkeley baylanıslı. Sonlıqtanda bul mashqalanı sheshiw maqsetinde ilimiy-izertlew jumısların alıp barıw búgingi kúnniń aktual máselelerinińiń biri. Házirgi waqıtta Qaraqalpaqstan aymaǵında tábiyiy resurslardan paydalanıw hám onı qorǵaw boyınsha ilimiy izertlew jumısları alıp barılmaqta.

Qaraqalpaqstanniń óndiriwshi kúshlerin rawajlandırıwda hám maqsetke muwapıq jaylastırıwda, sonday-aq awıl -xojalıǵı eginlerinen joqarı zúráát alıwda klimat sharayatları hám klimat resursları baslı rol` oynaydı. Sebebi awıl -xojalıq eginlerin egiw hám olardan joqarı zúráát toplaw ekologiyalıq sharayatqa tikkeley baylanıslı.

Búgingi kúnde Qaraqalpaqstan ushın ekologiyalıq qáwiplerdi tómendegishe klassifikaciyalaw múmkin.

1. Global mashqalalar (klimat ózgeriwi, ozon qatlamınıń azayıwı, Aral teńiziniń qurıwı, dushshi suw mashqalası).

2. Aymaqlıq mashqalalar - Aral teńiziniń qurıwı menen baylanıslı unamsız ekologiyalıq jaǵday, suw resurslarınan paydalanıw, transshegaralıq pataslanıw, shólleniw, juqpalı hám ayrıqsha qáwipli keselliklerdiń tarqalıwı menen baylanıslı regionallıq mashqalalar, tábiyiy hám texnogen xarakterdegi mashqalalar.

3. Milliy ekologiyalıq mashqalalar: suw resurslarınıń jetispewshiligi hám pataslanıwı, taza ishimlik suwınan paydalanıw mashqalaları, hawanıń pataslanıwı, biologiyalıq kóp túrlilikti saqlaw, xalıqtıń densawlıǵın saqlaw mashqalaları, tábiyiy resurslardan aqılǵa uǵras paydalanıw, sanaat hám turmıslıq shıǵındılar mashqalaları.

4. Jergilikli ekologiyalıq mashqalalardı sanap ótiw múmkin (belgili aymaqlardıń radiaciyalıq pataslanıwı, jer astı suwlarınıń kóteriliwi hám pataslanıwı).

Ekologiyalıq jaǵday Qaraqalpaqstannıń xalıq xojalıǵına, ásirese suwdıń jetispewshiliginen, topıraqtıń shorlanıwınan, qurǵaqshılıqtan, kúshli samaldan azap shegip atırǵan awıl xojalıǵına úlken tásir kórsetpekte. Bul faktorlar ónimdarlıqqa unamsız tásir kórsetedi, ónimdarlıqtıń tómenlewine hám ekonomikalıq shıǵınlarǵa alıp keledi, melioraciyalaw hám shólleniwge qarsı gúresiwge úlken qárejetlerdi talap etedi[2]. Bul tásir basqa tarmaqlarda da sezilmekte, máselen, sanaat suw resurslarınan paydalanıw imkaniyatı menen sheklengen, densawlıqtı saqlaw tarawı qorshaǵan ortalıqtıń pataslanıwı menen baylanıslı mashqalalarǵa dus kelmekte.

Awıl-xojalıq eginleri eń aldı menen klimat resurslarına iykemlesken túrde rawajlanadı. Qaraqalpaqstannıń klimat resursları hám klimat sharayatları

sharwashılıq tarawların, ásirese búgingi kúndegi elimizde alıp barılıp atırǵan qımbat baxalı eksport siyasatın atqaratuǵın qarakól teri beretuǵın qarakól sharwashılıǵın hám ıssılıqtı talap etetuǵın awıl xojalıq tarawların rawajlandırıwda da úlken rol oynaydı [1].

Usıǵan sáykes aldaǵı waqıtları Aral teńizi suwınıń qurıwına baylanıslı respublikanıń klimat sharayatında qolaysız hádiyseler júz bermekte. Usıǵan muwapıq arqa zonada nátejiyeli temperaturalardıń qısqarıwına baylanıslı paxtashılıqtıń egislik maydanlardıń strukturasınan qısqartıp onıń ornına sharwashılıq, palız hám ovosh, tuxımlıq jońıshqa óndiriw hám pal xárreshilik tarawların rawajlandırıwǵa tuwra keledi.

Teńizdiń qurıwı menen baylanıslı aqıbetlerdi saplastırıw xalıq aralıq sheńberdegi háreketlerdi jedel birlestiriwdi talap etpekte.

Mámleketimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoev bul boyınsha Birlesken Milletler Shólkemi Bas Assambleyasınıń sessiyalarında shıǵıp sóyledi, xalıqaralıq sammitlerde áhmietli usınıslardı alǵa qoydı. Sonıń menen birge, óz imkaniyatlarımızǵa súyenip, ámeliy jumıslar da alıp barılmaqta. Prezidentimiz ilimpazlar menen másláhátlesip, bul jerde duzǵa shıdamlı ósimlikler egiw wazıypasın belgilep bergen edi [3].

Ótken jılları teńizdiń suwı qurıǵan bóliminde 1 million 524 mıń gektar toǵayzarlıq jaratılǵan. Onıń ushın seksewil, qarabaraq, qandım, cherkez sıyaqlı shól ósimliklerinen derlik 6 mıń tonna tuqım tayarlanıp, qıyın sharayatlarda egilgen. Bul jumıslarda 4 mıńnan aslam jumısshı qatnasıp, 1 mıń 600 texnika, samolyotlar tartıldı.

Taraw ilimpazlarınıń maǵlıwmatlarına bola, Aralboyı aymaqlarında qurılǵan 2 jıllıq seksewilzarda samal tásirinde qum kóshiwi 20 procent, 5 jıllıq seksewilzarda 80 procent, 7 jıllıq seksewilzarda bolsa tolıq toqtatıladı. Nátiyjede Aralboyı regionında klimat turaqlasadı, qumlardıń hawaǵa kóteriliwi toqtaydı. Adamlardıń jasawı ushın sociallıq-ekonomikalıq ortalıqtıń turaqlılıǵı támiyinlenedi.

Ádebiyatlar

1. Abdiramanov J.B. «Geografiya ta’limida o‘quvchilarda ekologik bilim va madaniyatni shakllantirish». "Экономика и социум" №4(131)-2 2025. 12-15 стр.

2. Абдираманов Ж.Б., Утепова Г.Б. «Экономической развития сельской местности с учетом экологических особенностей Южного Приаралья». Материалы международный научно-практической конференции. Казахстан. Каспийский университет инжиниринга и технологии и имени Ш. Есенова. Г. Актау. Том 2. 2023.
3. Абдираманов Ж.Б. «Некоторые вопросы по развитию экологического туризма в Низовьях Амударии» Материалы международный научно-практической конференции. Казахстан. Каспийский университет инжиниринга и технологии и имени Ш. Есенова. Г. Актау. Том 2. 2023.

BOLAJAQ QÁNIGELERDIŃ EKOLOGIYALÍQ MÁDENIYATIN QÁLIPLESTIRIWDE OQÍW-JOYBAR (PROEKT) JUMÍSLARÍNÍŃ IMKANIYATLARÍ

[1]Abdiramanov J.B., [2]Maxsetbaeva A.K.

[1]Ájiniyaz atındaǵı NMPI Geografiya kafedrası úlken oqıtıwshısı

[2]Ájiniyaz atındaǵı NMPI Geografiya hám ekonomikalıq bilim tiykarları bakalavr tálim baǵdarı 3-kurs talabası

Joybarlastırıw usılların qollanıwdıń kóp tamanllıǵı hám keń qollanılıwı bolajaq qánigelerdiń kásiplik sanası hám túsinigin ózgertiw mashqalaların támiyinlew imkaniyatın beredi.

Joybarlastırılǵan oqıtıw hár qıylı iskerlik tarawlarınıń biliw hám jeke kásiplik wazıypaların sheshiwdiń ámelge asırıwshı quralı bolıp esaplanadı.

Joybarlastırıp oqıtıwdıń teoriyalıq tiykarları V.Monaxov, A.Xutorskiy, G.P.Shedrovickiy hám basqalardıń jumıslarında úyrenilgen[1].

Bul avtorlar ushın ulıwma bolǵan pikir-izertlew, konstrukciyalaw, tán alıw hám juwmaqlanǵan joybar nátiyjelerin hár tárepleme bahalaw ideyalarına tiykarlangan joybarlawshı oqıtıwdıń kompleksli xarakteri esaplanadı.

Ekologiyalıq bilimlerdi ámelge asırıw procesinde oqıw-joybarlaw iskerligi metodlarınıń tiykarında joybarlastırıp oqıtıw jatatuǵınlıǵın ayrıqsha túsiniw zárúr.

Ol izertlew obektiniń qarama-qarsılıqların anıqlaw hám sheshiwde bilimlerdi ózlestiriw principi tiykarında qurıladı.

Sonday-aq, biliw hám ilim kózqarasınan muǵallim hám oqıwshilar birgelikte sheshetuǵin mashqalalar forma bolip tabıladı. Pikirlesiw metodi mashqalanıń qoyılıwına qaray almasıp turadı hám oniń sheshiliwine tásir kórsetedi. Rolli oyinlardıń predmeti mashqalalı jagdaylar bolip esaplanadı. Sinektika ("miydiń háreketleri" hám basqalar) metodi. Sonday-aq, mashqalalardıń sheshimin jámáát bolıp tabıwǵa tiykarlanǵan [2].

Joybarlastırıp oqıtıwdıń jetekshi principi izertlew obekti qarama-qarsılıqların anıqlaw hám sheshiw arqalı bilimlerdi ózlestiriw bolıp esaplanadı. Joybarlastırıp oqıtıw procesinde bilim hám pán oqıtıwshınıń basshılıǵında studentlerdiń joybarların orınlaw mashqalası kórinisinde ámelge asırıladı.

Talabalar menen birgelikte ámelge asırılatuǵın oqıw-joybarlaw ekologiyalıq iskerligine oqıw jámááti yamasa bolajaq óndiris jámááti tárepinen názerde tutılǵan háreket hám is-háreketlerdiń hár birin talaplarǵa boysındırıwdı názerde tutıwshı jámáátlik biliw formasın shólkemlestiriwdi kirgiziw bolajaq qánigeniń shaxsın tolıq támiyinlew imkaniyatın beredi.

Bilimlendiriw tarawı qánigeleri joybarlastırıp oqıtıw metodlarınıń universalligi hám keń qollanılıwın túsinip jetken.

Olardıń kóp wazıypalılıǵı bolajaq qánigelerdiń kásiplik túsiniginiń ózgeriwin támiyinlewde, obyekt hám sistemalardı ózlestiriwde, biliw wazıypaların sheshiwde, hár qıylı iskerlik tarawlarınıń haqıyqıy kásiplik wazıypaların sheshiwde kórinedi (A.A.Verbitskiy, P.I.Pidkasistiy hám basqalar).[1]

Oqıw-joybarlaw iskerligine bilim beriwdiń belgili-kontekstli tipi jaqınlasadı. Onıń áhmiyeti A.A.Verbitskiydiń miynetlerinde tiykarlanǵan. Bul túrdegi bilim beriw procesinde biliw procesi kásiplik miynetti predmetlik hám sociallıq kórip shıǵıwǵa tiykarlanadı.

Joybarlaw-dóretiwshilik xizmetiniń jetekshi sipatları, L.Kuzminanıń pikirinshe, pikirlewdiń aldınnan aytıp beriwsheńligi, dóretiwshilik qıyalınıń joybarlılıǵı, dóretiwshilik pikirlewdiń kommunikabelligi, pikirlewdiń logikalıq formalarınan paydalanıw arqalı óz pikirin dálillew hám sorawlardı qáliplestiriw qábileti esaplanadı:

Oqıw-joybarlaw iskerliginde oqıtıwshı bilim beriwshi sipatında gana emes, al pedagogikalıq procestiń birgeliktegi qatnasıwshısı sipatında da sezilerli ózgerislerge ushiraydı.

Pedagoglar studentlerge hár qıylı mashqalalarǵa durıs sheshim tabıwǵa járdem beredi, bilim alıwshılardıń dóretiwshilik potencialın tolıq júzege shıǵarıwǵa járdemlesedi.

Oqıwshılardıń biliw-dóretiwshilik iskerligin jedellestiriw maqsetinde zamanagóy oqıtıw metodlarınıń keń imkaniyatlarınan paydalanıwǵa umtıladı.

Pedagog oqıw-joybarlaw iskerligi qatnasıwshılarınıń másláháchisi, shólkemlestiriwshisi hám járdemshisine aylanadi[3].

Usı máseleni teoriyalıq tallaw nátiyjesi bizge jobalastırıw - ol yamasa bul sistemada qayta dúziw zárúrligi múnásibeti menen nızamlı túrde payda bolǵan kóp jámiyetlik háreketti anıqlawǵa múmkinshilik beredi.

Ekologiyalıq joybarlaw barlıq dáwirlerde de mánzilli ózgerisler menen tıǵız baylanıslı boladı.

Ekologiyalıq joybarlastırıw wazıypalarınıń qáliplesiwi qarama-qarsılıqtıń barǵan sayın anıq kózge taslanıwınan baslanadı.

Joybarlaw wazıypası joybarlaw procesinde kúsheyip baradı, yaǵnıy turaqsız boladı [1].

Joybarlastırıwdıń materiallıq ónimi oqıwshılar tárepinen materiallıq, sociallıq, ilimiy-izertlew xarakterine iye bolgan mashqalalardan biri boyınsha erkin túrde erkin sheshim qabıl etiwdi anıqlawga uqıplı bolgan oqıw joybarı bolip tabıladı.

Oqıw joybarları tómendegi túrlerge iye boliwi múmkin:

- procesler, waqıyalar, hádiyselerdi belgili bir sharayatta konstrukciyalaw, olardıń rawajlanıw barısın boljaw;

- aymaqtıń ekologiyalıq mashqalaları boyınsha prognoz sheshimlerin islep shıǵıw;

- sheshiletuǵın mashqalaǵa túrli kózqaras wákilleri arasındaǵı tartıslar;

- qabıl etiletuǵın qararlardıń nátiyjelerin qısqa hám uzaq múddetli boljaw hám basqalar.

Ádebiyatlar

1. Абдираманов Ж.Б., Беласарова Ш.М., «Географиялық билим бериўде жойбарлаў (проект) технологияларын қолланыў» Qaraqalpaqstan. Ilim hám jámiyet. №4.2023. 69-70 b.

2. Ekologiyalıq bilimlendiriw, xalıqtıń tábiyattı qorǵaw tárbiyası teoriyası hám ámeliyatınıń ayırım máseleleri / Sarıbekov N., Kabirova S., Sarıbekova K. // Atameken. - 1997. (No18). - 2b.

3. Sarıbekov N. Biosferanı qorǵawga oqıwshılardı tayarlawdıń pedagogikalıq tiykarları. Alma-Ata: Mektep, 1978. - 28 b.

MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA KO‘MIR RESURSLARINING HUDUDIY TARKIBI VA ENERGETIK RIVOJLANISH OMILLARI

Abdullayev A.A.

Namangan davlat universiteti Geografiya yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Markaziy Osiyo mamlakatlarida (Qozog‘iston, O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Tojikiston) ko‘mir resurslarining hududiy tarkibi, geologik shakllanish xususiyatlari, zaxira hajmi va ishlab chiqarish tendensiyalari ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqot paleogeologik jarayonlar, xususan Carboniferous va Perm bosqichlarining ko‘mir hosil bo‘lishidagi roli hamda mintaqaning tektonik–cho‘kindi evolyutsiyasiga asoslanadi. Mamlakatlar kesimida yirik havzalar va konlar, tasdiqlangan zaxiralar hamda ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari statistik manbalar asosida solishtirildi. Olingan natijalar Markaziy Osiyoda ko‘mir resurslaridan

foydalanishning uzoq muddatli istiqbollari, energiya xavfsizligi va ekologik barqarorlik o‘rtasida muvozanatni ta’minlash zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so’zlar: Ko‘mir resurslari; geologik yotqiziqlar; energetika xavfsizligi; ko‘mir havzalari; ishlab chiqarish dinamikasi; paleogeologiya; Carboniferous; Perm; zaxira hajmi.

Kirish. Markaziy Osiyo mamlakatlarida ko‘mir resurslari energetika tizimining asosiy tayanchi bo‘lib, ularning hududiy tarkibi, zaxiralari va qazib olish ko‘rsatkichlari iqtisodiy barqarorlik hamda energetik xavfsizlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Mintaqaning tabiiy-geologik tuzilishi – xususan, platforma hududlari, botiqlar, cho‘kindi havzalar va paleozoy paleotektonik jarayonlari – ko‘mir konlarining shakllanishi va tarqalishida asosiy omil bo‘lib xizmat qilgan. Perm davriga mansub boy cho‘kindi qatlamlar mintaqada yirik ko‘mir havzalari shakllanishiga imkon yaratgan.

Global miqyosda qayta tiklanuvchi energetika salmog‘i ortib borayotgan bo‘lsa-da, ko‘mir hali ham ko‘plab davlatlarda, jumladan Markaziy Osiyo mamlakatlarida elektr energiyasi ishlab chiqarishda asosiy manba vazifasini bajarib kelmoqda. Xalqaro Energetika Agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, mintaqada yillik ko‘mir qazib olish hajmining oshishi sanoatlashuv sur’atlari, shaharlar kengayishi va energiya iste’moli o‘sishiga bevosita bog‘liqdir. Qozog‘istonning yirik kon-geologik salohiyati, O‘zbekistonning qo‘ng‘ir va toshko‘mir resurslari, Qirg‘iziston va Tojikistonning tog‘li hududlarida joylashgan istiqbolli ko‘mir havzalari Markaziy Osiyoning energetik makonini shakllantiruvchi asosiy tarkibiy qismlardir.

Shu bilan birga, ko‘mirga asoslangan energetikaning ekologik talablarga javob bermasligi, havoning ifloslanishi, issiqxona gazlari chiqindilarining ortishi va global dekarbonizatsiya jarayonining tezlashuvi mazkur sohani modernizatsiya qilish zarurligini kuchaytirmoqda. Shunday sharoitda Markaziy Osiyo mamlakatlari ko‘mir sektorini transformatsiya qilish, zamonaviy qazib olish texnologiyalarini joriy etish,

qayta ishlash jarayonlarini ekologik talablarga moslashtirish va energiya balansida diversifikatsiyani ta’minlashga intilmoqda.

Mazkur tadqiqot mintaqaning ko‘mir resurslarini geologik-hududiy jihatdan tahlil qilish, asosiy havzalar va konlarning xususiyatlarini solishtirish, qazib olish dinamikasini baholash hamda ko‘mir resurslarining energetik rivojlanishdagi o‘rnini aniqlashni maqsad qiladi. Tadqiqot natijalari Markaziy Osiyo energetika makonining hozirgi holatini ilmiy asosda yoritish, ko‘mir resurslaridan samarali foydalanish bo‘yicha istiqbolli yo‘nalishlarni belgilash va mintaqa energetik strategiyasini shakllantirishga yordam beradi.

Global miqyosda energiya tizimi qayta tiklanuvchi manbalarga o‘tishni tezlashtirayotgan bo‘lsa-da, ko‘mir iste’moli hali ham rekord darajalarga yaqin darajada saqlanib qolmoqda. Xalqaro Energetika Agentligi (IEA) ma’lumotlariga ko‘ra, 2020-yillarning o‘rtalarida jahon ko‘mir iste’moli yiliga taxminan 8,7 mlrd tonnaga yetib, o‘n yillik yakuniga qadar deyarli yuqori darajada qolishi kutilmoqda [1]. Markaziy Osiyo mamlakatlarida (Qozog‘iston, O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston) ko‘mir energetika xavfsizligining asosiy tayanchi bo‘lib qolmoqda. Global Energy Monitor hisobotiga ko‘ra, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, O‘zbekiston va Tojikistonda ko‘mirga asoslangan elektr stansiyalarining yangi quvvatlari bo‘yicha rejalar 2013 yildagi 3,9 GVdan 2023 yilda 8,1 GVgacha oshgan, ya’ni mintaqada ko‘mirga tayanish so‘nggi o‘n yillikda deyarli ikki baravar kuchaygan [2]. Bu jarayon bir tomondan mahalliy yoqilg‘i bazasiga tayanib, importdan qisman mustaqillikni ta’minlaydi, ikkinchi tomondan esa atmosferaga CO_2, SO_2 va chang tashlanmalarini keskin ko‘paytirib, ekologik barqarorlikka jiddiy tahdid tug‘diradi.

Mintaqadagi yetakchi ekspertlar Markaziy Osiyoda ko‘mirga asoslangan energiya sektori ekologik muammolarni chuqurlashtirayotganini, ayniqsa Qozog‘iston va O‘zbekistonda havo ifloslanishining yuqori darajasi bilan bog‘liq ekanini ta’kidlaydi [3]. Shu bois mazkur tadqiqot iqtisodiy-energetik barqarorlik,

geosiyosiy xavfsizlik va ekologik xavflar kesishgan nuqtada joylashganligi uchun dolzarb hisoblanadi.

Mazkur maqolaning **maqsadi** Markaziy Osiyo mintaqasida ko‘mir resurslarining hududiy tarkibi, zaxira hajmi va ishlab chiqarish tendensiyalarini ilmiy tahlil qilish. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi **vazifalar** saralab olingan.

– mintaqadagi ko‘mir havzalarini hududlar va konlar kesimida tahlil qilish;
– ko‘mir zaxiralaridan samarali foydalanish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ushbu yo‘nalish bo‘yicha chet ellik tadqiqotchilardan Roman Vakulchuk, Indra Overland va boshqalar o‘zlarining *“Fossil Fuels in Central Asia: Trends and Energy Transition Risks”* nomli ishida Markaziy Osiyo davlatlarining ko‘mir, gaz va neftga tayanadigan energetik modelini chuqur tahlil qiladi [4; 1-b.]. Mahalliy tadqiqotchilardan S.A. Voronin, D.X. Musabekov, S.Yu. Arzumanyan va F.M. Azimova esa *“Развитие угольной отрасли Узбекистана в условиях современных вызовов”* nomli ilmiy ishlarida O‘zbekiston ko‘mir sanoatining hozirgi holati, ishlab chiqarish tendensiyalari, konlarning texnik imkoniyatlari va modernizatsiya ehtiyojlarini batafsil yoritadi [5]. Umuman olganda, mavjud ilmiy manbalar Markaziy Osiyoda, jumladan O‘zbekistonda ko‘mir sanoati energetik o‘tish sharoitida muhim transformatsiya jarayonini boshdan kechirayotganini ko‘rsatadi. Tadqiqotlar ushbu sohada texnik modernizatsiya, resurslardan samarali foydalanish va “yashil energetika” talablariga moslashuvning dolzarbligini alohida ta’kidlaydi.

Mazkur tadqiqotda Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi ko‘mir resurslarining hududiy tarkibi va ishlab chiqarish dinamikasini aniqlashda hududiylik, taqqoslash va tizimli yondashuv tamoyillariga tayangan ilmiy metodlar qo‘llanildi. Shuningdek, chet ellik va mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy qarashlarini solishtiruv va taqqoslama tahlil orqali ko‘mir sanoatining energetik o‘tish sharoitidagi o‘zgarishlari o‘rganildi.

Natijalar va muhokama. Ko‘mir – kaustobiolitik (grekcha - «kausto» - yonuvchi, «bio» - hayot, «lito» - tosh) organik tog‘ jinslariga mansub yoqilg’i turidir [6; 279- b.]. Binobarin, u o‘simlik qoldiqlarining geologik muhitda million yillik fizik-kimyoviy o‘zgarishi natijasida shakllangan biogen organik resurs ekanligi bilan belgilanadi. Xususan, Yer sharidagi ko‘mir qatlamlarining asosiy qismi Paleozoy erasining Toshko‘mir (Carboniferous) davrida shakllangan [7]. Aynan ushbu davrda sayyoramizning ko‘plab hududlari nam, botqoqli, qalin o‘simlik qoplamiga ega bo‘lgan, biomassaning tez to‘planishi va botqoqlarda kislorod tanqisligi organik moddaning to‘liq parchalanmay qolishiga olib kelgan. Shu sababli Carboniferous davrini geologlar ko‘pincha “ko‘mir hosil bo‘lgan davr” sifatida ta’riflaydi. Shuningdek, ko‘mir qatlamlarining bir qismi Perm davrida ham shakllangan.

Markaziy Osiyoda ham ko‘mir havzalarining shakllanishi aynan shu global jarayonlar bilan mos keladi. Hududning tektonik cho‘kindi evolyutsiyasining tarixini o‘rgangan Brunet va hammualliflar Markaziy Osiyoning katta qismi Paleozoy davrida yirik platforma va botiqlar tizimi ko‘rinishida shakllanganini ta’kidlaydi [8]. Mazkur paleotektonik sharoit mintaqadagi ko‘mir qatlamlarining shakllanishini izohlash uchun geologik asos yaratadi. Chunki ushbu davrda hududda keng botqoqli landshaftlar mavjud bo‘lgan bo‘lib, ularda to‘plangan o‘simlik biomassasi kontinental havzalarda asta-sekin ko‘milgan va geologik jarayonlar ta’sirida kaustobiolitik organik qatlamlarga aylangan.

Markaziy Osiyo tog‘lari va tekisliklarining geologik tuzilishi ancha murakkab bo‘lib, bu yerlarda ko‘plab rudali va rudasiz foydali qazilmalar bor. Jumladan, ko‘mirning asosiy havzalari Qozog‘iston, O‘zbekiston, Qirg‘iziston va qisman Tojikiston Respublikalari hududlarida topilgan.

Ayniqsa, Qozog‘istondagi Qarag‘anda, Ekibastuz, To‘rg‘ay ko‘mir havzalari eng yirikligi bilan ajralib turadi. Qolaversa, O‘zbekiston hududidagi Angren ko‘mir koni, Qirg‘izistondagi Toshko‘mir, Ko‘k yong‘oq konlari ham muhim ahamiyatga egadir [9; 261- b.]. Jumladan, Qozog‘istonda 30 ta ko‘mir qazib olish konlari mavjud bo’lib, uning 2/3 qismi – qo‘ng‘ir ko‘mir, 1/3 qismi esa toshko‘mirdir. Zaxirasi

taxminan, 29,4 mlrd tonna ko‘mir mavjud [10; 4- b.]. Bu dunyo ko’mir zaxirasining taxminan 3,4% ni tashkil qiladi. Qozog‘istonda ko‘mir qazib olish 2023-yil dekabrida 116,352 tonnani tashkil etdi [11]. Shu saylda davom etsa mamlakatda ko’mir taxminan, 252 yilga yetishi mumkin.

O‘zbekiston hududida ko‘mirning to‘rtta koni (Ohangaron, Sharg‘un, Boysun, Ko‘hitang) ma’lum. Bulardan Ohangaron qo‘ng‘ir ko‘mir koni Toshkent viloyatidagi Ohangaron daryo vodiysining o‘rta oqimida joylashgan bo‘lib, ochiq usulda qazib olinmoqda. Bu ko‘mir konining zaxirasi Respublikada topilgan barcha ko‘mir zaxirasining 96,5 foizini tashkil qiladi. O‘zbekistondagi ikkinchi kon Surxondaryo viloyatining tog‘li qismidagi yuqori sifatli Sharg‘un toshko‘mir konidir. Bundan tashqari hududda Boysun va Ko‘hitang ko‘mir konlari ham ochilgan bo‘lib, ular ham yura davri yotqiziqlari orasidadir [12; 28- b.]. Zaxirasi esa 1375 million tonna [6; 278- b.]. Yillik qazib olish 2024-yil bo’yicha 8464,4 ming tonnaga teng [13]. Mamlakatda ko’mir prognozi esa taxminan, 162 yilga yetishi mumkin.

Qirg‘izistonning ko‘mir resurslari tarkibi, xuddi O‘zbekiston kabi, geologik yotqiziqlarning turli davrlari bilan bog‘liq bo‘lib, mamlakat energetikasida muhim o‘rin tutadi. Asosiy havza – Kara-Keche, Besh-Burxon, Jergalon, Sulukta va Toshko'mir hisoblanadi, tasdiqlangan zaxiralar esa 1,3 mlrd tonnaga teng [14]. Hukumat ko'mir qazib olishni 2010 yildagi 450 ming tonnadan 2025 yilga kelib 3 million tonnagacha oshirishni rejalashtirmoqda. Shu tarzda qazib olsa, ko’mir taxminan, 433 yilga yetishi mumkin.

Tojikistonning ko‘mir resurslari mamlakatning murakkab tog‘li-geologik tuzilishi bilan bog‘liq bo‘lib, yotqiziqlar asosan Tajik (Gissar–Darvaz) va janubiy Farg’ona ko‘mir havzalarida jamlangan. Bu hududlar mamlakat miqyosidagi eng yirik va yuqori salohiyatli ko‘mir havzalari hisoblanadi. Bundan tashqari, ko‘mir yotqiziqlari Zarafshon-Hisor, Janubiy-Hissor va Pomir-Darvaz ham aniqlangan. Ko‘mirning umumiy zaxirasi 4,3 mlrd tonnadan ortiq, sanoatga tayyor tasdiqlangan zaxiralar esa 320,3 mln tonna deb baholanadi. Yillik qazib olish ko‘rsatkichlariga

ko‘ra, sovet davrida (1970-yil) mamlakatda 0,9 mln tonna ko‘mir qazib olingan [15]. 2018-yilda yillik qazib olish hajmi esa 1,9 mln tonnaga yetgan [16].

Xulosa. Markaziy Osiyoda ko‘mir resurslari mintaqa energetika tizimining muhim tarkibiy qismi bo‘lib qolayotganini ko‘rsatdi. Ko‘mir qatlamlarining shakllanishi Paleozoyning Carboniferous va Perm bosqichlariga borib taqaladi, bu esa mintaqaning paleotektonik rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq. Qozog‘iston yirik havzalari bilan yetakchi o‘rin egallasa, O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Tojikiston nisbatan kichik, ammo strategik ahamiyatga ega konlarga tayanadi. Statistik ma’lumotlar qazib olish hajmining mamlakatlar bo‘yicha keskin farqlanishini, texnik-modernizatsiya jarayonlarining esa ko‘mir sanoati barqarorligida hal qiluvchi omil ekanini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ko‘mirga asoslangan energetika modeli ekologik bosim va iqlimiy xavflar fonida uzoq muddat davomida barqaror bo‘laolmasligi anglatadi. Shu boisdan Markaziy Osiyo mintaqasining iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida energetika tizimining salohiyatini barqarorlashtirish va rivojlantirish uchun quyidagi fikr-mulohazalar bildiriladi:

- ✓ Ko‘mir konlarida texnologik modernizatsiyani jadallashtirish;
- ✓ Ko‘mir sanoatini “yashil energetika” talablari bilan uyg‘unlashtirish.

Yuqoridagi chora-tadbirlar mintaqaning yoqilg’i-energetika tizimini yanada barqaror rivojlanishiga yordam beradi.

Adabiyotlar

1. Ko'mirdan foydalanish yangi cho'qqilarga ko'tariladi va yillar davomida rekord darajada qoladi: [Elektron resurs]. – 18.12.2024. URL: https://www.theguardian.com/business/2024/dec/18/coal-use-to-reach-new-peak-and-remain-at-near-record-levels-for-years

2. Markaziy Osiyo davlatlarida ko'mirga qaramlik muammosi bor – hisobot: [Elektron resurs]. – 12.04.2024. URL: https://eurasianet.org/central-asian-states-have-a-coal-dependency-problem-report

3. Markaziy Osiyo davlatlarining energiya xavfsizligi sohasidagi hamkorligi: muammolar va yechimlar: [Elektron resurs]. – 12.03.2025. URL:

https://isrs.uz/en/maqolalar/sotrudnicestvo-stran-centralnoj-azii-v-sfere-obespecenia-energeticeskoj-bezopasnosti-problemy-i-puti-ih-resenia

4. Roman Vakulchuk, Aidai Isataeva, Galina Kolodzinskaya, Indra Overland, Rahat Sabirbekov. Fossil Fuels in Central Asia: Trends and Energy Transition Risks. Central Asia Data Gathering and Analysis Team (CADGAT). Central Asia Regional Data Review, 28 (2022): 1–6.

5. Воронин С.А., Мусабеков Д.Х., Арзуманян С.Ю., Дергачева Т.А., Азимова Ф.М. Развитие угольной отрасли Узбекистана в условиях современных вызовов. Уголь (Ugol), № 02 (1177), 2024: 89–92. ISSN 0041-5790; ISSN 2412-8333. DOI: http://dx.doi.org/10.18796/0041-5790-2024-2-89-92

6. Jumaxanov Sh.Z., Abdullayev A.A. O‘zbekiston yoqilg‘i-energetika majmuasining tarmoq va hududiy tarkibi - “FarDU. Ilmiy xabarlar” jurnali. – 02 soni, 2025. – 359-365 b.

7. U.S. Geological Survey. (2019). Paleozoic Era – Carboniferous Period: Coal formation overview**.** USGS Official Educational Resources. URL: https://www.usgs.gov

8. Mari-Fransuaza Brunet, Edvard R. Sobel, Tom MakKen (2017). Geological Evolution of Central Asian Basins and the Western Tien Shan Range. Geological Society, London, Special Publications. URL: https://www.lyellcollection.org/doi/full/10.1144/sp427.17

9. Namozov J.A., Xamroyeva F.A., Juraxujayev D.D. Jahon iqtisodiy geografiyasi. O‘quv qo‘llanma.– Samarqand: “Bilig-ilmiy faoliyat” nashriyoti, 2024, 464 bet.

10. Beisengazin K. Coal Sector of Kazakhstan: Challenges and Opportunities for Decarbonizing the Economy – Project Paper No. 26. Integrated Policy Strategies and Regional Policy Coordination for Resilient, Green and Transformative Development, Supporting Selected Asian BRI Partner Countries to Achieve 2030 Sustainable Development Agenda. – April 2025. – 1–28 b.

11. Qozog'iston ko'mir qazib olish. URL: https://www.ceicdata.com/en/indicator/kazakhstan/coal-production

12. Samiyev U.A. O‘zbekiston tabiiy geografiyasi. Darslik: - Andijon “Omadbek print number one” MChJ nashriyoti – 2024 yil, 230 b.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti. URL: www.stat.uz
14. Qirg'iziston energiya profili. energiya xavfsizligi. URL: https://www.iea.org/reports/kyrgyzstan-energy-profile/energy-security
15. Review of the coal sector in republic of Tajikistan. URL: https://bankwatch.org/wp-content/uploads/2017/12/Tajikistan-coal.pdf
16. Tojikistonning ko’mir dilemmasi. URL: https://cabar.asia/en/tajikistan-s-coal-dilemma

O‘ZBEKISTON ENERGETIKASIDA QUYOSH VA SHAMOL ENERGIYA RESURSLARI

Abdullayev A.A.

Namangan davlat universiteti Geografiya yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalari — quyosh va shamol resurslarining tabiiy-geografik salohiyati hamda ularning elektr energiyasi ishlab chiqarishdagi ulushi tahlil qilingan. Global iqlim o‘zgarishi, CO_2 emissiyalarining ortishi va energetik xavfsizlik talablari sharoitida mamlakatning qayta tiklanuvchi energetikaga o‘tish jarayonlari rasmiy statistika va xalqaro manbalar asosida o‘rganildi. Tadqiqot natijalari quyosh va shamol energetikasining yillik ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari, investitsion loyihalar va 2030-yilgacha belgilangan maqsadlarning energetik barqarorlik va CO_2 emissiyalarini kamaytirishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

ko’proq metodlar bilan ishlash lozim. Shu jumladan rivojlanayotgan davlatlarda birinchi navbatda pedagogik texnalogiyalarga ta’lim sohasidagi siyosatning bosh vazifasi sifatida qarab kelingan.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish geografiya ta’limini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishga yordam beradi. Ushbu texnologiyalarni o‘quv jarayoniga joriy etish orqali o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning geografik kompetensiyalarini rivojlantirish va kelajakda raqobatbardosh mutaxassislar bo‘lib yetishishlariga zamin yaratiladi.

Shulardan kelib chiqib xulosa aytganda geografiya ta’limida zamonaviy pedagogik texnalogiyalarni qo’llash o’quv jarayonini samarali, mazmunli va ko’rgazmali qiladi. Ammo bu texnalogiyalar to’liq joriy etilmasligi, o’qituvchilarning yetarli tayyorgarlikka ega emasligi, texnik vositalar tanqisliqi muammo sifatida saqlanib qolinmoqda. Ushbu muammolarni hal qilish AKTning imkoniyatlaridan keng foydalanish, o’qituvchilarni muntazam malaka oshirishga jalb qilish, amaliy mashg’ulotlarni kengaytirish va loyihaviy o’qitishni kuchaytirish zarur.

Natijada geografiya ta’limini zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashib o’quvchilarda ilmiy, amaliy va tashkiliy fikirlash ko’nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. X.Vaxobov, N.R.Alimkulov, N.B.Sultonova “Geografiya o’qitish metodikasi”. Toshkent – 2021.

2. H.T.Omonov, N.X.Xo’jayev, S.A.Madiyarova, E.U.Eshchanov “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahurat”. Toshkent – 2009.

3. R.A.MMavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M.K.Shirinov, S.Hafizov “Umumiy pegagogika” Toshkent – 2018.

O‘ZBEKISTON VA AQSH IQTISODIY HAMKORLIGINING YANGI IMKONIYATLARI

[1]Otenov N.T., [2]Zaripboyeva X.Q.

[1]Ajiniyoz nomidagi NDPI katta o‘qituvchisi

[2]Ajiniyoz nomidagi NDPI 2-kurs talabasi

Kirish. 2016-yildan boshlab mamlakatimizda prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida katta o‘zgarishlar boshlandi. O‘zbekistonning tashqi siyosati sezilarli o‘zgarishlarga duch keldi, bu ochiqlik va jahon sahnasida yangi sheriklarni faol izlash bilan ajralib turdi. Amerika Qo‘shma Shtatlari bu jarayonda asosiy strategik sheriklardan biriga aylandi. 2018-yilda strategik sheriklik darajasiga ko‘tarilgan ikki tomonlama munosabatlar 2025-yilda qator sammitlar va qator ilg‘or iqtisodiy kelishuvlar imzolanishi tufayli yangi sur’at oldi. Ushbu maqolaning maqsadi har ikki tomon uchun ushbu bitimlarning afzalliklarini har tomonlama tahlil qilishdir.

Asosiy qism. 2025 yil 23-24 sentyabr kunlari prezident Sh.Mirziyoyev Nyu-York shahrida BMT bosh assambleyasining 80-sessiyasida ishtirok etib, minbardan nutq so‘zladi. 23 sentyabr kuni AQSH prezidenti Donald Tramp bilan uchrashuv o‘tkazildi. Ushbu uchrashuvda O‘zbekiston rahbari Amerika bilan iqtisodiy hamkorlik istiqbollari haqida so‘z yuritgan edi.

2025 yil 4 noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidenti Donald Trampning taklifiga binoan amaliy tashrif bilan Vashington shahriga keldi. Tashrif 7-noyabrga qadar davom etdi. Oq uydagi ikki davlat prezidentlarining uchrashuvidan keyin ikki mamlakat o‘rtasida manfaatli hamkorlik haqidagi bir necha shartnomalar tuzilganligi haqida aytib o‘tish mumkin. Shuni ham aytib o‘tish joizki, O‘zbekiston prezidenti Sh.Mirziyoyev AQSH prezidenti D.Trampni o‘zi xohlagan vaqtda O‘zbekistonga tashrif bilan kelishga taklif qildi.

Savdo-iqtisodiy hamkorlik va investitsiyalar dinamikasi bo‘yicha. So‘nggi yillarda iqtisodiy ko‘rsatkichlarning barqaror o‘sishi kuzatilmoqda. Mamlakatlar

o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi to‘rt barobar oshdi va 1 milliard AQSH dollariga yaqinlashdi. O‘zbekistondan AQShga eksport hajmi qariyb 10 barobarga oshdi, bu O‘zbekiston eksportining diversifikatsiyasi va uning yangi bozorlarga chiqishi haqida dalolat beradi. Investitsiya komponenti ayniqsa muhimdir. O‘zbekistonda Amerika kapitali bo‘lgan 300 dan ortiq kompaniya muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. So‘nggi kelishuvlar, jumladan 2025-yil noyabr oyida e’lon qilingan "aql bovar qilmaydigan savdo va iqtisodiy kelishuv" kelgusi yillarda bir necha milliard AQSH dollarigacha bo‘lgan investitsiyalar va xaridlarni o‘z ichiga oladi.

Asosiy sohalar va o‘zaro manfaatlar Iqtisodiy kelishuvlar ko‘plab sohalarni qamrab oladi:

Strategik manbalar: noyob tuproq metallarini qazib olish va ishlab chiqarish bo‘yicha hamkorlik shartnomalari imzolandi. Bu O‘zbekistonga ilg‘or texnologiyalar va bozorlardan foydalanish imkonini beradi, AQSH esa muhim xomashyo yetkazib berishni diversifikatsiya qiladi.

Yuqori texnologiyalar va sanoat: “Uzairways” uchun Boeing samolyotlarini yetkazib berish bo‘yicha shartnomalar va sun’iy intellekt (Palo Alto Networks) sohasidagi hamkorlik O‘zbekistonning texnologik modernizatsiyasiga yordam beradi.

Qishloq xo‘jaligi va suv texnologiyasi: Valmont Industries kabi kompaniyalar bilan tuzilgan shartnomalar Markaziy Osiyo mintaqasi uchun muhim bo‘lgan suvni tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan.

Energetika va infratuzilma: AQSH kompaniyalari infratuzilmani modernizatsiya qilish loyihalarida, shu jumladan nasos stansiyalarida (Flowserve) ishtirok etib, O‘zbekiston iqtisodiyotining energiya samaradorligi va barqarorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

AQSH uchun foyda yuqori texnologiyali mahsulotlar bozorlarini kengaytirish, strategik resurslardan foydalanish va Markaziy Osiyoning asosiy mintaqasida o‘z ta’sirini kuchaytirishdan iborat. O‘zbekiston uchun bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar oqimi, ish o‘rinlari yaratish, texnologiyalar transferi va global ishlab chiqarish zanjirlariga integratsiyani anglatadi.

Istiqbollar va qiyinchiliklar. Iqtisodiy aloqalarni chuqurlashtirish nafaqat ikki tomonlama o‘sishga, balki mintaqaviy barqarorlikka ham ko‘maklashadi. Qo‘shnilar bilan munosabatlarni faol rivojlantirayotgan O‘zbekiston Markaziy Osiyoda farovonlik va xavfsizlikni ta’minlashda AQShning muhim hamkoriga aylanmoqda. Asosiy qiyinchiliklar investitsiya muhitini yaxshilash, byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish va investorlarni huquqiy himoya qilishni ta’minlash masalalari bo‘lib qolmoqda. Biroq, har ikki tomonning hozirgi siyosiy irodasi, rahbarlarning so‘nggi uchrashuvlari bilan qo‘llab-quvvatlanib, ushbu to‘siqlarni yengib o‘tish uchun qat’iy niyatni namoyon etadi.

Xulosa. O‘zbekiston va AQSH o‘rtasidagi iqtisodiy kelishuvlar strategik sheriklikning yangi davrini boshlab bermoqda. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, imtiyozlar bir-birini to‘ldiradi: Amerika investitsiyalari va texnologiyalari O‘zbekistonning modernizatsiyasini rag‘batlantiradi, O‘zbekiston esa bozor imkoniyatlari va strategik resurslarni taqdim etadi. Imzolangan shartnomalarni, ayniqsa 2025-yil noyabr oyida tuzilgan shartnomalarni amalga oshirish barqaror iqtisodiy o‘sish va uzoq muddatli istiqbolda ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlash uchun kuchli drayver bo‘lishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Официальный веб-сайт Президента Республики Узбекистан www.president.uz
2. KUN.UZ. http://kun.uz/ интернет манбалари

QARAQALPAQSTANDA TURIZMNIŃ EKONOMIKALÍQ HÁM INVESTICION POTENCIALÍ

[1]Otenov N.T., [2]Shomurodova M.B.

[1]Ájiniyaz atındaǵı NMPI Geografiya kafedrası úlken oqıtıwshı

[2]Ájiniyaz atındaǵı NMPI Geografiya tálim baǵdarı 2-kurs studenti

Házirgi Qaraqalpaqstan aymaǵı tábiyǵıy, tariyxıy, arxitekturalıq hám arxeologiyalıq esteliklerge bay. Respublika aymaǵında kóplegen tariyxıy-mádeniy

estelikler saqlanıp qalǵan. Mádeniy miyras obektlerin qorǵaw hám olardan paydalanıw regionallıq mámleketlik inspekciyasınıń maǵlıwmatı boyınsha búgingi kúni Qaraqalpaqstan Respublikasında arxeologiyalıq estelikler 131, arxitekturalıq monumental estelikler 25, monumental estelikler 89, dıqqatqa ılayıq orınlar 40, jámi 285 mádeniy miyras obektleri esapqa alınǵan [1]. Usınıń ózi Qaraqalpaqstannıń turizm tarawın rawajlandırıw boyınsha úlken potencialǵa iye ekenligin kórsetedi. Ásirese arxeologiyalıq estelikler júdá kóp.

Ústirt platosında áyyemgi dáwirge tiyisli Dáwkesken qalasınıń qaldıqları, Belewli kárwansarayı, Allan qalası hám de basqada kóplegen tariyxıy orınlar saqlanıp qalǵan. Ań awlaw ushın jeyranlardı tutıw ushın paydalanılatuǵın oq formasındaǵı qurılmalar júdá ataqlı boldı. Búgingi kúnde turizmdi rawajlandırıw ushın Ámiwdárya, Moynaq, Tórtkúl, Xojeli, Ellikqala, Qaraózek, Taxtakópir, Beruniy, Qońırat rayonları hám Nókis qalası úlken potencialǵa iye. Qoy-Kırılǵanqala diniy esteligin qazıw payıtında áyemgi jazıwlar tabılǵan (b.e.sh IV-III ásrler, eramızdıń IV asiri)., Topıraqqala sarayı (I–VI ásrler), YUNESKOnıń dúnya miyrası dizimine kiritilgen. Turistlerdi tań qaldıratuǵın bul tariyxıy estelikler, ájayıp imaratlar, shólde qalǵan saraylar, ondaǵı freskalar h.t.b bul civilizaciyalardıń qanshalıq dárejede rawajlanǵanın kórsetedi. Sonıń menen qatar, Elikqala rayonında jaylasqan Ayazkala 2 (VII-VIII asir), Ulken Qırqqızqala (b.e.sh IV-III asirler, eramızdıń. III-IV, VI - VIII asirleri), Búrgitqala (VI-VIII asirler), Ámudarya rayonındaǵı Shılpıq (b.e.sh I ásir – eramızdıń I ásiri) diniy esteligi, Mizdakxan kompleksi (IX-XII asrler) ayrıqsha orınǵa iye.

Nókis qalasındaǵı I.V.Savickiy atındaǵı Qaraqalpaq mámleketlik iskusstva muzeyi aymaqtı dúnya júzine tanıttı. Onıń fondlarında tórt mıń jıllıq tariyxtı óz ishine alǵan 90 mıńnan artıq eksponatlar bar bolıp, dúnya júzine tanıqlı bolǵan 22-xudojniktiń kartinaları kórsetilgen. Muzey eksponatları Germaniya, Franciya, Italiya, AQSH, Rossiyada kórgizbege qoyılǵan. 1966-jıl Qaraqalpaq mámleketlik úlketanıw muzeyi tiykarında mámleketlik kórkem-óner muzeyi shólkemlestiriwi hám onıń birinshi direktorı I.V.Savickiy ózi professional xudojnik bolıwına qaramastan

arxeologiya ilimi menen qattı qızıqqan insan edi. Sebebi ol XX ásirdiń eliwinshi jıllarınıń basında biziń úlkemizge keliwinde usı arxeologiya sebepshi bolǵan, anıǵıraq aytqanda professor S.P.Tolstov basshılıǵında 1937-jıldan berli Qubla Aralboyında islep atırǵan Xorezm arxeologiyalıq ekpediciyasınıń xudojnigi sıpatında kelgen. I.V.Savickiy Ámiwdáryanıń tómengi jaǵalawları, Aral teńiziniń qublasındaǵı áyyemgi hám orta ásirlerdegi esteliklerdi birinshi kórgen kúninen-aq bul úlkeniń tariyxına, tábiyatına ashıq bolıp qalǵan hám óziniń qalǵan ómirin biziń jerimiz benen birotala baylanıstırǵan. I.V.Savickiy qolı bosaǵan waqıtta arxeologiyalıq esteliklerge barıwǵa, olardıń kórinislerin qaǵazǵa túsiriwge, múmkinshiligi bolsa arxeologiyalıq qazıw jumıslarına qatnasıwǵa háreket etken. Ol toplaǵan kópshilik estelikler kartinaları búgingi kúni Qaraqalpaqstannıń hám baska qalalardıń muzey zalların bezep turıptı.

I.V.Savickiydiń islegen miyneti Ózbekistan húkimeti tárepinen joqarı bahalanıp 2002-jılda birinshi prezident I.A.Karimov tárepinen “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni menen qaytıs bolǵanınan keyin sıylıqlandı.

Savickiy barqulla muzeyde tek ǵana jergilikli xalıq emes, bálkim pútkil dúnya iskusstvonı súyiwshiler kelip kóriwin qáler edi. Búgingi kúni onıń usı arzıw ármanı ámelge astı.

Mámleketimiz ǵárezsizlikke erisiwi menen muzeyge dúnyanıń túrli jerlerinen Evropa, Amerika, Aziya, ǴMDA ellerinen, AQSh, Avstraliya hám basqada jerlerden turistler aǵımı kelip kórmekte [2:1].

Ekologiyalıq turizmdi rawajlandırıw perspektivaları úlken potencialǵa iye. Ústirt platosında samal, quyash hám suwdan payda bolǵan kóplegen tábiyiy obektler, áyemgi tóbelikler, sırlı úńgirler xám basqalar bar. Sayaxatshılar Aral teńizi túbindegi seksewil toǵayları menen tanısıwı, Sudoche kólinde aq quslar, qızıl tumsıqlı flamingolar hám basqada siyrek ushırasatuǵın quslardı kóriwine boladı. Ekoturizmniń dıqqatqa ılayıq obekti tómengi Ámwdarbya biosfera rezervatı bolıp, ol jerde tábiyiy shárayatında joǵalıp baratırǵan haywanatlardıń túrleri, solardıń ishinde ayrıqsha orındı iyelegen Buxara suwını jasaydı. Rezervatqa kelgen jergilikli hám shet elli

turistler tiykarınan, rezervat administrativlik imaratındağı Rezervat tariyxı muzeyin, tábiyiy halda júrgen hám de volerdegi buxar suwınların, Ámiwdárya dáryasınıń landshaftın, toǵay flora hám faunasın, jáne Rezervat aymaǵında jaylasqan tariyxıy-arxeologiyalıq estelik Djampıq qala (b.e.sh IV ásir – b.e XIV ásiri)nı tamashalawǵa keledi [2:2].

Elliqala rayonında Aqshakól rekreaciyalıq ornı házirgi waqıtta turistlerdiń eń kóp baratuǵın jeri bolıp sanaladı. Bul kól boyında házirgi waqıtta «Bostan turizm» kompleksi islep turıptı. Kompleks jazǵı sayaxatshılıq máwsimi ushın arnalǵan bolıp, sayaxatshılar ushın barlıq sharayatlar jaratılǵan. Qaraqalpaqtıń qara úyleri boy tiklep turıptı [2:3].

Ulıwma juwmaqlap aytqanda Qaraqalpakstan Respublikası aymaǵı turistlik imkániyatı ekonomikalıq hám investicion potencialınan tuwrı paydalanıw házirgi dáwirdiń baslı wazıypalarınıń biri bolıp esaplanadı.

Ádebiyatlar

1. Mádeniy miyras obektlerin qorǵaw hám olardan paydalanıw regionallıq mámleketlik inspekciyasınıń maǵlıwmatı.

2. N.Otenov. Sh.Baxtiyarova. Z.Bazarbaeva Turizmniń rawajlanıwında I.V.Savickiy atındağı kórkem óner muzeyiniń áhmiyeti. «Geografiya - keleshekke kóz-qaras» atamasındağı Respublikalıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya materialları Nókis 2024 j.

XORAZM VILOYATI YENGIL TARMOQ TARKIBI

[1]Ro‘zmetov D.R., [2]Komilova F.M.

[1]Xorazm Ma’mun akademiyasi ilmiy kotibi, geografiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

[2]Urganch davlat universiteti, tayanch doktoranti

Viloyat sanoatida yengil, oziq – ovqat sanoati ahamiyati XXI asr 2-o‘n yilligi boshlariga nisbatan ancha pasaygan bo‘lsa-da ikkala sanoat majmui viloyat sanoatining 40 foizdan oshiqini bermoqda.

Yengil sanoat azaldan Xorazm xalqining ko‘p asrlik tajribasiga tayangan holda rivojlanib kelgan. Viloyat, gilam mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha respublikada yetakchilik qilgan.

2024 yilda viloyat sanoatining 21,0 foizi yengil sanoatida ishlab chiqarilgan. Viloyat yengil sanoatida paxta tozalash (10 ta korxona), to‘qimachilik va trikotaj, tikuvchilik, poyafzal ishlab chiqarish o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi 2019 yil 18 martdagi 230-son qarori asosida butun respublikada bo‘lgani kabi viloyat paxta tozlash va ip gazlama sanoati korxonalari asosida klasterlar barpo etila boshlandi. Klasterlar orasida ekin maydonlari bo‘yicha Gurlan, Xonqa va Qo‘shko‘pir klasterlari ajralib turadi (1-jadval).

1-jadval

Xorazm viloyati paxta-to‘qimachilik klasterlari


	Tumanlar	**Klasterlar**	**biriktirilgan ekin maydoni, ga**
1.	Bog‘ot	«Koboteks» MChJ	4275
		«Great Cotton Export» MChJ	3000
2.	Gurlan	«Gurlan baraka teks» MChJ	11400
3.	Qo‘shko‘pir	«WBM Qo‘shko‘pir klaster» MChJ	9600
4.	Urganch	«Urganch Klaster» MChJ	8800
5.	Hazorasp	«Hazorasp tekstil» MChJ	5500
6.	Xonqa	«Xorazm tex» MChJ	10900
7.	Xiva	«Xiva klaster» MChJ	5000
8.	Shovot	«Textile Finance Khorezm» MChJ	8100
9.	Yangiariq	«Yangiariq TEX» MChJ	4700
10.	Yangibozor	«Yangibozor Tekstil» MChJ	8800
11.	Tuproqqal’a	«Tuproqqal’a Klaster» MChJ	2682
	Xorazm viloyati bo‘yicha (12 klaster)		82757

Manba: https://uzts.uz/paxta-toqimachilik-klasterlari/

Ushbu klasterlar orasida «Textile Finance Khorezm» MChJ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 iyundagi “Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 397-son qarori

asosida Xorazm viloyatidagi innovatsiyalarni, ilm-fan yutuqlari va yangiliklarini joriy etish bo‘yicha ilmiy markaz qilib belgilangan.

Viloyatda yengil sanoati tarmmoqlari rivojlanishi bo‘yicha Shovot, Urganch, Xonqa va Yangibozor tumanlari ajralib turadi. Ular hissasiga viloyat yengil sanoatining deyarli yarmi to‘g‘ri keladi (1-rasm).




1-rasm. Xorazm viloyati yengil sanoati hududiy tarkibi. Rasm Xorazm viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida tayyorlangan

Ip gazlama sanoatida 10 dan ortiq yirik to‘qimachilik – trikotaj kombinatlari faoliyat yuritmoqda. Ularning 13 tasida ip kalava, 3 tasida ip gazlama, 10 tasida trikotaj mahsulotlari ishlab chiqariladi. 5 tasida trikotaj matolar va 2 tasida paypoq va noski ham ishlab chiqariladi (2-jadval). Bundan tashqari kichik biznes va tadbirkorlik sektoriga tegishli 30 dan ortiq trikotaj korxonalari ham faoliyat yuritmoqda.

Yengil sanoat tarmoq tarkibiga qararasak paxta tozlash sanoati va undan to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish asosiy o‘rin tutadi. Quyidan ko‘rinib turibdiki kiyim-kechak mahsulotlari tikish (tikuvchilik) viloyat sanoatining 7,0 foizini beradi. Viloyatda teri va charm mahsulotlari ishlab ishlab chiqarish sanoati unchalik rivojlanmagan (2-rasm). Tarmoqda “Darital Shoes” korxonasi (Urganch shahri) charm poyafzal ishlab chiqaruvchi yirik korxonaci sanaladi.

“Textile Finance Khorezm”, “Uzteks Katqal’a” “Xorazm ipagi”, “Gilasun Tashkent” “Bog‘ot-tekstil”, “Kobotex” “Kotton Tex”, “Vikcot impex”, “Xiva gilami” to‘qimachilik va trikotaj sanoatining yirik korxonalari sanaladi. Ip gazlama va trikotaj

sanoati korxonalarida 53 ming tonna paxta tolasini qayta ishlash quvvatlari o‘rnatilgan bo‘lib viloyatda tayyorlanayotgan paxta tolasining 60 foizga yaqini qayta ishlanadi. Viloyat paxta tozalash va to‘qimachlik klasterlari 12 klasterga birlashtirilgan.



2-rasm. Viloyat hududlari yengil sanoati tarmoq tarkibi (2024 y.). Rasm Xorazm viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida tayyorlangan

2-jadval

Viloyat ip gazlama sanoati

	Viloyat	**ip kalava**	**ip gazlama**	**trikotaj mah-sulotlar**	**trikotaj mato**	**paypoq, mln. juft**
1	Xorazm	13	3	10	5	2

Jadval https://uzts.uz/paxta-toqimachilik-klasterlari/ sayti ***ma’lumotlari asosida tayyorlangan.***

Viloyatda asosiy to‘qimachilik xom ashyosi paxtani qayta ishlash hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Viloyat ip gazlama sanoati korxonalari 53 ming tonna paxta tolasini qayta ishlash quvvatlariga ega bo‘lib 2024 yilda 40,2 ming tonna ip kalava ishlab chiqarilgan (3-jadvallarga tayanib paxta tolasini qayta ishlashda uning 20 foizi chiqitga chiqishini hisobga olsak tarmoq quvvatlarini necha foizi bo‘sh turib qolgani hisoblang). Tarmoq korxonalari viloyatda ishlab chiqarilgan paxta tolasini deyarli 100 foiz qayta ishlash quvvatiga ega bo‘lib bu yaqin kelajakda ichki imkoniyatlarga

tayanib tarmoq rivojlanishini faqat vertikal – energiya ishlab chiqarish sikllarini to‘liq shakllantirish orqali amalga oshirish mumkin. Hozirgi kunda mavjud xom ashyo ko‘proq ip kalava va trikotaj mahsulotlari darajasida qayta ishlanmoqda (3-jadval).

To‘qimachilik sanoatining ipak, jun gazlama sanoati tarmoqlari viloyatda rivojlanmagan. Bir vaqtlar respublikada sanoqli ipak gazlamalar ishlab chiqaruvchi korxonalar qatoriga kiruvchi “Urganch Baxmal” MChJ da ip gazlama va undan bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Tarmoqda hozir faqat “BAHMAL GROUP” (“Urganch Baxmal” MChJ ham uning tarkibiga kiradi) tarkibida pilla chuvish fabrikasi faoliyat yuritmoqda. Ipak gazlamalar sintetik tolalardan tayyorlangan analoglaridan qimmatligi hamda xususiyatlari bo‘yicha paxtadan tayyorlangan mahsulotlardek emasligi tarmoq ishlab chiqarishni samarasiz qilib qo‘ygan.

3-jadval

Viloyatda paxta tolasini qayta ishlash ko‘rsatkichlari (2023-yil)

		Olingan paxta tolasi, ming tonna	Ip gazlama korxonlarida o‘rnatilgan quvvatlar	Hududlarda paxta tolasini qayta ishlanish darajasi, %
1.	Xorazm	94,6	53,0	56,1
	Respublika bo‘yicha	1076,0	1028	95,5

Jadval https://uzts.uz/paxta-toqimachilik-klasterlari/ ***sayti hamda Xorazm viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida tayyorlangan***

Viloyatda jun gazlama sanoati mavjud emas. Gilam to‘qimachilikda hozirda asosan nitron tolalardan foydalaniladi. Tarmoqning yirik korxonasi “Xiva gilami kombinati” sanaladi. Korxonada mahsulot ishlab chiqarish hajmi bozor talabiga qarab o‘zgarib turadi va o‘rtacha 3 mln. kv.m. atrofida gilam mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda (4-jadval).

4-jadval

Ayrim turdagi yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (2024-yil)

Mahsulot turlari	O‘lchov birligi	2020- yil	2023- yil	2024- yil	2023- yilga nisbatan, % da
Gilam va gilam mahsulotlari	ming m.kv		3080,0	2943,0	95,6
Paxtadan yigirilgan ip	tonna		31715,2	40238,9	126,9
Paxta tolasi	tonna	70391,3	97905,5	110518,9	112,9
Paxta chigiti	tonna	118310,6	165669,3	175429,0	105,9

Jadval Xorazm viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida tayyorlangan

Xorazm viloyati agrasanoat majmuasi asosini paxtachilik va donchilikka ixtisoslashilgan sug‘orma dehqonchiligi tashkil etadi. Ushbu sohalar energiya sikli majmuaviy aloqalarda nisbatan rivojlangan. Sababi, yuqorida bir necha bor ta’kidlanganidek, ushbu sohalardagina plantatsiya - tovar xo‘jalik shakllantirilgan. Paxta chigitidan respublika va qo‘shni davlatlarda foydalaniladigan paxta yog‘i olinadi.

Adabiyotlar

1. Ro‘zmetov D., Matchanov M., Qalandarov U. Xorazm viloyati qishloq xo‘jaligi geografiyasi. - Urganch, Urganch davlat universiteti noshirlik bo‘limi, 2017. – 163 б.
2. https://uzts.uz/paxta-toqimachilik-klasterlari/

ÁMIWDÁRYA BASSEYNINIŃ TÁBIYIY GEOGRAFIYALÍQ ORNÍ HÁM ONÍŃ ARAL EKOLOGIYALÍQ KRIZISINE TÁSIRI

Seydullayev A.M.

Ájiniyaz atındaǵı NMPI Geografiya hám EBT tálim baǵdarı 3-kurs studenti

Kirisiw. Oraylıq Aziya elleriniń tariyxı Ámiwdáryanıń tariyxı menen tikkeley baylanıslı. Baqtriya, Soǵdiyana, Badaxshan, Gurganj, Kesh, Marakanda sıyaqlı mámleketlerdiń rawajlanıwı greklerdiń maǵlıwmatlarında Tanazis, parsılarda Ariana,

jergilikli xalıq tárepinen Jayhun (aqıldan azǵan) dep atalǵan dárya menen tikkeley baylanıslı bolǵan. Bul mámleketlerdiń xojalıǵı hám xalqınıń turmıs tárizi Ámiwdárya basseynindegi ónimdar jerlerden paydalanıwǵa tiykarlanǵan. Ullı Jipek jolınıń ashılıwınan soń dárya sawdagerler arasında Buxara altınları, Qıtay jipekleri, Qaraqalpaqstandaǵı jońıshqa tuqımları hám Samarqandtıń ájayıp arxitekturasına alıp barıwshı baǵdar wazıypasın atqardı. Dárya XVIII-XIX ásirlerde alıpbarılǵan gidrologiyalıq izertlewlerde, Hind, Missisipi hám Xuanxe dáryaları menen bir qatarda dúnyadaǵı eń iri júk tasıwshı dáryalardan biri bolǵan. XX ásirde Ámiwdárya Aral teńiziniń suwı azayıp ketiwi múnásibeti menen dúnya jámiyechiliginiń itibar orayında boldı. Dárya maydanı boyınsha 4-orında turıwshı bul kóldi suw menen támiyinlep turatuǵın edi. Ámiwdáryanıń zamanagóy tariyxında júzege kelgen bul awır jaǵdaydı jeńip ótiw regiondaǵı bes mámleket – Awǵanstan, Qırǵızstan, Tájikstan, Túrkmenstan hám Ózbekstan respublikaları xalıqlarınıń turmıs tárizin jaqsılawǵa xızmet etedi.

Tiykarǵı bólim. Ámiwdárya Orta Aziyadaǵı eń mol suwlı dárya esaplanıp, onıń uzınlıǵı eki tiykarǵı tarmaqları – Pandj hám Vaxshlardıń birlesken jerinen 1415 km, Pandj dáryasınıń baslanǵan jerinen 2540 km di quraydı. Ámiwdárya basseyni Qırǵızstan, Tájikstan, Ózbekstan, Túrkmenstan hám Awǵanstannıń arqasında jaylasqan. Ámiwdáryaǵa quyılǵan, biraq házirgi waqıtta gidrologiyalıq baylanısın joytqan Ámiwdáryanıń Úlken basseynin ajıratıp kórsetiw múmkin. Onıń quramına Zarafshan, Qashqadárya, Murǵab, Teyn (Gerirud), Atrek basseynleri, sonday-aq, Awǵanstannıń arqadaǵı dáryaları – Balx, Xulm, Sarpulul hám Kaysar kiredi. Biziń izertlewlerimizdiń obyekti bolǵan Ámiwdáryanıń kishi basseyni hám sonıń menen birge suw bólistiriwdi basqarıw obyekti dáryalar magistralın hám onıń tiykarǵı tarmaǵı Pandj, Vaxsh, Qunduz, Kafirnihan, Sherabad hám Surxandáryanı óz ishine aladı (1-keste).

Ámiwdárya Pamir-Alay tawlarınan ağıp túsetuǵın hám dúnyanıń eń úlken shólleri – Qızılqum hám Qaraqumdı kesip ótip, Aral-Kaspiy tegisliklerinde jaylasqan.

1-keste

Ámiwdárya basseynine tiyisli dáryalardıń gidrologiyalıq kórsetkishleri

Dáryalar	Uzınlıǵı, km	Maydanı	Ortasha suw sarpı, m^3/sek	Ortasha aǵım moduli, l/sek.km^2
Pandj	921	113 500	1000 – 1050	9,3 – 9,8
Vaxsh	524	39 100	680	20,0
Kafirnihan	387	11 590	190	22,3
Surxandárya	196	13 610	120	14,6
Sherabaddárya	171	2 950	7,5	2,55
Qashqadárya	310	8 780	50	5,7
Zarafshan	581	17 710	190	10,7

Ámiwdárya basseyni, Orta Aziyadaǵı eń úlken dárya basseyni, 1 326 000 km^2 maydandı iyeleydi, sonnan 1 017 835 km^2 gidrografiyalıq ózgeshelikleri boyınsha iri Ámiwdárya basseynine tiyisli bolǵan ǴMDA mámleketleri aymaǵına tuwra keledi. Basseynniń suw alıw shegaraları tawlı aymaqlarda anıq kórinedi: qublada olar Hindikush dizbegi, shıǵısta - Sarıkól dizbegi hám arqada - Alay, Túrkstan hám Nurata dizbekleri boylap ótedi. Muzlıqlar hám qarlı maydanlar menen qaplanǵan jerler basseynniń eń úlken dáryalarınıń toyınıw rejimin belgileydi. Olardıń tiykarǵı bólegi muz-qar suwlarınan toyınatuǵın dáryalar esaplanadı (Ámiwdárya, Pandj, Vaxsh, Zarafshan hám basqalar).

Tek ǵana basseynniń batıs bóliminde aǵıwshı, salıstırmalı tómenirek tawlardan baslanatuǵın dáryalar (Kafirnihan, Qızılsuw, Surxandárya, Qashqadárya) qar suwlarınan toyınadı.

Basseynniń tawlı bóliminde biyik muzlıqlar - Zalayskiy, Pyotr I, Ilimler Akademiyası, Rushan hám Vaxsh – úlken maydandaǵı (10 000 km^2) muzlıq zonaları, atap aytqanda dáryanı suw menen támiyinleytuǵın eń úlken Fedchenko muzlıqları menen bánt. Teńiz qáddinen 800-4000 m bálentte jaylasqan platolar tereń dárya alapları menen kesilgen.

Evraziya materiginiń ortasında, teńiz hám okeanlardan uzaqta jaylasqan basseyn aymaǵı ıssı hám quyashlı kúnlerdiń kópligi, sonday-aq kontinental klimatı menen ajıralıp turadı. Onıń úlken bólimin Qaraqum hám Qızılqumnıń qumlı shólleri

hám qurǵaqshılıǵı menen ajıralıp turatuǵın yarım shóller iyeleydi. Jıllıq jawın muǵdarı 220 mm, ayırım orınlarda 100 mm den aspaydı (Zarafshan dáryasınıń deltası, Ámiwdáryanıń tómengi aǵısı).

Dáryanıń tómengi aǵısınan tısqarı, ortasha jıllıq temperatura +14°C tan +17 °C qa shekem, qısta - +1°C tan +2 °C qa shekem, jazda - +30°C tan + 32°C qa shekem. Ámiwdáryada ortasha jıllıq temperatura +11°C tan +14 °C qa shekem, qısta bolsa – 4°C tan 6 °C qa shekem. Bir jıl dawamındaǵı effektiv temperaturalardıń jıyındısı 5000-50000°C, qubladaǵı aymaqlarda 60000°C qa jetedi. Tawlardıń alapları kóp jawıngershilik penen xarakterlenedi - 450–700 mm átirapında. Jıllıq ortasha temperatura +16 +18°C, jazda +32°C.

Juwmaqlaw. Ámiwdárya alabında adamlar áyyemgi dáwirlerden beri jasap kelgen bolsa da, tábiyiy sharayatınıń quramalılıǵı – shól, kontinental klimat, joqarı tıǵızlıqtıń rawajlanıwına imkaniyat bermedi hám 1960-jılǵa kelip basseynde 8 millionnan kem xalıq jasawı belgili boldı. CAWater-Info xabar portalınıń maǵlıwmatı boyınsha Ámiwdárya basseyninde (Awǵanstandaǵı Ámiwdárya basseyninde jasaytuǵınlardı qosa esaplaǵanda) 2025-jıl 1-yanvar jaǵdayına qaraǵanda 33,9 million adam jasaydı. ǴMDA mámleketlerinde xalıqtıń ortasha jıllıq ósiw páti 1,2-1,5% ti qurasa, al Awǵanstanda bolsa bul kórsetkish 2 ese joqarı.

Burıńǵı Awqamnıń Orta Aziyada paxta monokulturası siyasatınıń nátiyjesinde Ámiwdárya hám Sırdárya basseynlerinde egislik maydanlarınıń keńeyiwi, sıyımlılıǵı úlken bolǵan suw saqlaǵıshlardıń qurılıwı, 1960-jıllarda suwǵarılatuǵın jerlerdiń maydanınıń 4,5 mln. gektarǵa jettiwine, 1990-jılǵa deyin bul maydan jáne 2,6 mln. gektarǵa kóbeyip hám suwdan paydalanıw bir jılda 105 km^3 ǵa alıp keldi. Sonnan 60 km^3 Ámiwdárya hám 45 km^3 Sırdárya esabına tuwra keler edi. Bul jaǵday nátiyjesinde dáryalar suw aǵımınıń Aral teńizine quyılıwın keskin qısqatırıp jiberdi.

Túrkmenstan Ilimler akademiyası akademigi, burıńǵı Awqam Ilimler akademiyası akademigi Agajan Geldievich Babaev Araldıń qurıp baratırǵanın bile tura, Orayǵa jaǵınıw maqsetinde paxtanıń egislik maydanların qorıqpastan kóbeytiw kerek ekenligin, eger Aral qurısa onıń astında úlken paxta maydanınıń ashılıwın hesh

bir ilimiy tiykarlarsız aytqan. Ullı rus geografları Aleksandr Ivanovich Voeykov hám Lev Semyonovich Berg XX ásir baslarında-aq, Aral teńizine quyıwshı Ámiwdárya hám Sırdárya basseyninde xalıq kóbeyiwi nátiyjesinde jańa egislik aymaqlar ózlestiriliwi, sol sebepli jańadan kanal, jap, salma, suw saqlaǵıshlardıń qurılıwı nátiyjesinde Ámiwdárya hám Sırdárya suwınıń Aral teńizine suw quyıw kólemi jıldan jılǵa kemeyip barıwın, bul bolsa 1970-jılǵa kelip Araldıń qurıwına alıp keliwin boljaǵan edi. Usınday ilimiy tiykarǵa iye boljawlarǵa qulaq salmastan biz Araldı usınday awhalǵa alıp keldik.

Belgili fransuz okeanologı Jak Iv Kusto “burın tábiyat adamdı qorqıtatuǵın edi, endi adam tábiyattı qorqıtadı” dep aytqan edi.

Jámiyettiń rawajlanıwı menen insannıń qorshaǵan ortalıqqa tásiri kúsheyip baradı. Insannıń xojalıq iskerliginiń artıp barıwı tábiyattaǵı teń salmaqlılıqtıń buzılıwına, bunıń nátiyjesinde planetamızda global ekologiyalıq mashqalalardıń júzege keliwine alıp keledi.

Ádebiyatlar

1. Агальцева Н.А. Оценка влияния климатических изменений на располагаемые водные ресурсы в бассейне Аральского моря. / Диалог о воде и климате: исследование случая бассейна Аральского моря, Ташкент, 2002. с. 3-59.

2. Влияние изменения климата на водные ресурсы в Центральной Азии (сводный доклад) / ЕАБР и ИК МФСА Алматы, 2009

3. Генеральная схема комплексного использования и охраны водных ресурсов Средней Азии на период до 2000 года и более отдаленную перспективу. Саогидропроект, 1983.

4. Денисов М. В., Агальцева Н. А., Пак А. В. Автоматизированные методы прогнозов стока горных рек Средней Азии. Ташкент, 2000 г., САНИГМИ, 160 с.

5. Сорокин А.Г. Рекомендации по эффективному управлению водными ресурсами реки Амударьи в различные по водности годы. Министерство сельского и водного хозяйства Республики Узбекистан, НИЦ МКВК, Ташкент, 2006 г.

6. Сорокин А.Г. Управление водным и наносным режимами водохранилищ бассейна Амударьи: инструменты и оценка. Экстремальные гидрологические события в Арало-Каспийском регионе. Труды международной научной конференции, Москва, 2006 г.
7. Шульц В.Л, 1965. Реки Средней Азии.

FANLAR TIZIMIDA TOPONIMIKANING TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI

[1]Seytniyazov K., [2]Abdullaeva M., [2]Amatova D.

[1]Ajiniyoz nomidagi NDPI Geografiya kafedrasi dotsenti, g.f.n.

[2]Ajiniyoz nomidagi NDPI Geografiya va IBA mutaxassisligi 3-kurs studenti

Hozirgi vaqtda ilmiy tadqiqot ishlari ko`pincha bir necha fanlar manfaatlari tutashgan joyda samarali rivojlanmoqda. Geografik nomlarni o`rganuvchi toponimika - ana shunday fanlar sirasiga kiradi. Toponimika fan sifatida, so`nggi asr davomida ildam suratlar bilan rivojlanmoqda. Sababi, fanning o`rganish obekti bo`lgan geografik nom - milliy va manaviy qadriyatlarni ajralmas tarkibiy qismidir, ularni o`rganish doimo dolzarb masala hisoblanadi. Xususan, jamiyat, ilm-fanning tez suratlar bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda, geografik obektlarning nomlariga qo`yiladigan talablar ham takomillashib bormoqda. Natijada, geografik nomlarga bo`lgan qiziqish sezilarli darajada ko`paydi.

Malumki, geografik nomlar zamonaviy tsivilizatsiyaning ajralmas qismi, shu sababdan insoniyatni, jamiyatni asrlar davomida shakllangan o`ziga xos toponimik muhitsiz tasavvur qilish qiyin.

So`ngi vaqtlarda joy nomlarining kelib chiqish qonuniyatlari, tarixiy qatlamlari, toponimlar klassifikatsiyasi turlari, geografik obektlarning nomlash tamoyillari hamda ularning tadqiqot metodlari kabi masalalar ko`pchilik mutaxassislarni qiziqtirmoqda.

Bizlarning maqsadimiz - mavjud geografik, tarixiy va lingvistik malumotlar negizida toponimika fani haqida ilmiy tushuncha hosil qilish. Asosiy vaziyfalarning

biri - toponimikaning fanlar tizimida tutgan o`rnini belgilash, toponimik tadqiqotlar tarixi va usullari haqida bilimlarni shakllantirish, asosiy toponimik qonuniyatlarni yoritish, geografik nomlarni klassifikatsiyalash to`g`risidagi muammolarni o`rganish, mavjud toponimik tizimlarning mintaqaviy xususiyatlari haqida umumiy tushuncha berish, o`quvchilarni turli toponimik faqt va hodisalar bilan yaqindan tanishtirish hamda hozirgi zamonda ularning rolini aniqlashdan iborat.

Toponimlar olami juda xilma-xil va qiziqarli. Inson paydo bo`lganidan buyon behisob va murakkab nomlar dunyosida yashaydi. Kurai zaminda har xil davr va tilga mansub millionlab geografik nomlarning uyg`unligini ko`rish mumkin. Ularni har kuni radiodan eshitamiz, gazetada o`qiymiz, teleekranlarda va kompyuter monitorlarida ko`ramiz. Xususan, atlas va geografik kartalarni nomlarsiz tasavvur qilish qiyin. Hayotda sodir bo`lgan yoki bo`layotgan ko`plab voqea-hodisalarni geografik nomlar orqali anglab olish mumkin.

Mutaxassislarning takidlashicha, nomning manosi obektga nom berilayotgan vaqtda muhim, keyinchalik u nazardan bir oz chetda qoladi. SHu sababdan, ko`pincha bizga yaxshi tanish bo`lgan geografik nomlarni ham qanday manoga ega ekanligini bilmaymiz, faqat zarurat paydo bo`lganda u haqda o`ylash kerak bo`ladi. Umuman, inson uning bevosita atrofida sodir bo`layotgan voqea hodisalarga munosabat bildirmasdan qolmaydi. SHu sababdan, kishilar nazariga tushgan dunyodagi hamma narsani nomi bor, demak inson nom bermasdan yashay olmaydi. Odamlar bir geografik obektni, ikkinchisidan farq qilish uchun turli xil nomlarni o`ylab chiqargan. Boshqacha aytganda, jamiyat hayotida sodir bo`lgan xilma-xil voqea-hodisalar joy nomlarida muhrlanib qolgan.

H.Hasanov tabiri bilan aytganda, nomlarning o`z tarixi, xalq, qabila, tabiat, xo`jalik, hodisa va kashfiyotga mansubligi bor. Agar nomlar tarixi tilga kirsa, tog`lar va suvlarning xosiyati, o`simligu hayvonot turlari, savdo-sotiq, kasb-hunar, xazinalar, janglaru etiqodlarimizning hammasi ayon bo`ladi. Demak, toponimlar kishilik jamiyati rivojlanishining muhim elementlardan biri, tabiat, tarix, hayot va insoniyat ko`zgusi hisoblanadi. Shunday ekan, hozirgi jamiyatni, zamonaviy tsivilizatsiyani,

xalqlar va mamlakatlar o`rtasidagi har qanday aloqalarni geografik nomlarsiz tasavvur qilib bo`lmaydi. Madaniyat va ilm-fanning rivojlanishi, tobora avj olayotgan xalqaro aloqalar geografik nomlarni borgan sari ko`proq qo`llashni taqozo qilmoqda.

Malum bir hududdagi geografik nomlarning yig`indisi shu hududda yashovchi xalqlarning asrlar davomida, nomlar yaratishdagi ijod mahsuli hisoblanadi. Dunyoda qancha geografik nom borligini hech kim aniq bilmaydi. Taxminiy hisoblarga ko`ra, butun er sharida yarim milliarddan ortiq geografik nom bor. Holbuki, ular qatoriga soy, jilg`a, buloq, quduq, jar, qir, mahalla, guzar, ko`cha kabi mikrotoponimlar kirmaydi. Agar, er yuzidagi barcha katta-kichik joy nomlarini hisobga olish imkoni bo`lganda, son-sanoqsiz raqam hosil bo`lar edi.

Geografik nomlar - bu mamlakat, shahar yoki biron bir tabiiy obekt bilan tanishishda uning tashrif yorlig`i vazifasini bajaradi. SHu sababdan tabiiyki, toponimlarning yaratilishi sabablarini anglash, ularni shakllanishi, rivojlanishi, yashovchanligi, o`zgarishi, adreslik funktsiyasi, axborot (informatsiya) tashishi va qanday mano kasb etishini aniqlash zaruriyati paydo bo`ladi. YUqorida qayd qilingandek, ushbu masalalarni aniqlash bilan maxsus fan hisoblangan toponimika shug`ullanadi. SHu bilan birga, joy nomlari ilmiy, siyosiy, amaliy va tarbiyaviy ahamiyatga molik ekanligi tufayli, bir qator boshqa fanlar uchun ham o`rganish obekti hisoblanadi.

Toponimika va toponimiyani bir-biridan farqlash maqsadga muvofiq. Toponimika-geografik nomlarni paydo bo`lishi, shakllanishi, rivojlanishi, hozirgi holati, mano-mazmuni, talaffuzi va yozilishini o`rganuvchi ilmiy fandir.

Toponimiya - deganda muayyan hududdagi geografik nomlarning yig`indisi nazarda tutiladi. Boshqacha aytganda, toponimiya toponimika fanining o`rganish obekti hisoblanadi.

Toponimika integral ilmiy yo`nalish, «chegaraviy» fan hisoblanadi. U geografiya, filologiya (lingvistika) va tarix kabi fanlarning manfaatlari tutashgan joyda paydo bo`lib, ularni mujassamlashtirib rivojlangan. SHu sababdan, toponimikani egallagan mavqei, uning fanlar tizimidagi o`rni, turlicha qarashlarning

kelib chiqishiga sabab bo`lgan. Har holda shunisi aniqki, har qanday salmoqli toponimik material har uchala fanga ham o`rganish va tadqiqot manbai hisoblanadi, ammo, uni har bir tadqiqotchi o`z mutaxassisligi nuqtai nazardan o`rganadi.

E.M.Murzaev toponimikani fanlar tizimidagi o`rniga baho berib, bu masalada olimlar orasida ziddiyatli fikrlar mavjudligi va u hozirga qadar uzil-kesil hal bo`lmaganligini takidlagan. H.Hasanov ham bu masalada o`z munosabatini bildirib: «Toponimika aslida geografiyaning bir tarmog`i bo`lib, tilshunoslik faniga ham, tarix faniga ham uzviy bog`langan. Toponimikani tilshunoslik yoki tarix fanining bir tarmog`i desak xato bo`lmaydi. Har bir fan sohibi toponimik tatqiqotlarda o`z mutaxassisligini ustun qo`yadi», deb yozgan.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, hech bir fan toponimik tadqiqotlarda “monopoliya”ga ega bo`lmasligi kerak. Toponimikaga lingvistik, tarixiy va geografik tadqiqot metodlaridan samarali foydalanadigan alohida fan sifatida qarash kerak. Xulosa qilib aytganda, toponimika - mustaqil “chegaraviy” fan. U alohida ilmiy yo`nalish sifatida geografiya, tilshunoslik va tarix fanlarining imkoniyatlaridan to`g`ri foydalansa katta yutuqlarga erishishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Hasanov H. O‘rta Osiyo joy nomlari tarixidan. T.: “Fan”. 1965.
2. Hasanov H. Yer tili. T.: “O'qituvshi”. 1977.
3. Hasanov H. Geografik nomlar siri. T.: “O'qituvshi”. 1985.
4. Mahmud Qoshg‘ariy. Devonu lug'atit turk. T.: “Fan”. 1967.
5. Nafasov T. O‘zbekistontoponimlarining izohli lug‘ati. T.: “O‘qituvchi”. 1988.
6. Мурзаев Э.М. География в названиях. М.: “Наука”, 1979.
7. Мурзаев Э.М. Словарь народных географических терминов. М.: “Мысль”. 1984.

TOPONIMIKALÍQ RAYONLASTÍRÍW PRINCIPLERI

[1]Seytniyazov Q., [2]Dalibaev N., [2]Erejepov A.

[1]Ájiniyaz atındaǵı NMPI Geografiya kafedrasi docenti, g.i.k.

[2]Ájiniyaz atındaǵı NMPI 3-kurs studenti

Kirisiw. Geografiyalıq rayonlastırıwda aymaqlıq bóliniw tiykar etip alınadı. Sebebi hár qanday aymaqta óziniń geografiyalıq terminleri, geografiyalıq landshaftı hám toponimikalıq sisteması boladı. Geografiyalıq rayonlastırıwda tariyxıy princip te qollanıladı. Biraq bul principtiń kriteriyası házirge shekem anıqlanbaǵan.

Tiykarǵı bólim. Ǵárezsiz mámleketler doslıq awqamı (ǴMDA) toponimikalıq rayonlastırıwǵa tiykar etip olardıń siyasiy-administrativlik aymaqlıq bóliniwi alınǵan. Olardıń bunday bóliniwi milliy belgisine qarap alınǵan. Bizge belgili ǴMDA mámleketleri aymaǵı júdá úlken hám túrlishe. Bul aymaqta 130 dan artıq xalıqlar jasaydı. Bul xalıqlar tilinde kóplegen geografiyalıq atamalar kelip shıqqan. Atamalardıń ayrımları házir joǵalıp ketken xalıqlar tilinen saqlanıp qalǵan. ǴMDA mámleketleri tábiyiy shárayatınıń túrliligi olardıń toponimlerinde óz kórinisin tapqan. Hár qaysı tábiyiy geografiyalıq zona ushın geografiyalıq terminleri tiyisli bolıp tabıladı. Olardıń toponimlerinde tariyxı menen baylanıslı kóplep atamalar bar. Bul mámleketler aymaǵındaǵı toponimlerdiń jası hár túrli. Eń áyyemgi toponimler Kavkazda, Túrkstanda, eń jasları bolsa Arktika, Uzaq Shıǵıs hám Yakutiyada ushıraydı.

Túrkstan aymaǵındaǵı toponimler kóp ásirlik tariyxqa iye. Olardıń bir qansha bólegi júdá áyyemgi dáwirlerden kelip shıǵıp, házirde bir az ózgergen halda saqlanıp kelmekte. Bul aymaqta kópshilik toponimikalıq qatlamlar ushıraydı. Iranǵa shekem, iran, arab, monǵol, túrk, slavyan. Túrkstannıń áyyemgi xalqı áyyemgi iran tilinde sóylesken. Házir túrk toparı tilinde sóylesiwshi mámleketlerde de toponimikalıq qatlam ajıratıladı: 1) Tómengi – Iran. 2) Orta – túrk. 3) Joqarı – slavyan.

Ózbekstan aymaǵında túrk hám iran tilleri bir-biri menen baylanısıp ketken. Ózbekstandaǵı bazı qalalar bir neshe mıń jıllıq tariyxqa iye. Uzaq jıllar dawamında geografiyalıq atamalar ózgerip barǵan, yaǵniy bir formadan ekinshi formaǵa ótken.

Aymaqta arab, iran, monǵol, hátte sanskrit tillerinde sózler ushıraydı. Ózbek tiliniń ózi de óziniń uzaq tariyxı dawamında ózgerip barǵan. Soniń ushın Ózbekstan aymaǵında mazmunı anıq emes kóplegen atamalar ushırasadı. Házir Ózbekstan aymaǵında 4 topar: 1) eń áyyemgi, 2) iran, 3) túrk, 4) slavyan tillerinen kelip shıqqan atamalar bar.

1. Eń áyyemgisine Samarqand, Buxara, Qoqan, Termiz, Ferǵana hám basqalar kiredi. 2. Iran tilinen kelip shıqqanlarına: Dugabo, Tuzob, Obikanda hám basqalar kiredi. 3. Túrk tilinen kelip shıqqan atamalar júdá kóp. Olar Sarısuw, Qarawıltóbe, Úlkenqorǵan hám basqalar. 4. Slavyan tillerinen kelip shıqqan atamalar Moskva, Sergili h.t.b.

Juwmaqlaw. U.D.Nominxanovtıń (1962-jıl) maǵlıwmatına qaraǵanda, Samarqand-Buxara-Qarshı úshmúyeshliginde 16 monǵol tilinde atalǵan awıl hám 27 tábiyiy geografiyalıq obyektler bar. Ózbekstan etnonimleri (qáwimler atamaları menen júritiliwshi atamalar) júdá kóp bolǵan. Mısalı: ótken ásirdiń aqırlarında Zarafshan alabınıń Buxara bóleginde 900 dan artıq etnonimler bolǵan. 1979- jılda Samarqand wálayatı aymaǵında 870 etnonimler bolǵan. Házir de olardıń sanı bir qansha kóp. Mısalı, Nókis, Shımbay, Qońırat, Bóka hám basqalar.

Ádebiyatlar

1. Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. T.: “O‘qituvchi”. 1988.
2. Qorayev S. Toshknet toponimlari. T.: “Fan”. 1991.
3. Мурзаев Э.М. География в названиях. М.: “Наука”. 1979.
4. Мурзаев Э.М.Словарь географических терминов. М.: “Мысль”. 1984.
5. Суперанская А.В. Что такое топонимика? М.: «Наука». 1985.

QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍNDA MINERAL TÁBIYIY BAYLÍQLARDAN PAYDALANÍWDÍŃ PERSPEKTIVALARÍ

Tastayev D.M.

Berdaq atındaǵı QMU Geografiya qánigeligi 1-kurs magistrantı

Qaraqalpaqstan Respublikasınıń aymaǵında awır sanaat tarawların, ásirese taw-kán, sanaatı hám qurılıs materialları sanaatın rawajlandırıw ushın minerallıq shiyki zat resurslardıń kópshilik túrleri jaylasqan. Mısalı, Tebinbulaq titan-magnetitli ruda káni perspektivalı kánlerden esaplanadı. Sulfatlı magneziyalı duz káni tiykarında sulfat natriyin, as duzın hám metall magniyin alıwǵa jol ashıladı. Bul aqırǵı esapta ximiya, metallurgiya sanaatların keńnen rawajlandırıwǵa múmkinshilik tuwdıradı.

Respublikada qurılıs materialların kóp muǵdarda óndiriw ushın da mineral baylıqlardıń qorları mol. Bul házirgi waqıtta Ústirt zonasınan tabılǵan gaz, neft hám t.b. bir qatar kánlerde qurılıs-montajlaw jumısların shólkemlestiriwge jol ashadı. Solay etip, hár qıylı shiyki zat resursları qorlarınıń ashılıwı Qaraqalpaqstannıń industrial baǵdarda rawajlanıwına múmkinshilik jaratadı.


Qaraózek rayonı aymaǵındaǵı Tebinbulaq káni negizinde kán-metallurgiya kompleksin qurıw joybarı perspektivalı ilajlar qatarında tilge alınadı. Bul kánde 1,1 milliard tonna shiyki zat rezervi anıqlanǵan. Dáslepki esaplawlarǵa qaraǵanda, jılına 33 million tonna ruda qazılıp, onnan 1,5 million tonna temir alınıwı mólsherlengen.

Ózbekstan Respublikası Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevtiń 2018-jıl 12-yanvardaǵı qararında bul investiciya joybarın ámelge asırıw ilajları belgilengen.

Kán-metallurgiya kompleksi jılına 900 mıń tonna armatura, 225 mıń tonna sım, 375 mıń tonna ugolok, shveller hám basqa túrdegi ónimler islep shıǵarıw quwatına iye boladı. Bul bolsa úlken muǵdardaǵı importtıń ornın toltırıp, sanaattı turaqlı rawajlandırıwǵa xızmet qıladı. Bul jerde 3 mıńnan aslam xalıq jumıs penen támiyinleniwi kózde tutılǵan. Ónimlerdiń 35 % in eksport qılıw jobalastırılǵan.

Joybardı tayarlaw hám ámelge asırıwǵa Germaniyanıń “DMT-Group Consulting” hám Avstriyanıń “Horst Wiesinger Consulting” kárxanaları usınıs etilgen.


Texnologiyalıq reglament kán qazıp alıwdan polat buyımların islep shıǵarıwǵa shekemgi bolǵan pútkil texnologiyalıq process ushın islep shıǵılǵan. Bul texnikalıq húJJetler optimal texnologiyalıq rejimin, texnologiyalıq procestiń operaciyaların ámelge asırıw tártibin, talap etiletuǵın sapalı ónim silep shıǵarıwdı támiyinlewdi, óndiristiń qáwipsiz islew sharyatların, sonday-aq qorshaǵan ortalıqtı qorǵaw talaplarına juwap beredi. Aldınıraq, bul joybarda kómilgen texnologiyadan paydalanıw kózde tutılǵanı, bul joqarı oshaqlardan parıqlı túrde qorshaǵan ortalıqtı pataslamawı menen ajıralıp turıwı aytılǵan edi.



1-súwret. Ózbekstan Respublikası Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Tebinbulaq titan-magnetitli ruda káni joybarın ámelge asırıwshı shet el kárxanaları wákilleri menen birgelikte joybardıń ekonomikalıq nátiyjeliligin dodalamaqta

Rudanıń quramındaǵı temir muǵdarı az bolıwına qaramastan, tańlanǵan texnologiyadan paydalanǵan halda hám joqarı qosımsha qunǵa iye ónim sıpatında vanadiy shlakin qazıp alıw kózde tutılǵan. Joybardıń ekonomikalıq effektivligi 8 jıldı quraydı.

Joybar TUV NORD GROUP – iri konsalting hám injenerlik kompaniyası “DMT Group” (Germaniya), Leoben kánshilik universiteti (Avstriya), Bochum universiteti (Germaniya), SGA (Germaniya), K1Met (Avstriya), ARP (Avstriya), ALS (Irlandiya), sonday-aq, biznes másláhátshi ILF Consulting Engineers (Germaniya). Joybarda qabıl qılınǵan texnologiya boyınsha óz betinshe ekspert juwmaǵın alıw ushın TOMS institutı (Irkutsk, Rossiya Federaciyası) 2020-jıl yanvarınan sentyabrine shekem ruda úlgilerin bayıtıw boyınsha úsh basqıshlı texnologiyalıq izertlewler ótkerdi. Nátiyjeler temir rudalarınıń quramında 67% ten joqarı bolǵan konsentrat alıw menen temir rudaların bayıtıw imkaniyatın jáne bir márte tastıyıqladı. Izertlewler “SRK Consulting” xalıqaralıq kompaniyası (Kanada) tárepinen tańlanǵan 2,7 tonna muǵdardaǵı mineraldıń úlgisinde alıp barıldı.



2-súwret. Tebinbulaq titan-magnetitli ruda káni bazasında qurılatuǵın taw-metallurgiya kompleksiniń investproekti

Bul investiciya joybarın ámelge asırıw ushın dáslepki maǵlıwmatlardı tereń úyreniw, qárejetler hám paydalardıń analizi ámelge asırıldı. Joybardıń ekonomikalıq hám maqsetke muwapıqlıǵı bahalawǵa imkan berdi. Alınǵan nátiyjeler boyınsha qánigeler xalıqaralıq standartlarǵa muwapıq Bank texnikalıq-ekonomikalıq tiykarları islep shıǵıldı. Bul bolsa óz náwbetinde usı joybardı rawajlandırıwdıń keyingi

basqıshların ámelge asırıw ushın investiciyalardı tartıw ilajların islep shıǵıwǵa imkan beredi.

Aral teńizi xalqımızǵa qanday járdemler qılǵan bolsa, óz mashqalasınan keyin de xalqımızǵa járdem bermekte. Onıń qurǵaǵan akvatoriyasınan neft hám tábiyiy gaz kánleri tawılmaqta. Ózbekstannıń neft hám gaz kánlerin izlep tabıw ushın shólkemlestirilgen “Aral Sea Operating Company” transmilliy kompaniyası quramına kiriwshi Ózbekstannıń “Uzbekneftegaz”, Qıtaydıń “CNCP International”, Koreya Respublikasınıń “KNOC” hám Rossiyanıń “Lukoil” kompaniyalarınıń geologiyalıq izertlew maǵlıwmatlarına qaraǵanda Ózbekstannıń Aral akvatoriyasında 2 mlrd. tonna neft hám 2 trln. kubmetr tábiyiy gaz zapası barlıǵı boljanbaqta. Bul pútkil Orta Aziyanıń 31 % neft, 40% gaz zapasın quraydı.

Ústirt platosı hám Aral akvatoriyasında neft-gaz reursların izlep tabıw hám óndiriwde “Uzbekneftegaz” MXK menen Rossiyanıń “Gazprom”, “Lukoil”, Qıtaydıń “CNPC”, Qubla Koreyanıń “KNOC”, “Kogas” kompaniyaları birge jumıs alıp barmaqta.

Búgingi kúnde Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevtıń 2019-jıl 18-noyabrdegi “Neft hám gaz geologiya-izlew jumısların shólkemlestiriw hám alıp barıw sistemasın jetilistiriw is-ilajları haqqında”ǵı qararınıń orınlanıwın támiyinleniwin tarawında bir qatar jumıslar orınlanbaqta.

Geologlardıń usınıslarına tiykar, orınlardaǵı qánigeler menen birgelikte “Tómengi Súrgil” káni aymaǵındaǵı tómengi yura jatqızıqlarınıń neftgazlilik perspektivaların bahalaw ushın 5-sanlı qudıq 4305 metrge shekem burǵılaw tamamlandı hám qudıq kesiminde bir qansha perspektivalı qatlamlardıń bar ekenligi anıqlandı.

Qudıqtıń 4100–4305 metr tereńliktegi 200 metrden aslam aralıǵında alıp barılǵan isbilermenler nátiyjesinde kúnlik 700 mıń kub metr kólemde sanaat kólemindegi tábiyiy gaz aǵısların alıwǵa erisildi.

Bunnan tısqarı, “Tómengi Súrgil” káni aymaǵında náwbettegi 6-sanlı izlew qudıǵın burǵılawdı ámelge asırıw barısında tayarlıq jumısları baslap jiberiledi.

Usı jılda Úttirt regionında 16 qudıqta jumıslardı shólkemlestiriw, 47 mıń metrden aslam burǵılaw jumısların ámelge asırıw hámde usı qudıqlarda jıl juwmaǵı menen 10,0 mlrd. kub metr tábiyiy gaz hámde 300 mıń tonna gaz kondensatı qorların ósiriwdi támiyinlew kózde tutılǵan.

Ádebiyatlar

1. Матмуратов Ж., Юлдашев Ж. Қарақалпақстан АССРының суў ҳәм минерал байлықлары. – Нөкис.: Қарақалпақстан, 1973. – 112 б.

2. Саманов Ж., Курбаниязов К., Паллыбеков А, Ибрагимов Дж. Геология и полезные ископаемые Каракалпакии. Т.: 1972.

3. Умаров Е.К. Қарақалпақстанның экономикалық ҳәм социаллық географиясы. – Нөкис.: Қарақалпақстан, 2011. – 166 б.

ARAL TEŃIZI ATAMASÍNÍŃ KELIP SHÍǴÍWÍNA GEOGRAFIYALÍQ KÓZ QARAS

[1]Tulebayev S.S., [2]Ayapov E.A.

[1]Ájiniyaz atındaǵı NMPI Geografiya kafedrası stajyor oqıtıwshısı

[2]Ózbekstan mámleketlik kórkem-óner hám mádeniyat instutı Nókis filialı Regıstrator ofisi maǵlıwmatlar bazası menejeri

Aral hám Aral boyı haqqındaǵı dáslepki maǵlıwmatlar XVII–ásirge shekemgi bolǵan dáwirlerdi óz ishine alıp, dáslepki tariyxıy maǵlıwmatlar L.S.Berg, S.P.Tolstov H.Hasanov sıyaqlı bir qansha alımlardıń ilimiy dóretpelerinde keltirilip ótilgen. Ádebiyatlardaǵı maǵlıwmatlarda grek, arab hám jergilikli sayaxatshı alımlardıń aymaq haqqındaǵı kóz–qarasları (Aral teńiziniń ataması, geografiyalıq ornı, teńizge quyıwshı dáryalar hámde teńizge jaqın aymaqlar haqqında) keltirilgen.

Grek alımlarınıń Aral haqqında isenimli ilimiy maǵlıwmatları bolmaǵanlıǵı sebepli aymaq haqqında maǵlıwmatlardı boljawlar arqalı táriplegen. Klavdiy Ptolemeydiń «Almagest» atlı shıǵarmasınıń 22 kartasında Aral (kartada Oks kóli dep kórsetilgen) menen Káspiy teńizi súwretlengen bolıp Ámiwdárya. (Oks) nıń Káspiy

teńizine quyıp turǵanlıǵı kórsetilgen. Ptolemeydiń bul miyneti Batıs Evropalı kartograflar ushın XVIII ásirdiń basına shekem Orta Aziya haqqında tiykarǵı derek bolıp xızmet etken [1].

Aral haqqındaǵı anıǵıraq maǵlıwmatlar X ásirdegi arab geograflarınıń miynetlerinde kórinedi. Istaxriy óziniń dúzgen kartasında birinshi ret Ámiwdáryanıń Aral teńizine quyatuǵınlıǵın kórsetken.

Ibn Rusta Ámiwdáryanıń tómengi aǵımı hám Aral teńizi qırǵıqların birinshi márte tolıǵırıq úyrengen. Ol kóbirek Aral teńiziniń shıǵıs qırǵaqların durıs táriplegen. Arab geografları grek geograflarına qaraǵanda Aral teńizin jarıtıwda bir qansha anıq kóz qarasqa iye bolǵan.

Jerles alımlarımız esaplanǵan: Muhammed ibn Musa al-Xorezmiy, Abu Rayxan Beruniy, Mahmud Qashǵariy sıyaqlı ilimpazlardıń miynetlerinde Aral hám Aral boyı haqqındaǵı maǵlıwmatlardı kóriwimizge boladı. Atap aytqanda, Muhammed ibn Musa al-Xorezmiy Aral teńiziniń shetki noqtlarınıń koordinataların anıqlaǵan. Abu Rayxan Beruniydiń «Geodeziya» shıǵırmasında Aral kóliniń payda bolıwı tariyxı haqqında maǵlıwmat jazıp, Aral teńizi «Xorezm kóli» dep atap ótken [4].

XV – ásirde jasaǵan tariyıxshı alım Hafizi Abru «Juǵrafiya» hám «Zubat ut-tavorix» shıǵarmalarında, Aralǵa (Xorezm kóli) quyıwshı dáryalar Káspiy teńizine qaray quyıwı sebepli Aral teńiziniń (Xorezm kóli) qurıp qalǵanlıǵın jazadı [3].

1558-jılı Angliya dan Xorezmge sayaxatshı hám elshi sıpatında kelgen Antoniy Jenson Ámiwdáryanıń Aral teńizine quyıp turǵanlıǵın kóredi. Xiywa xanı Abulǵazi Baxadirxan «Tariyx» shıǵarmasındaózi tuwılǵan dáwiri (1603-jılı) nen 30 jıl aldın (1573-jılı) Ámiwdáryası Sarıqamıs kóline quymay, jańa ańǵar payda etip «Sır teńizi»ne quyǵanlıǵın hám ol birinshilerden bolıp, Ámiwdeltasın «aral» dep qollanıp, ol jerde jasawshı xalıqlardı arallılar dep jazǵan. Sol dáwirden baslap Ámiwdáryanıń quyar jeri aral dep atalıp, sońın ala teńizde usı atama menen atala baslaǵan.

Francuz geografı Delil 1723-jılı. dúzgen kartasında Aral batıǵında jaylasqan suw basseynin birinshi márte «Aral» dep ataǵan [2].

Teńizdiń «Aral» dep atalıwına, oǵan quyıwshı dáryalar deltalarında atawlardı payda etkenligi xámde 300 den artıq iri hám mayda atawlardıń bar ekenligi tiykar boladı.

Ámiwdáryanıń teńizge quyar bóliminde jasawshı xalıqlardı áyyemnen arallılar dep atap, kóldiń ataması usıǵan sáykes Aral dep atalǵan. Teńizdiń usılayınsha atalıwında onıń geologiyalıq procesler tásirinde payda etken relyef formaları sebepshi bolǵan. Ádebiyatlar menen tanısar ekenbiz, bul suwlı ortalıqtıń tariyxıy dáwirler ishinde bir neshe atamalar menen táriplengenligine gúwa bolamız.

1-keste

Aral teńiziniń tariyxıy dáwirlerdegi atamaları

№	Ilimpazlar	Dáwir	Ataması
1	Ptolomey	II	Oks kóli
2	Xıtay derekleri	II – IV	Arqa teńiz
3	Ammian Marcellin	IV	Oks batqaqlıǵı
4	Ibn Hurdodbek	IX-X	Kurdor kóli
5	Al – Masu'diy	X	Jurjoniya kóli
6	Abu Rayxan Beruniy	X	Xorezm kóli
7	Istaxriy	X	Xorezm kóli
8	Ibn Havqal	X	Kazviniy
9	Idrisiy	XII	Xorezm kóli
10	Bakron	XIII	Ljendt kóli
11	Xafazi	XIV	Abruda
12	Al – Vardiy	XIV	Xorezm kóli
13	Jenkinson	XVI	Xıtay kóli
14	Abulǵozi	XVII	Sir teńizi
15	Delil	XVIII	Aral

Maǵlıwmat L.S.Berg, H.Hasanov hám J.Úbbiniyazov shıǵarmaları tiykarında dúzildi.

Solay etip Aral teńizi haqqındaǵı dáslepki maǵlıwmatlarda: teńizdiń geografiyalıq jaylasqan ornı, ataması, oǵan quyıwshı dáryalar, átirapındaǵı geografiyalıq obyektler haqqında ulıwmalıq pikir hám túsiniklerge iye bolamız.

Ádebiyatlar

1. Берг Л С. Аральское море. Монография. 1908 г.

2. Бартолд В В. "Аральское море".

3. Уббиниязов Ж. «Түслик Аралда балық аўлаўшылық ҳәм балық санаатын раўажландырыўдың гейпара мәселелери». Нөкис. 1961 ж.

4. Уббинизов Ж., Қалқашов С., Бегдуллаев Е. «Мойнақ: кеше, бүгин хәм ертең». Нөкис. 1991 ж.

HUDUDLARNI RIVOJLANISHIDA AGRAR SOHA ULUSHI DINAMIKASINI TADQIQ QILISHNING STATISTIK USULI

Utanov B.K.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi, PhD

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng barcha sohalar qatori agrar soha (qishloq, o’rmon va baliqchilik xo‘jaligi nazarda tutilmoqda)ni rivojlantirish va uni yangi bosqichlarga olib chiqishning strategiyasini belgilab olindi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-iyunda “Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-273-sonli qarori kabi huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi mazkur tarmoqni rivojlantirishda ilmiy ishlanma va tavsiyalarni ishlab chiqishni taqazo qiladi. Mazkur ishlanmalar va takliflardan biri hududlarning iqtisodiyotida agrar sohaning ulushi orqali klassifikatsiyalarga ajratish samaralai hisoblanadi.

Ma’lumki, hududlarda YaHMda qishloq ho‘jaligi ulushi dinamikasini o‘rganishda O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga asoslanib, yillar bo‘yicha hududlarda qishloq ho‘jaligining ulushi haqidagi ma’lumotlar statistik jadval ko‘rinishida ifodalanadi. Jadvaldagi ma’lumotlardan foydalanib hududlarning YaHMlaridagi qishloq ho‘jaligi ulushi bo‘yicha respublikada tutgan o‘rinlarini aniqlash uchun ular sifat ko‘rsatkichlari bilan ifodalanuvchi uchta: yuqori, o‘rta va past darajadagi hududlar guruhlariga ajratilib, tabaqalab baho berilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning natijasida hududlarni

yillar bo‘yicha qaysi tabaqadagi guruhga tushishiga qarab ularning o‘zgarish holatiga baho berish imkoniyati yaratiladi.


Masalani yechishga bu kabi yondoshuv yillar kesimida hududlarni YaHMda qishloq ho‘jaligining ulushi bo‘yicha bir holatdan boshqa bir holatga: yuqori darajadan o‘rta yoki past darajaga, aksincha past darajadan o‘rta yoki yuqori darajaga o‘tishini kuzatish imkonini yaratadi.

Bizningcha, bunday tadqiqotni amalga oshirish uchun statistikaning kuzatish, variatsion va oraliq qatorlarni tuzish, variatsion va oraliq qatorlarda medianani aniqlash kabi usullaridan foydalanish samarali natijalarni beradi. Tuzilgan variatsion qatorda mediananing qiymati qatorni faqat teng ikki guruhga ya’ni, hududlarni YaHMdagi qishloq xo‘jaligi ulushi bo‘yicha yuqori va past darajadagi hududlarga ajratib beradi xolos. Bunday holatda biz ijobiy xulosa chiqara olmaymiz.

Respublikada hududlarning YaHMda qishloq ho‘jaligining ulushi bo‘yicha holati to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘lish uchun ma’lumotlarni oraliq qatorlariga ajratib, mediana oralig‘i aniqlaniladi va shu oraliqqa tushgan hududlarni o‘rtacha darajada deb hisoblab, mediana oralig‘iga nisbatan yuqori va past darajadagi hududlarni aniqlash ijobiy natija beradi. Bunda mediana oralig‘ining joylashuviga qarab hududlarning holatiga to‘g‘ri baho berilishi mumkin bo‘ladi.


1-jadval

2010-2023-yillarda respublika viloyatlarida yalpi hududiy mahsuloti tarkibida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘ining salmog‘i, foizda



Yuqorida O‘zbekiston Respublikasi YaIMda hamda respublikaning 13 ta viloyatida YaHMda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari ulushining 2010-2023-yillardagi holatini ifodalovchi ma’lumotlar keltirilgan (1-jadval).

Mazkur jadval ma’lumotlari yuqorida bayon etilgan yondoshuv asosida ularning tabaqalashuvi statistik tadqiqot natijalariga asoslanib amalga oshirilgan (1-rasm).



1-rasm. 2019-2023-yillarda respublika viloyatlarida yalpi hududiy mahsuloti tarkibida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘ining salmog‘ining dinamikasi

Statistik tahlil natijalariga asoslanib ta’kidlash mumkinki, qaralayotgan davrda respublikamiz hududlari orasida faqatgina Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy va Toshkent viloyatlari YaHM tarkibida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining salmog‘i past darajada.

Sirdaryo viloyatida 2019 yilda YaHM tarkibida qishloq, o‘rmon va baliqchilik ho‘jaligining ulushi yuqori darajada bo‘lgan bo‘lsa, 2020 va 2021 yillarda esa u o‘rta darajaga tushib qolganligini ko‘rishimiz mumkin. Farg‘ona viloyatida so‘ngi uch yil davomida YaHM tarkibida qishloq ho‘jaligining ulushi o‘rtacha darajada saqlanib qolgan. Respublikaning qolgan viloyatlarida esa holat yuqori darajani tashkil etadi.

Xulosa va takliflar. Ushbu natijalar respublika viloyatlarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmoqlarida sohani rivojlantirish bo‘yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ilmiy yondoshuvni amalga oshirishda yordam beradi. Bundan tashqari agrar sohani chuqurroq o’rganishda taklif etilayotgan klassifikator dasturidan keng foydalanib yerdan unumli foydalanish darajasini, hosildorlik bo’yicha, suvni tejash bo’yicha va shu kabi boshqa xussuiyatlarni o’rganishda muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. I.Habibullayev, B.Utanov. “Hududlar yalpi hududiy mahsulotida qishloq xo‘jaligi ulushi dinamikasini tadqiq qilishning statistik usuli”. “Statistikaning zamonaviy muammolari: nazariya, uslubiyot va amaliyot”. Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti. Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. Toshkent, 2022-yil, 26-noyabr. 179-180 b.
2. www.stat.uz – O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi sayti.

TARIYXÍY DÁWIRLERDEGI XALÍQTÍ ÚYRENIWDIŃ ILIMIY DEREKLERI

[1]Utepova G.B., [2]Turdımuratova A., [2]Tursınbaev A.

[1]Ájiniyaz atındaǵı NMPI Geografiya kafedrası docenti, g.i.k.

[2]Ájiniyaz atındaǵı NMPI Geografiya hám ekonomikalıq bilim tiykarları tálim baǵdarı 4-kurs studentleri

Insaniyat tariyxında suwǵarmalı diyxanshılıqtıń rawajlanıwı azıq-awqattıń kóbeyiwi, xalıqtıń materiallıq turmıs sharayatınıń biraz jaqsılanıwına alıp keldi. Jeke múlktiń payda bolıwı klasslıq jámiyetke tiykar saldı. Áyyemgi ulıwmalıq jámiyet dáwirinen keyin feodalistlik óndiris qatnasıqları qáliplese basladı. Jer júzinde mádeniyat orayları payda boldı, xalıqqa medicinalıq xızmet kórsetiw áste aqırın rawajlanıw jolına tústi. Júz bergen social-ekonomikalıq ózgerisler xalıq arasında ólim jaǵdaylarınıń kemeyiwine, ortasha ómir kóriw múddetiniń biraz uzayıwına sebepshi

boldı. Nátiyjede jer júzi xalqınıń sanı kóbeye basladı. «Áyyemgi Mısırda fraunlar dáwirinde 7 mln, Vaviloniyada bolsa 4-5 mln xalıq jasaǵanlıǵı bizge tariyxtan málim. Eramızdıń basında jer júzi xalqı 200-300 mlndı quraǵan hám olardıń 50 mlnı Rim imperiyasında jasaǵan. Xalıqtıń jáne 40-50 mlnı bolsa Qıtay hám Hindistan territoriyalarında jasaǵan. Arqa-Batıs Evropada bolsa xalıq júdá az -1 mln átirapında bolǵanlıǵı aytıladı»[3].

Jer júzinde adamnıń payda bolıwı hám tarqalıwı tuwralı ilimiy tartıslar elege shekem dawam etip kelmekte. Bul máselege eki túrli kóz-qaras bolıp, **birinshisi;** adamlardıń bir aymaqta yaǵnıy "homo sapiens" tiń bunnan 50 mıń jıllar aldın áyyemgi gominidlerden (Jer Orta teńiziniń shıǵıs bólimi, Qubla Evropa, Arqa hám Shıǵıs Afrika hám Batıs Aziyanı óz ishine alǵan úlken territoriyada) payda bolıp keyin ala jer júziniń hár qıylı kontinentlerine tarqalıp ketken **(monocentrizm**) degen pikirdi aytsa, **ekinshisi** adamlar jer júziniń bir neshe territoriyalarında (Afrika, Evropa, Aziyanıń bir neshe aymaqlarında) payda bolǵan **(policentrizm)** dep esaplaydı. Hárbir eki pikir ushında ózine tán dáliyller bar. Áyyemgi adamlardıń jasaw orınları (**oykumenalar**) barlıq kontinentlerden tabılǵan.

Jer júzine insaniyattıń tarqalıwı uzaq jıllar dawam etkenligi hám bul tarqalıwdıń quramalı geografiyalıq baǵdarlarǵa iye bolǵanlıǵın esapqa alatuǵın bolsaq, bul jóneliste dawamlı izertlewler alıp barıwdı dawam ettiriw máselesi turadı. Jer júzi xalqınıń áyyemgi jasaw orınlarınan tabılǵan buyımlarǵa qarap juwmaq shıǵaratuǵın bolsaq, adamlar jer júzine úzliksiz tarqalǵanlıǵına guwa bolamız.

Monocentrik teoriya boyınsha áyyemgi adamlar paleolit dáwiriniń aqırında Afrikadan Evropa hám Aziyaǵa onnan Bering buǵazı arqalı Amerikaǵa, Qubla - Shıǵıs Aziya arqalı Avstraliya hám Okeaniyaǵa tarqalǵan. Xalıqtıń tarqalıwı hám úzliksiz kóship júriwine tiykarınan qolay tábiyiy sharayat hám azıq - awqat táshwishi májbúr etken. Jer júzinde adamlardıń kóbeyiwi, azıq - awqat tabıwdıń jańa usılları adamlardıń ózlerine maqul kelgen aymaqlarda turaqlı jaylasıwına sebep bolǵan. Eger

[3] Народонаселение мира. М.: 1994. С.7

áyyemgi dáwirlerdegi adamlardıń kóship júriwine joqarıdaǵı kórsetilgen faktorlar sebep bolǵan bolsa, adamshılıq jámiyeti rawajlanıwınıń keyingi basqıshlarında jańasha kóz-qaraslar payda boldı.

Insaniyat tariyxınıń úlken dáwiri yaǵnıy neolit dáwirinen baslap xalıq sanı hám quramı dástúriy dep atalıwshı tip tásirinde qayta tolısqan. Xalıqtıń qayta tolısıwınıń bul tipi ekonomika hám oǵan tán sociallıq qatnasıqlar menen tikkeley baylanıslı edi. Bunda kóp balalı shańaraqlardıń sanın kóbeytiwge háreket etiw, ásirese xojalıq jumıslarında ákege járdem beriwshi ul perzentler hám olardıń sanınıń kóp bolıwına júdá itibar qaratılǵan. Ata-ana shańaraqta 3-4 perzentke iye bolmaqshı bolsa, onda hayal usı muǵdardan 2-3 ese kóp balanı dún'yaǵa keltiriw kerek bolǵan. Sebebi, náreste hám balalar óliminiń júdá joqarılıǵı tuwılǵan balalardıń yarımınan artıǵın joǵaltıwǵa alıp kelgen. Bir neshe mıń jıllar dawamında, ólim dárejesiniń júdá joqarılıǵı hám xalıqtıń ósiminiń tómen bolıwı ob'ektiv sebeplerden biri edi.

Jámiyette materiallıq hám sanitar-gigienik sharayatlardıń qanaatlandırarsız awhalda ekenligi, ásirese tez-tezden takrarlanıp turatuǵın ashlıq, tábiyiy apatlar hám hár qıylı epidemiyalar nátiyjesinde júz mıńlaǵan adamlardıń qırılıp ketiwi sıyaqlı faktorlar óziniń keri tásirin kórsetken. Jer sharında bunday apatlar 200-400, 1300-1400 jıllar dawamında qara oba epidemiyasınıń tásirinde planeta óz xalqınıń 1/4 bóleginen ajraldı hám xalıq sanı keskin kemeydi. XI-XV ácirlerde jerjúzi xalqınıń belgili bir bólegi monǵol-tatar, túrk urısları sebepli qırılıp ketken. Ásirese, bul urıslardan Shıǵıs hám Qubla-Shıǵıs Evropa mámleketleri xalqı úlken jábir kórdi. Urıslar xalıqtıń tikkeley qırılıp ketiwine ǵana emes, ondaǵı óndiristiń toqtap qalıwı nátiyjesinde payda bolǵan asharshılıq sebepli kóplegen insanlar nabıt boldı. 1600-1650 jıllar aralıǵında xalıq sanı ulıwma óspedi. Xalıqtıń kórsetkishlerine uzaq dawam etken urıslar da júdá jaman tásir etti. XVIII ásirdegi urıslar 5,2 mln adamnıń ómirin alıp ketti. Eger dáslepki 500 jılda (1000-1500 jıllar) Jer júzi xalqı 135 millionga kóbeygen bolsa, 1500-1750 jıllarda, yaǵnıy 250 jılda bul kórsetkish 288

milliondı quradı, yaǵnıy xalıqtıń ósimi 2 esege kóbeydi. XVIII ásirdiń ekinshi yarımınan baslap xalıqtıń ósimi jáne de tezlesti.

XIX ásirge shekem bolǵan dáwirde demografiyalıq processlerde sapalı ózgerisler júz bermegen. Bunnan keyingi dáwirde xalıqtıń tábiyiy háreket kórsetkishlerinde ***"demografiyalıq ótiw"*** processi baslandı. Onda shańaraqtaǵı wazıypalardıń hám turmıs tárizińiń unamlı tárepke ózgeriwi, xalıqtıń jas quramındaǵı alǵa ilgerlewler hám basqa da faktorlar menen baylanıslı boldı.

Ilimpazlar demografiyalıq ótiw processiniń izbe-izligin tórt basqıshta úyrenip ilimiy jaqtan dáliyllep bergen.

- tuwılıwdıń joqarı dárejede saqlanıwı hám ólimniń keskin qısqarıwı nátiyjesinde júzege keliwshi júdá joqarı dárejedegi tábiyiy ósim;

- kóp balalı shańaraqtan az balalı shańaraqqa ótiw, ólimniń qısqarıwı, tuwılıwdıń bolsa kemeyiwi nátiyjesinde tábiyiy ósimniń páseyiwi;

- xalıqtıń quramında qariyalar sanınıń artıwı hámde tuwılıwdıń páseyiwi nátiyjesinde ólim kórsetkishleri birqansha joqarılawı. Bul basqıshta xalıq sanı júdá az muǵdarda ósiwi;

- tuwılıw hám ólim kórsetkishleri teńlesedi yaǵnıy xalıqtıń ósiwi toqtaydı.

Demografiyalıq ótiw dáwiri dáslep Evropada XVIII ásirde baslanadı. Bunda tabiyiy ósim 20-30%ke teń boldı, bunı haqıyqattan da demografiyalıq revolyuciya dep ataw mumkin. Sebebi, 10-20 jıl aldın tekǵana 5-10% ke teń bolǵan tábiyiy ósim qısqa waqıt ishinde 2-3 esge arttı. Bul jaǵday Evropa regionında 100-150 jıl dawam etti. Onnan keyingi dáwirde Evropa mámleketleri demografiyalıq ótiwdiń ekinshi basqıshına ótti. Házir bul mámleketlerdiń kópshiligi demografiyalıq ótiwdiń úshinshi basqıshında, yaǵnıy, Germaniya, Avstriya, Belgiya, Italiya, Daniya, Vengriya, Niderlandiya xalıqtıń ápiwayı qayta tolısıwın támiyinley almay atırǵanlıǵı ashınarlı jaǵday, yamasa ólgenlerdiń sanı tuwılǵan balalar sanınan kóp bolmaqta. Rawajlanıp atırǵan mámleketlerdiń kópshiligi demografiyalıq ótiw processiniń 1-basqıshınan orın alǵan.

AQSH, Yaponiya, Kanada, Avstraliya mámleketleri 2-basqıshtı basınan keshirmekte. Qıtay hám basqa da bir qatar mámleketler usı 2-basqısh qarsańında tur. Ózbekstan hám basqa da Oraylıq Aziya mámleketleri 2-basqısh talaplarına juwap bermekte.

Ádebiyatlar

1. Абдураҳмонов Қ.Х. ва бошқалар Демография. Дарслик - Т.: «Иқтисодиёт», 2014.

2. Боярский А.Я., Валентей Д.И., Кваша А.Я. Основы демографии. – М.: Статистика, 1980.

3. Бўриева М.Р, Эгамова Д.Н. Дунё аҳолиси: Ривожланиш жараёнлари (ўқув қўлланма). Т.: Фан, 2008.

QORAQALPOG‘ISTONDA MAKTAB TA’LIMINING HUDUDIY RIVOJLANISHI

[1]Uzakbaev K.K., [2]Safarboyeva Z.U.

[1]Ajiniyoz nomidagi NDPI Geografiya kafedrasi dotsenti v.b., g.f.b.f.d. (PhD)

[2] Ajiniyoz nomidagi NDPI Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi (geografiya) mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. *Maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasida maktab ta’lim tizimining tashkillashtirilishi, hududiy joylashuv xususiyatlari ochib berilgan.*

Tayanch so‘zlar: aholiga xizmat ko‘rsatish, maktabgacha ta’lim, bolalar soni, maktabgacha ta’lim tashkilotlari, xizmat ko‘rsatish radiusi, shaharsozlik normalari va qoidalari.

Abstract. *The article describes the organization and distribution of the school education system in the Republic of Karakalpakstan.*

Key words: public services, preschool education, number of children, preschool educational organizations, service radius, urban planning norms and rules

Аннотация. *В статье раскрыта организация системы школьного образования в Республике Каракалпакстан, особенности территориального размещения.*

Ключевые слова: обслуживания населения, дошкольное образование, количество детей, дошкольные образовательные организации, радиус обслуживания, градостроительные нормы и правила

Kirish. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 5-moddasida “Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar, har kimga ta’lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi”, deyilgan [1].

2023–2024-o‘quv yili boshida Qoraqalpog‘istonda 752 ta umumta’lim muassasalari (3 tasi nodavlat, Nukus shahrida 1 ta, Nukus tumanida 1 ta va To‘rtko‘l tumanida 1 ta) faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, ularning umumiy soni oldingi o‘quv yiliga nisbatan 6 taga ko‘paygan. Mustaqillikning dastlabki yillarida, aniqrog‘i 1990–1991-o‘quv yilida respublikada umumta’lim muassasalari soni 692 ta bo‘lgan. Demak, o‘tgan 33 yil mobaynida ularning soni 60 taga, yoki yiliga deyarli 2 taga ko‘paygan.

Asosiy qism. Eng ko‘p umumta’lim muassasalari Amudaryo (86 ta), Ellikqal’a (75 ta), Beruniy (72 ta) va To‘rtko‘l (69 ta) tumanlarida joylashgan. Poytaxt Nukus shahrida ularning soni 64 ta. Qo‘ng‘irotda 50 ta, Chimboy tumanida esa 49 ta umumta’lim muassasalari faoliyat yuritgan. Bo‘zatov tumanida 15 ta, Mo‘ynoq tumanida esa ularning soni 18 tani tashkil etadi (1-jadval).

Tahlil qilinayotgan o‘quv yilida Qoraqalpog‘iston umumta’lim maktablarining 17,7 % i bir smenada, 81,9 % i ikki smenada va 0,4 % uch smenada faoliyat olib borgan.

Respublikada umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o‘quvchilar soni 326,5 ming nafarni tashkil qilgan holda, bitta maktabga o‘rta hisobda 438 ta o‘quvchi to‘g‘ri kelgan. Ayni paytda, Nukus shahri maktablarida 64,6 mingta o‘quvchilar bo‘lib, shaharda bitta maktabga o‘rtacha 1009 ta o‘quvchi to‘g‘ri keladi.

Shu bilan birga, Beruniy, Qo‘ng‘irot, Taxiatosh, To‘rtko‘l va Xo‘jayli tumanlarida har umumiy o‘rta ta’lim tashkilotiga o‘rtacha 500 nafardan ortiq o‘quvchi mos keladi. Bo‘zatov va Shumanay tumanlarida 200-235 o‘quvchidan to‘g‘ri keladi. Nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida jami 358 ta o‘quvchi tahsil olgan.

1-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasida umumta’lim muassasalarining soni (o‘quv yili boshiga, birlik)

	2010/ 2011	***2020/ 2021***	***2021/ 2022***	***2022/ 2023***	***2023/ 2024***
Qoraqalpog‘iston	**754**	**733**	**734**	**746**	**752**
Nukus sh.	51	58	58	60	64
tumanlar:					
Amudaryo	88	87	86	86	86
Beruniy	67	72	72	72	72
Bo‘zatov		15	15	15	15
Ellikqal’a	72	73	73	73	75
Kegeyli	55	38	38	39	39
Mo‘ynoq	19	17	18	18	18
Nukus	32	31	32	33	33
Qonliko‘l	24	23	23	24	24
Qorao‘zak	32	33	33	33	33
Qo‘ng‘irot	57	49	49	50	50
Taxiatosh	10	22	22	23	23
Taxtako‘pir	24	23	23	24	24
To‘rtko‘l	63	67	67	69	69
Xo‘jayli	71	44	44	44	45
Shumanay	31	33	33	34	33
Chimboy	58	48	48	49	49

Jadval Qoraqalpog‘iston Respublikasi Statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.


Umumiy o‘rta ta’lim tizimi haqli ravishda ta’lim turlarining eng ommaviysi hisoblanadi. Shu bois, uning miqdoriy va sifat ko‘o‘rsatkichlariga alohida e’tibor qaratiladi. Umumta’lim muassasalari faoliyatining sifat jihatlariga ularning sig‘im darajasi katta ta’sir ko‘rsatadi. Bu holatni maktablarning sig‘im koeffitsiyenti, ya’ni ta’lim olayotgan o‘quvchilarning ulardagi o‘quvchi o‘rinlariga nisbati yaxshi aks ettiradi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining rasmiy ma’lumotlariga binoan, mintaqada 2023–2024-o‘quv yili boshi holatiga ko‘ra,

jami maktablarning salkam 48 foizida sig‘im koeffitsiyenti 1,0 ga yetmagan, jumladan, 25,2 foiz maktablarda bu ko‘rsatkich 0,7 dan past. Ayni damda, 27 foiz maktablarda sig‘im koeffitsiyenti 1,1-1,4 oralig‘ida, 17,7 foiz maktablarda – 1,5-1,9 oralig‘ida, 7,3 foiz maktablarda esa bu ko‘rsatkich 2,0 va undan kattadir. Ta’kidlash lozimki, sig‘im koeffitsiyentining yuqoriligi, bir tomondan, tegishli maktabning aholi orasida yuqori baholanayotganligi va u yerda farzandlari ta’lim olish istagini bildirayotgan ota-onalarning ko‘pligini ifoda etsa, boshqa tomondan, muassasa infratuzilmasining barqarorligi, pedagog kadrlar bilan ta’minlanishi va, ohirgi oqibatda, ta’lim jarayonining sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Hududlar kesimida qaralganda, ko‘rilayotgan vaziyat, albatta, bir xil emas. Xususan, sig‘im koeefitsienti 1,0 dan oshmagan maktablar Bo‘zatov, Qorao‘zak va Taxtako‘pir tumanlarida jami maktablarning 86-96 foizini tashkil etadi, xattoki Taxtako‘pir tumanida 74 foiz maktabda sig‘im koeffitsiyenti 0,7 dan pastdir. Bu holat, albatta, respublika shimoliy tumanlarining qishloq joylaridagi aholi soni kamligi va uning sust darajadagi dinamikasi bilan izohlanadi. Sig‘im koeffitsiyenti 1,0 va undan past darajada bo‘lgan maktablar, shuningdek, Shumanay (75 %), Mo‘ynoq (70,6 %), Qonliko‘l (69,6 %), Taxiatosh (63,6 %), Kegeyli (63,2 %), Chimboy (62,5 %), Nukus tumani (58,1 %), Xo‘jayli (52,3 %) tumanlarida jami maktablarning 50-75 foiz qismini tashkil etadi. Amudaryo, Beruniy, Ellikqal’a, To‘rtko‘l va Qo‘ng‘irot tumanlarida sig‘im koeffitsiyenti yuqori bo‘lgan maktablar ancha ko‘p. Jumladan, sig‘im koeffitsiyenti 1,1-1,4 oralig‘ida bo‘lgan maktablarning ulushi Qo‘ng‘irotda 26,5 %, Ellikqal’ada 31 %, To‘rtko‘lda 32,8 %, Amudaryo tumanida esa 42,4 % ga teng. 1,5-1,9 koeffitsiyentli sig‘iga ega bo‘lgan maktablar ulushi Amudaryoda 22,4 %, Beruniyda 25,4 %, Qo‘ng‘irotda 22,4 %, Ellikqal’ada 26,8 %, To‘rtko‘lda esa 28,4 % ga teng. Sig‘imi o‘rnatilgan quvvatidan 2 barobar va undan ortiq darajada ko‘p bo‘lgan maktablar ulushi Beruniyda 11,7 %, Ellikqal’ada 12,7 %, To‘rtko‘lda esa 14,9 % ni tashkil etadi. Nukus shahrida esa 16,4 foiz maktabda sig‘im koeffitsiyenti 1,0 dan ortmaydi, 43,6 foiz maktablarda 1,1-1,4 oralig‘ida, 21,8 foiz maktablarda 1,5-1,9 oralig‘ida, 18,2 foiz maktablarda esa 2,0 va

undan yuqori qiymatlarga ega. Demak, aholi soni va zichligi birmuncha yuqori bo‘lgan janubiy tumanlar hamda Nukus shahrida ko‘plab maktablarning sig‘imi juda yuqori ko‘rsatkichlarga ega va bu holat tegishli hududlarda yangi maktab binolarini qurishni, o‘quvchi o‘rinlarini keskin ko‘paytirishni taqozo etadi.

Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o‘quvchilar sonining o‘qitiladigan tillar bo‘yicha taqsimlanishida vaziyat quyidagicha: Jami o‘quvchilarning 35,6 % (129,2 ming nafar) qoraqalpoq tilida, 43,5 % (157,9 ming nafar) o‘zbek tilida, 12,6 % (45,9 ming nafar) rus tilida, 5,4 % (19,7 ming nafar) qozoq tilida va 2,9 % (10,6 ming nafar) turkman tilida tahsil olgan (1-rasm).



1-rasm. Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o‘quvchilar sonining o‘qitiladigan tillar bo‘yicha taqsimlanishi (jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun maktab va sinflarning o‘quvchilarisiz, 2023–2024-o‘quv yili boshiga, foizda)

Rasm Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Amudaryo, Beruniy, To‘rtko‘l va Ellikqal’a tumanlarida o‘zbek sinflarida tahsil oladigan o‘quvchilar ulushi boshqa tillarda ta’lim oluvchilar ulushiga nisbatan ancha katta. Taxiatosh tumanida ham o‘zbek tili umumta’lim tizimida eng keng tarqalgan ta’lim tili hisoblanadi. Xo‘jayli va Qo‘ng‘irotda qoraqalpoq tilida tahsil oluvchilar son jihatdan birmuncha darajada ustunlikka ega bo‘lsa, qolgan barcha

tumanlarda hamda Nukus shahrida qoraqalpoq tilida ta’lim oluvchi o‘quvchilar ulushi katta ustunlikka ega. Bunday tafovutlar, umuman olganda, ma’muriy birliklar aholisining etnik tarkibi bilan hamohangdir.

Boshqa ta’lim tillaridan rus tilida ta’lim oluvchilar soni, asosan, Nukus shahri, Xo‘jayli, Qo‘ng‘irot, Chimboy va Taxiatoshda, qozoq tilida o‘qiydiganlar soni Qo‘ng‘irot, Beruniy, Taxtako‘pir, Xo‘jayli, Mo‘ynoq, Taxiatosh tumanlari va Nukus shahrida, turkman tilida tahsil oluvchi o‘quvchilar soni esa To‘rtko‘l tumanida eng ko‘pdir.

Ko‘rilayotgan o‘quv yilida o‘quvchilarga 38,2 ming o‘qituvchilar saboq berishgan. Nodavlat umumta’lim tashkilotlarida 23 nafar o‘qituvchi faoliyat olib borgan. Jami o‘qituvchilarning 93,7 % (35,7 mingtasi) oliy ma’lumotli. Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilarning (o‘rindoshlarsiz) 73,9 % ayollar tashkil qiladi.

Xulosa. O‘zbekiston Respublikasi shaharsozlik normalari va qoidalari bo‘yicha qishloq joylarda boshlang‘ich maktablar 30 daqiqa ichida piyoda yetib olish mumkin bo‘lgan joyda, (imkon qadar bolalar bog‘chalari-yaslilari bilan birga), 500-750 metr oraliqda, asosiy maktablar 30 daqiqa ichida transportda yetib olish mumkin bo‘lgan joyda, 750-2000 metr oraliqda joylashtirish nazarda tutilgan.

Bizning tahlillar bo‘yicha Amudaryo tumanidagi Qilichboy OFY da joylashgan maktablarning o‘rtacha xizmat ko‘rsatish radiusi 1,9 km, Taxiatosh tumani Keneges OFY da joylashgan maktablarning o‘rtacha xizmat ko‘rsatish radiusi 3,2 km, Bo‘zatov tumani Erkindaryo OFY da joylashgan maktablarning o‘rtacha xizmat ko‘rsatish radiusi 4,2 km, Kegeyli tumani Ko‘ko‘zak OFY da joylashgan maktablarning o‘rtacha xizmat ko‘rsatish radiusi 8,0 km ni tashkil etgan. Bu tahlillardan ma’lumki, o‘quvchilarning maktabga qatnash masofasi ko‘rsatilgan normalardan ancha yuqori.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. (2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son).

2. ШНК 2.07.04-2019 Қишлоқ хўжалиги корхоналари ҳудудларини меъморий режалаштириш ва ташкил қилиш / Ўзбекистон Республикаси Қурилиш вазирлиги. Тошкент ш. 2020 й.
3. Qurbonov Sh.B., Uzakbaev K.K., Atabayev A.A. Qoraqalpog‘iston Respublikasida aholiga xizmat ko‘rsatish sohalarini hududiy tashkil etish masalalari / Fan va jamiyat» jurnali. Nukus., 2024. B. 39-42.
4. Узакбаев К. К. АҲОЛИГА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАЛАРИНИ ҲУДУДИЙ ТАШКИЛЛАШТИРИШ //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 14. – С. 233-240.

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ AHOLI PUNKTLARIGA UMUMIY TAHLIL

[1]Uzakbaev K.K., [2]Saliyev E.P.

[1]Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Geografiya kafedrasi dotsenti v.b., g.f.f.d. (PhD)

[2]Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Geografiya kafedrasi assistent o‘qituvchisi

Kirish. Ma’lumki, aholi joylanishi o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoit, tabiiy omillar va tarixiy rivojlanish asosida ro‘y beradi. Qoraqalpog‘iston qishloq aholisining joylanishida ushbu omillarning barchasi bevosita ta’sir etsada, tabiiy omilning ahamiyatini yuqori deb baholash mumkin [70; 139-b.].

Qoraqalpog‘istonda qishloq aholi punktlari juda notekis joylashgan, uning asosiy qismi Amudaryo deltasida, dehqonchilik maqsadida foydalaniladigan yerlarga to‘g‘ri keladi. Respublikaning katta qismini egallab yotgan Ustyurt platosi, Qizilqum cho‘li va Orol dengizining qurigan qismi – Orolqum cho‘lida esa deyarli doimiy aholi manzilgohlari mavjud emas. Ushbu hududlarda aholi faqatgina magistral temir yo‘l va qazilma konlariga yaqin hududlarda, shuningdek, qisman cho‘llarda mavsumiy chorvodorlar yashaydilar.

Asosiy qism. Qoraqalpog‘istonda, 01.01.2024-yil holatiga ko‘ra, 1126 ta qishloq aholi punktlari mavjud bo‘lib, ularning har biriga o‘rtacha 909,8 kishidan aholi to‘g‘ri keladi. Mavjud 1126 ta qishloq aholi punktining 47,1 foizini, ya’ni 530 tasini, aholisi 500 kishigacha bo‘lgan qishloqlar tashkil qiladi. Ularda jami 141205 kishi istiqomat qilgan holda, mazkur guruhdagi har bir qishloqqa o‘rtacha 266 kishidan aholi mos keladi. Aholisi 500-1000 kishi bo‘lgan guruhdan 264 ta qishloq joy olgan bo‘lib, ularda jami respublika qishloq aholisining 18,3 foizi istiqomat qiladi. Shuningdek, uchinchi (1000-1500 kishi) guruhda 123 ta, to‘rtinchi guruhda 75 ta, beshinchi guruhda 79 ta qishloqlar mavjud. Aholisi 3000-5000 kishilik bo‘lgan qishloqlar Qoraqalpog‘istonda 47 tani tashkil qiladi. Eng katta aholisi 5000 dan ortiq bo‘lgan qishloqlar 8 taga teng bo‘lib, ularda jami 46605 kishi yashaydi. Mazkur guruhdagi har bir qishloqqa o‘rta hisobda 5826 aholi to‘g‘ri keladi (1-jadval).

1-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasi qishloq aholi punktlarining tarkibiy tuzilishi (01.01.2024-y.)

QAP	QAP		Aholisi	
	soni	foizda	ming kishi	foizda
Jami	1126	100,0	1024473	100,0
Shu jumladan, aholi soni bo‘yicha				
500 kishigacha	530	47,1	141205	13,8
500-1000 kishi	264	23,4	187140	18,3
1000-1500 kishi	123	10,9	150194	14,7
1500-2000 kishi	75	6,7	131424	12,8
2000-3000 kishi	79	7,0	191750	18,7
3000-5000 kishi	47	4,2	176155	17,2
5000 kishi va undan ortiq	8	0,7	46605	4,5

Jadval Qoraqalpog‘iston Respublikasi Statistika bosh boshqarmasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Qishloqlarning katta-kichikligi bo‘yicha respublika o‘ziga xos tafovutlarga ega. Kegeyli, Qorao‘zak, Chimboy, Shumanay va Taxtako‘pir tumanlarida asosan mayda, aholisi 500 kishigacha bo‘lgan qishloqlar katta ustunlikka ega. Masalan, Kegeyli

tumanida jami 130 ta qishloqdan 105 tasi, Chimboyda 115 tadan 85 tasi, Qorao‘zakda 97 tadan 77 tasi, Shumanayda 104 tadan 73 tasi mayda qishloqlardan iborat.

2-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasi qishloq tumanlarida qishloq aholi punktlarining aholi soni bo‘yicha guruhlanishi

(01.01.2024-yil holatiga)

	jami qishloq aholi punktlari soni	500 kishigacha	500-1000 gacha	1000-1500	1500-2000	2000-3000	3000-5000	5000 dan ko‘p
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	**1126**	**530**	**264**	**123**	**75**	**79**	**47**	**8**
Amudaryo	129	37	34	20	14	17	7	-
Beruniy	68	8	13	13	7	11	13	3
Bo‘zatov	25	15	6	-	2	2	-	-
Ellikqal’a	91	9	18	22	12	19	10	1
Kegeyli	130	105	22	3	-	-	-	-
Mo‘ynoq	23	11	4	5	3	-	-	-
Nukus	43	13	16	9	3		1	1
Qonliko‘l	38	13	12	6	3	1	2	1
Qorao‘zak	97	77	15	3	1	1	-	-
Qo‘ng‘irot	43	12	12	5	7	5	2	-
Taxiatosh	30	10	14	4	2	-	-	-
Taxtako‘pir	39	22	11	2	4	-	-	-
To‘rtko‘l	88	15	18	15	9	20	9	2
Xo‘jayli	63	25	23	6	6	3	-	-
Shumanay	104	73	25	5	1	-	-	-
Chimboy	115	85	21	5	1	-	3	-

Jadval QR Statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki, Kegeyli tumanida aholisi 1500 va undan ortiq bo‘lgan qishloqning o‘zi yo‘q. Taxtako‘pir va Shumanayda esa 2000 ming va undan ortiq aholiga ega qishloq mavjud emas. Tabiiyki, bu yerdagi qishloqlar, mavjud ekologik, iqtisodiy geografik vaziyat tufayli, aholisi soni jihatidan kichik qishloq (ovullar)dan iborat. Shu bilan birga, bunday qishloqlar aholisining

kamligi ayniqsa mazkur tumanlarning cho‘llik xususiyatini o‘zida aks ettiradi. Ta’kidlash joizki, qishloq aholi manzilgohlarining katta-kichikligi unda yashovchilar uchun qulay shart-sharoitni barpo etishda yaqqol ifodalanadi. Bunday aholi punktlarida ta’lim va tibbiyot, savdo va servis sohalarini rivojlantirish ancha qiyin. Kichik aholiga ega bo‘lgan qishloqlarda maktab yoki sog‘liqni saqlash tizimlarining boshlang‘ich bosqichlarini tashkil etish mumkin, xolos. Ayni vaqtda, mayda va tarqoq, bir-biridan ancha olisda joylashgan qishloqlarda transport xizmatini yaxshilash ham muammolidir.

Aholining o‘sishi va uning tabiiy, mexanik harakati natijasida joylarning demografik sig‘imi o‘zgarib boradi va bu, eng avvalo, zichlik ko‘rsatkichlarida o‘z aksini topadi. Ma’lumki, aholi azaldan tabiiy sharoiti qulay, obikor dehqonchilik rivojlangan joylarda zich yashab kelgan. Aholi joylanishi va zichligiga turli omillar ta’sir etadi. Bunda iqtisodiy omilning roli juda yuqori bo‘lib, ya’ni ishlab chiqarishda ishtirok etuvchilar va ishlab chiqarishning o‘zining joylanishi muhimdir [29; 55-b.].

Qishloqlar joylashuvi to‘g‘risidagi eng umumiy, batafsil tasavvurni aholi puktlarining o‘rtacha zichlik ko‘rsatkichi beradi [44; 15-b.]. Qishloqlar orasidagi o‘rtacha masofa va zichlik ko‘rsatkichi Qoraqalpog‘istondagi mavjud barcha qishloq aholi manzilgohlari bo‘yicha turlicha. Qoraqalpog‘istonda har 1000 kv. kmga 6,8 ta qishloq mos keladi. Mazkur vaziyat tumanlar darajasida juda katta farqlarga ega. Masalan, 1000 kv km hududga Taxiatoshda 166,7, Kegeylida 141,3, Shumanayda 133,3, Amudaryoda 126,5, Xo‘jaylida 114,5 to‘g‘ri kelgan holda, Qo‘ng‘irot va Mo‘ynoqda 0,6, Taxtako‘pir tumanida 1,8 qishloq to‘g‘ri kelgan.

Xulosa. Umuman olganda, “.. qishloq manzilgohlarining vujudga kelishi, tarkibiy va hududiy tuzilishi hamda rivojlanish qonuniyatlarini muntazam o‘rganib borish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Bu, eng avvalo, qishloq aholisining kundalik turmush sharoitlarini yaxshilashga xizmat qiluvchi madaniy-maishiy (ijtimoiy) va ishlab chiqarish infrastrukturasi elementlari tizimini barpo qilishda ko‘zga tashlanadi” [70; 65-b.].

QORAQALPOG‘ISTONDA TIBBIY MUASSASALAR TARMOG‘INING RIVOJLANISHI VA HUDUDIY TASHKIL ETILISHI

[1]Uzakbaev K.K., [2]Turg‘anbaev D.N.

[1]Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Geografiya kafedrasi dotsenti v.b., g.f.f.d. (PhD)

[2]Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya*. Tezisda Qoraqalpog'iston Respublikasida aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish sohasini hududiy tashkil etish ko‘rib chiqilgan. Statistik ma’lumotlar asosida shifoxona muassasalarining soni va dinamikasi kabi ko‘rsatkichlar tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *aholi, ijtimoiy soha xizmat ko‘rsatish sohasi, tibbiy xizmat, hududiy tashkil etish, kasalxonalar.*

Аннотация. *В тезисе рассматривается территориальная организация сферы медицинского обслуживания населения в Республике Каракалпакстан. На основе статистических данных были проанализированы такие показатели, как количество и динамика.*

Ключевые слова: *население, социальная сфера, сфера услуг, медицинское обслуживание, территориальная организация, больницы.*

Abstact. *Territorial organization of medical services to the population in the Republic of Karakalpakstan is considered in the article. On the basis of statistical data, such indicators as the number and dynamics of hospital facilities analyzed.*

Key words: *population, social sphere, service sector, medical service, territorial organization, hospitals.*

Kirish. Aholining kundalik turmushi va mehnat faoliyati bevosita uning sog‘ligi bilan bog‘liq. Bu esa mamlakatimizda sog‘liqni saqlash tizimining faoliyati, davlat tomonidan bu sohaga qaratilgan siyosatda o‘z aksini topgan. Shu bilan birga,

aholining o‘rtacha umr ko‘rish darajasi har qanday mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligini ko‘rsatuvchi asosiy indikatorlardan biri hisoblanadi. Bu esa, bevosita aholiga **tibbiy xizmat** ko‘rsatishning miqdor va sifat jihatidan to‘g‘ri hududiy tashkil etilganligi bilan bog‘liq.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida aholi sog‘lig‘iga alohida e’tiborni kuchaytirish o‘ta dolzarbdir. Bu esa sog‘liqni saqlash sohasining hududiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etish muammolarini hal etishni ham zarur qilib qo‘yadi. Sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, ayniqsa qishloq joylarda tibbiyot muassasalarini to‘g‘ri tashkil etish, aholi salomatligi kabi masalalarga e’tibor qaratish ijtimoiy infratuzilma tarkibida ushbu sohaning rivojlanayotganligidan dalolat beradi. Bugungi kunda mamlakat qishloq joylarida sog‘liqni saqlash tizimini yaxshilash va xizmat ko‘rsatish darajasini faollashtirish uchun barcha sharoitlar mavjud.

Asosiy qism. Aholiga tibbiy xizmatlarini ko‘rsatadigan muassasalar tarmog‘ining hududiy tashkil etilishi xizmat ko‘rsatishning boshqa obyektlari singari aholi manzilgohlarining katta-kichikligiga qarab pog‘onasimon tarzda shakllanadi. Bunda, bir tomondan, aholining turli tibbiy xizmat turlariga bo‘lgan talabning miqdori, ikkinchi tomondan, o‘sha talabni doimiy ravishda qondirishga xizmat qiladigan davolash-profilaktika infratuzilmasini munosib darajada tashkil etishning obyektiv imkoniyatlar (birinchi navbatda, yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlash borasidagi imkoniyatlar) o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Shu bois, tabiiy xolki, ko‘pgina tibbiy xizmat turlari yirik shaharlarda mujassamlashgan bo‘ladi, kichikroq pog‘onalardagi aholi manzilgohlarida esa tibbiy xizmatlarning ko‘lami nisbatan kichik va standartlashtirilgan ko‘rinishga ega bo‘ladi. Ta’kidlash joizki, qishloq aholi manzilgohlari aholisiga tibbiy xizmat ko‘rsatish ko‘lami va sifati undan foydalanuvchilar miqdori bilan bevosita aloqador. Aholining turmush sharoiti, bilim saviyasining o‘sib borishi, uning o‘z sog‘lig‘iga e’tiborni yanada kuchayishidagi muhim omildir. Shu boisdan ham tibbiy xizmatga murojaat qiluvchilar sonining

yildan-yilga ortib borishi bejiz emas. Bundan tashqari, tibbiy sohaning yaxshi yo‘lga qo‘yilganligi o‘sha hudud aholisi salomatligi yaxshilanishiga xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda birlamchi tibbiy muassasalar sifatida oilaviy shifokor punkti (2021-yilgacha – qishloq vrachlik punkti) va oilaviy poliklinikalar xizmat qiladi. Bu toifadagi tibbiyot muassasalari barcha qishloq tumanlarida mavjud bo‘lib, QFY markazlari, yirik qishloqlar va shaharchalarda joylashgan bo‘ladi. Tumanlarning ma’muriy markazlarida esa tuman ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikalar, markaziy shifoxonalar, ayrim hollarda esa tug‘ruq komplekslari, ixtisoslashtirilgan shifoxona va dispanserlar faoliyat ko‘rsatadi. Viloyat markazlari va, ayniqsa, mamlakat poytaxti tor ixtisoslashgan tibbiy muassasalarning keng tarmog‘ining faoliyat ko‘rsatishi bilan boshqa toifadagi manzilgohlaridan alohida ajralib turadi.

Qishloq joylar aholisi ko‘p hollarda o‘zining tibbiy xizmatlarga mavjud bo‘lgan ehtiyojlarini tuman va viloyat markazlari yoki mamlakat poytaxtidagi tibbiy muassasalar yordamida qondiradi. Biroq, muayyan vaziyatlarda qishloq aholisi birlamchi tibbiy xizmat ko‘rsatish maskanlari xizmatlaridan ham foydalanadi. Mahalliy aholiga qulaylik yaratish nuqtai nazaridan, har bir QFY hududida kamida bittadan oilaviy shifokor punkti mavjud bo‘lishi maqsadga muvofiq. Bunda QFY aholi soni, ya’ni xizmat ko‘rsatish radiusi, aholi punktlari zichligi (ular orasidagi masofa), QVPning xizmat ko‘rsatish quvvati, transport infratuzilmasining rivojlanganlik darajasini hisobga olinishi maqsadga muvofiq.

Qoraqalpog‘istonda, 2023-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, 66 ta shifoxona muassasasi mavjud bo‘lib, ulardan 26 tasi kichik tadbirkorlik subyekti sifatida faoliyat yuritadi. Aytish joizki, Qoraqalpog‘istondagi shifoxona muassasalari soni 2010-yilda 50 tani tashkil qilgan va o‘tgan 12 yil davomida 16 taga ko‘paygan.

Jami shifoxona muassasalaridan 21 tasi Nukus shahrida joylashgan. Ta’kidlash joizki, demografik va ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti, siyosiy-ma’muriy maqomiga mos holda Nukus shahridagi davolash-profilaktika muassasalari tarmog‘i respublika tumanlaridan keskin farq qiladi. Jumladan, Nukusda U.Xalmuratov nomidagi

Respublika ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi, Respublika bolalar yuqumli kasalliklar shifoxonasi, S.Sultanov nomidagi Respublika ftiziatriya va pulmonologiya markazi, Respublika o‘smirlar dispanseri, bir qator Respublika tor ixtisoslashgan tibbiy ilmiy markazlarning filiallari Nukusda faoliyat olib boradi.

Respublika tumanlari orasida shifoxona muassasalari soni jihatidan Ellikqal’a tumani peshqadam hisoblanib, bu yerda jami 7 ta shifoxona muassasasi mavjud. Shuningdek, Chimboy, Qo‘ng‘irot, Nukus va Taxiatosh tumanlarida shifoxona muassasalarining soni 4 taga teng. Bo‘zatov, Qorao‘zak, Qonliko‘l, Mo‘ynoq va Shumanay kabi qishloq ma’muriy tumanlarida 1 tadan shifoxona muassasasi faoliyat olib bormoqda. Ta’kidlab o‘tish joizki, Ellikqal’a, Qo‘ng‘irot va Chimboyda tumanlararo ahamiyatga ega bo‘lgan sil kasalligini davolashga ixtisoslashtirilgan ftiziatriya shifoxonalari joylashgan. Undan tashqari, Ellikqal’ada 2-son Respublika Ruhiy va asab kasalliklari dispanseri, Beruniy tumanida esa tumanlararo ahamiyatidagi perinatal markazi mavjud.

Barcha tuman markazlarida markaziy shifoxonalar mavjud. Tibbiy muassasalar sonidagi o‘zgarishlar ma’lum ma’noda xususiy amaliyot shifoxonalari faoliyatining kengayib borishi bilan ham izohlanadi. Mustaqillik yillarida qator tibbiy xizmat ko‘rsatish turlari, masalan, stomatologiya, oftalmologiya hamda ayrim tor mutaxassislik jabhalarida xususiy amaliyot keng yoyildi. Shu bilan birga ayrim noan’anaviy davolash turlarining kirib kelishi bevosita chet ellarda malakasini oshirib kelgan xususiy amaliyot shifokorlari bilan bog‘liq.

Xulosa. Umuman olganda, aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish tizimi Qoraqalpog‘iston Respublikasida pog‘onasimon tarzdagi hududiy tashkil etilishiga ega. Bu pog‘onasimon hududiy tizimning eng yuqori bo‘g‘ini, albatta, Nukus shahridir. Bu yerda bevosita mahalliy aholiga xizmat ko‘rsatuvchi birlamchi tibbiy muassasalardan tashqari bir qator mintaqaviy ahamiyatga ega bo‘lgan, yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minlangan tor ixtisoslashgan tibbiy muassasalar ham

faoliyat ko‘rsatadi. Shuningdek, xususiy tibbiy muassasalarining katta qismi ham aynan Nukus shahrida joylashgan.

Ikkinchi pog‘onada tumanlararo ahamiyatidagi shifoxona muassasalari joylashgan Bo‘ston, Chimboy, Qo‘ng‘irot va Beruniy shaharlari turadi. Bu tuman markazlari qolgan tuman markazlaridan ayrim tor ixtisoslashgan tibbiy muassasalarning mavjudligi bilan farq qiladi.

Keyingi, uchinchi pog‘onani yuqorida sanab o‘tilgan shaharlardan tashqari barcha tuman markazlari egallaydi. Tuman markazlarida markaziy shifoxona hamda tuman ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikalari faoliyat ko‘rsatib, lokal doiradagi tibbiy xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini tashkil etish va boshqarish, mahalliy aholiga kundalik ravishda tibbiy xizmatlar ko‘rsatiladi. Qayd etish lozimki, aholisi ko‘proq bo‘lgan respublikaning markaziy va, ayniqsa, janubiy tuman markazlarida xususiy tibbiyot muassasalari tarmog‘i kam sonli aholi istiqomat qiladigan shimoliy tumanlariga nisbatan ancha yaxshi rivojlangan.

So‘nggi, to‘rtinchi pog‘ona sifatida oilaviy shifokor punktlari va oilaviy poliklinikalar joylashgan OFY markazlari, yirik shaharcha va qishloq aholi punktlarini ajratish lozim. Bu toifadagi aholi punktlarida aholiga birlamchi tibbiy yordam ko‘rsatish xizmatlari amalga oshiriladi.

Adabiyotlar

1. Turdimambetov I.R., Uzakbaev K.K. Qoraqalpog‘istonda aholiga xizmat ko‘rsatish tarmog‘ining rivojlanishi va hududiy tashkil etilishi (tibbiy muassasalar misolida). «SamDU Ilmiy axborotnomasi» jurnali Aniq va tabiiy fanlar seriyasi. 2024-yil 3/1-soni. 25-30-betlar.

2. Turdimambetov I.R., Uzakbaev K.K., Niyazimbetova G. Current status of medical services in the Republic of Karakalpakstan. «Science and education in Karakalpakstan» jurnali 2020-yil 2-soni. 104-108-betlar.

3. Uzakbaev K.K. Territorial-hierarchical system of service centers in the Republic of Karakalpakstan. «Science and education in Karakalpakstan» jurnali 2025-yil 1/1-soni. 564-567-betlar.
4. www.qrstat.uz [Qoraqalpog‘iston Respublikasi Statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti].

QISHLOQ XO‘JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI

[1]Yeshimbetov U.X., [2]Xalimatova M.P., [1]Jaksimuratov A.B.

[1]Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI

[2]Urganch Davlat Pedagogika Instituti, Urganch shahri

Kirish. O‘zbekistonda keyingi yillarda olib borilayotgan agrar islohatlar natijasida qishloq xo‘jaligi barqaror rivojlanmoqda. Lekin respublika qishloq xo‘jaligining rivojlanish darajasi ichki imkoniyatlardan ancha past darajada. Bu jarayon mintaqada agrag resurslar salohiyatidan samarasiz foydalanilib kelinayotganidan dalolat beradi. Hozirgi vaqtda Respublikasida qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda muayyan muammo va qiyinchiliklarning borligi, mavjud tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning yetarli darajada takomillashtirilmaganligi bilan izohlanadi.

Mazkur holat qishloq xo‘jaligini rivojlantirish tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarining mavjud elementlarini takomillashtirish, uning tarkibiy asoslarini o‘zgartirish, eng muhimi, uning samaradorligini oshirishni taqozo etadi. Shu munosabat bilan muallif tomonidan tarmoqda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning takomillashtirilgan tuzilmasi taklif qilinmoqda[2].

Ushbu ilmiy ish mantiqiy oldingi ilmiy ishning davomi bo‘lib, respublika mintaqalarida agroklasterlarni rivojlantirish bosqichlari o‘rganilgan[2].

Asosiy qism. Respublikada hududlarida 2021-yili 415 klasterlar faoliyati ko‘rsatgan[1. 56 b.]. Shundan, paxta-to‘qimachilik klasterlari soni 122 tani tashkil

etgan[1. 56 b.]. Respublikada agroklasterlar faoliyatini tashkil etish bo‘yicha ham qator qonun va farmonlar qabul qilindi Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-dekabr oyidagi 733-sonli tasdiqlangan “Paxta-toqimachilik klasterlari faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomida faoliyat ko‘rsatish mexanizmlari aniq ko‘rsatilgan. Unga ko‘ra, paxta-to‘qimachilik klasterlari quyidagi shaklda tashkil etiladi[6]:

- qishloq xo‘jaligi yer uchastkalarini ijaraga olgan holda paxta yetishtirish;

- paxta xomashyosini shartnoma asosida fermer xo‘jaliklari va boshqa paxta yetishtiruvchilardan sotib olish;

- qishloq xo‘jaligi yer uchastkalarini ijaraga olgan holda paxta yetishtirish hamda paxta yetishtiruvchilardan shartnoma asosida sotib olish belgilangan.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, ushbu agroklasterning hammasi ham qishloq xo‘jaligi homashiyosini qayta ishlashni yo‘lga qo‘ymagan. Bundan tashqari iqtisodiy ko‘rsatkichlari ham barqaror emas. Demak, hozirgi mavjud bo‘lgan agroklasterlar faoliyatini olib borish bo‘yicha tegishli tadbirlarni takomillashtirish talab etadi. Agroklaster subyektlarining iqtisodiy faoliyatini barqaror va samarali bo‘lishini ta’minlash maqsadida quyidagi tashkiliy-iqtisodiy mexanizm elementlarini takomillashtirishni taqozo etadi:

- klasterlarni tashkil etish va boshqarish kontseptsiyasini ishlab chiqish[5]. Kontseptsiya respublika mintaqalarida tuzilgan ishchi guruh tomonidan ishlab chiqiladi (ishchi guruh a’zolari hududning imkoniyatlarini biluvchi, qishloq xo‘jaligi, iqtisodiyot, biznes, huquqshunoslik bilimlarga ega va manfaatdor bo‘lgan subyektlardan iborat bo‘lishi lozim) va respublika bo‘yicha yagona ekspertlar guruhi tomonidan ekspertizadan o‘tkaziladi va qabul qilinadi. Tuzilgan yo‘l xaritalari mintaqalarning ichki va tashqi imkoniyatlariga bog‘liq turlicha bo‘lishi mumkin. Yo‘l xaritasi bir yildan besh yilgacha tuzilishi maqsadga muvofiq;

- barcha klaster ishtirokchilari o‘rtasida qa’tiy teng munosabatlarga asoslangan shartnomalarni tuzish, shartnomada ko‘rsatilgan talablar buzilgan holda uni buzgan

tomonga huquqiy chora ko‘rilib, ikkinch tomonga moliyaviy va ma’naviy ko‘rilgan zararlarni qoplab berish;

- agrar sohada faoliyat yurituvchi subyektlarga xavf soluvchi tashqi va ichki iqtisodiy hatarlardan saqlashda, hududlarda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan boshqa turli xil muammolarni oldindan aniqlash va ularni bartaraf qilish yoki yumshatishda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni yo‘lga qo‘yish. Qishloq xo‘jaligi yuqori hosildorlik va mahsuldorlikka ega bo‘lgan mamlakatlarda tarmoqni rivojlantirishning kop yillik tajribasi shuni ko‘rsatadiki, davlat tomonidan tartibga solish va qo‘llab-quvvatlashsiz qishloq xojaligi korxonalarining faoliyati kam samarali hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini bunday boshqarish konepsiyasiga zamonaviy yondashuv bozorning o‘zini o‘zi tartibga solish mexanizmlari va davlat organlarining faol ta’sirining uygunligiga asoslanadi[4.].

- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini noqulay ob-havo va suv tanqisligi sharoitida sug‘urtalashni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni rivojlantirish[3.];

- agroklasterlar faoliyatini innovatsion rivojlantirish (energiyani kam sarflash hisobiga), mahsulot ishlab chiqarish, strategiyasi esa eksportga yo‘naltirilgan tayyor va raqobatbardosh mahsulotlarga qaratilgan bo‘lishi;

- hududlarda qishloq xo‘jalik salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yishda qishloq tumanlarida irrigatsiya tizimini, transport va kommunal infratuzilmasini madaniy-maishiy obyektlarini rekonstruktsiya va modernizatsiya qilish va agrar sohada servis xizmatini (turli xil texnika, seleksiya, urug‘chilik, tuproq unumdorligini oshirish, suvdan tejamkor foydalanishni texnologiyasi) takomillashtirish

- mahalliy hokimiyat organlarining klasterlar faoliyatiga asossiz aralashuviga chek qo‘yishi va h.k.

Respublika mintaqalarida agroklasterlarni tashkil etish, barqaror va samarali rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar bosqishma-bosqich amalga oshiriladi (-jadval). Boshqichma-bosqich amalga oshirilishning mohiyati shundaki, birinchidan katta miqdorda moliyaviy resurslarni talab etilmaydi, ikkinchidan ichki va tashqi bozorga

moslashib boriladi, uchunchidan korxonaning menejment va marketing sohalari bo‘yicha tajriba va ko‘nikmalari oshadi. Nihoyat to‘rtinchidan ishlab chiqarish quvvatini kengayib, tayyor mahsulot ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi. Agroklasterlarni paxta, g‘alla, meva-uzum, sabzavot, poliz, go‘sht-sut, pilla mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlashga ixtisoslashgan yo‘nalishlarda rivojlantirish maqsadga muvofiq. Yuqorida ko‘rsatilgan tarmoqlar uchun respublika

1-jadval

Respublika mintaqalarida agroklasterlarni rivojlantirish bosqichlari[4]

Davr	Faoliyat turi	Tadbir
I-bosqich	Tashkiliy	faoliyat ko‘rsatayotgan agroklasterlarning iqtisodiy samarali faoliyat yuritishi va yangi klasterlarni tashkil etishda davlarning qo‘llab-quvvatlash; qishloq xo‘jaligi ekin yerlari hosildorligini oshirish, selektsiya, urug‘chilik, nasilchilik, zararkurandalarga qarshi kurashish bo‘yicha ilmiy muassasalarni shakillantirish, borlarini moddiy-texnik bazasini mustahkamlash; ishlab chiqarish, transport, bozor, muhandislik-texnik, ijtimoiy, logistika infratuzilma tarmoqlarini, sug‘orish, kollektor-drenaj tizimlarini shakllantirish, mavjudlarini modernizatsiya qilish; tumanlararo va mintaqalararo intergatsion aloqalarni yo‘lga qo‘yish; ichki hamda tashqi bozordagi talabni o‘rganish va h.k.
II-bosqich	Industriyal	xorijiy investorlar, davlat, korxona va aholi mablag‘lari hisobidan qishloq xo‘jaligida mahsulot yetishtirishni intensiv rivojlantirish va yetishtirilgan mahsulotlarni to‘liq qayta ishlash amalga oshirish; qishloq xo‘jaligini kooperativlashtirish, kontsentrlashtirish va ixtisoslashtirish; qishloq xo‘jaligini kompleks

[4] Jadvalni tuzishda Хоразм вилоятини ижтимоий-иқтисодий ривожланиш стратегияси. Т.: 2015. 56-57 бетлар va Матёқубова Д.О. Минтақада инновацион фаоллик асосида аграр соҳада ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш механизмини такомиллаштириш (Хоразм вилояти мисолида) ёзилган иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация автореферatidan foydalanildi.

		mexanizatsiyalash, zamonaviy texnikalarni amaliyotga joriy etish, agroklasterlarning barcha ishlab chiqarish bo‘g‘inlarini ajratmagan holda boshqarishni tashkil etish; chorvachilik fermalarida olib boriladigan ishlarni to‘liq avtomatlashtirish, parrandachilikni broiler, sabzavot mahsulotlarini yetishtirishni teplitsa-parnik asosida rivojlantirish.
III-bosqich	Innovatsion	suv bilan bog‘liq innovatsion texnologiyalar, samarali sug‘orish va suspenziyali o‘g‘itlash, suv manbalarini himoya qilish; tuproq bilan bog‘liq innovatsiyalar, tuproq umumdorligini innovatsion boshqarish, qishloq xo‘jaligi uchun foydali mikroorganizmlar; chorva mollarini saqlash va innovatsion parvarish qilish; qishloq xojaligi mahsulotlarini innovatsion qayta ishlash; aqilli qishloq xojaligi infratuzilmalaridan foydalanish va boshqalar.

mintaqalarida salohiyat yetarli darajada mavjud. Lekin hududlarning tuproq-iqlim xususiyatlari qarab ustuvor tarmoqlar aniqlab olinishi kerak. Ustuvor tarmoqlar bilan qo‘shimcha tarmoqlarni rivojlantirish zarur. Bundan tashqari oziq-ovqat mahsulotlariga ichki va tashqi bozorda talab yuqori hisoblanadi.

Xulosa. Uzoq yillar davomida respublikada yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari chetga xomashyo ko‘rinishida sotilgan. Respublikada agroklasterlarning tashkil etilishi aynan qishloq xo‘jaligida yetishtirilgan mahsulotlarni to‘liq qayta ishlah, tayyor mahsulotlarni eksport qilishga qaratilgan. Ushbu jarayot ijtimoiy muammolarni yumshatishga ham yo‘l ochadi.

Adabiyotlar

1. Begimova D.K. Klasterlashtirish asosida mintaqalar tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T.: 2023. 56 b.

2. Eshimbetov U.X., Tulebayev S.S. Hozirgi islohatlar davridaqishloq xo‘jaligini barqaror va samarali rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. // Mintaqani barqaror va kompleks rivojlantirish zamonaviy muammolari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to‘plami. 559-564 betlar.
3. Дудник Е. Государственная поддержка сельского хозяйства Украины: состояние, проблемы, перспективы. Макроэкономическая сбалансированность и комплексное социально-экономическое развития: // материалы II Форума молодых ученых-экономистов / под общей редакцией д.э.н. Садыков А.М. Т.: Baktria press, 2013.
4. Кулиев Р. Мировой опыт развития сельского хозяйства и продовольственная безопасность государства. https://cyberleninka.ru/article/n/mirovoy-opyt-razvitiya-selskogo-hozyaystva-i-prodovolstvennaya-bezopasnost-gosudarstva
5. Отажонов Ш. Инновацион кластерлар ташкил этиш – ҳудудларнинг бошқариш самарадорлигини оширишнинг муҳим омили. // Методологические вопросы разработки стратегий долгосрочного развития: материалы V Форума экономистов / под общей редакцией д.э.н. Садыков А.М. Т.: IFMR. 2013.
6.https://xs.uz/uz/post/pakhta-toqimachilik-klasterlarini-tashkil-etish-tartibi-belgilandi

QORAQALPOG‘ISTONDA PAXTACHILIK RIVOJLANISHINING AYRIM KO‘RSATKICHLAR TAHLILI

Yeshimbetov U.X.

Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI, Nukus shahri

Kirish. Paxtachilik – Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishning yetakchi tarmog‘i hisoblanadi. Fermer xo‘jaliklarining aksariyati paxta yetishtirishga ixtisoslashgan. Paxta Mo‘ynoq va Bo‘zatov tumanlaridan tashqari respublikaning barcha ma’muriy hududlarida yetishtiradi.

Paxtachilik Qoraqalpog‘iston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirishda strategik ahamiyatga ega. Paxtadan asosiy mahsulot sifatida tola olinadi va qimmatli eksport tovari hisoblanadi, mamlakat iqtisodiyotiga katta miqdorda daromad keltirmoqda. Paxtachilik ulushiga qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 30-35 foizi to‘g‘ri keladi. Mazkur tarmoq bugungacha va hozirgi kunda ham mintaqa qishloq xo‘jaligining ixtisoslashgan tarmog‘i hisoblanadi. Paxtachilik tarmog‘ining rivojlanishi natijasida tumanlar darajasida paxta tolasini ishlab chiqarish agrosanoat kompleksi, respublika darajasida esa agrosanoat kompleksi paxta yog‘-moy ishlab chiqarish bo‘yicha shakllangan. G‘o‘za chigitidan olinadigan yog‘, kunjara, shulxa va xo‘jalik sovuniga ichki bozorda talab yuqori.

Paxtachilik sanoatning boshqa tarmoqlariga ham turli xil xomashyo yetkazib beradi. Paxta xomashyosi yetishtirishni ko‘paytirish qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq bo‘lgan tarmoqlarning sanoat ishlab chiqarish quvvatlaridan oqilona foydalanish va respublika aholisining bandligini oshirish imkonini beradi. Paxtachilikning rivojlanishi nafaqat sanoat uchun xomashiyo shuning bilan birga chorvachilikda yem-xashak bazasini ham yaratadi. Jumladan, qo‘shimcha yem-xashak zahiralarini ko‘paytirishda g‘o‘za ko‘rakidan olingan chiqindilar muhim xisoblanadi. G‘o‘za chiqindisi (chang‘alaq, poya, tola massasi, yetilib pishmagan, siniq va ekishga yaramsiz tuxum (chigit), yupqa po‘st tola, momiq va boshqalar) an’anaviy chorva ozuqasi hisoblangan shrot va sheluxa kabi chorva yemlaridan yuqimlilik tarafidan kam emas. Demak mazkur dehqonchilik turi mintaqa xo‘jaligini kompleks rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadigan tarmoqlardan biri hisoblanadi.

Bu tarmoqning rivojlanishi yalpi qishloq xo‘jaligi mahsulotining hajmiga, mintaqa iqtisodiyotining ko‘rsatkichlariga, shuningdek, dehqonchilikning boshqa tarmoqlari va chorvachilikning rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Hududda paxtachilikni rivojlantirish uchun Amudaryo bo‘yi allyuvial o‘tloqli-taqir va o‘tloqli-botqoqli tuproqlar (tarkibidagi chirindi miqdori 0,4-1,5 foiz) qulay shart-sharoit yaratadi, agrotexnik qoidalarga amal qilgan holda yuqori hosil olish mumkin.

Ma’lumki, mintaqada tuproq qatlami turli darajada sho‘rlangan, shu sababdan tarmoqni rivojlantirishda sho‘r yuvish tadbirlarini jadallashtirish zarur. Bunda har bir paxta ekin maydoniga to‘g‘ri keladigan kollektor-drenaj tarmoqlarini qurish, mavjudlarini rekonstruktsiya qilish talab etiladi. Pahtachilik ilmiy-tadqiqot institutida ko‘p yillar davomida olib borilgan tajribalar shuni ko‘rsatadiki, kuchsiz sho‘rlangan yerlarda, sho‘rlanmagan yerlarga nisbatan hosildorlik 20-30 foiz, o‘rtacha sho‘rlangan yerlarda 40-60 foiz va kuchli sho‘rlangan yerlar esa 70-80 foizga kamayib ketadi[1, 8 b.].

Asosiy qism. Hozirgi kunda paxtachilik xo‘jaliklarida mavjud ishlab chiqarish salohiyatlaridan yetarlicha foydalanilmayapti. Qoraqalpog‘istonda yaqin o‘tmishda 400 ming tonnadan ortiq paxta xomashyosi yetishtirilgan[6, 56 b], bu 2022 yilga nisbatan salkam ikki baravar ko‘pdir (1-jadval).

1-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasida paxtachilikning rivojlanish dinamikasi [2, 33 b, 6, 56 b, 3, 92-135 betlar, 4, 93-152 betlar.]

Yillar	Paxta ekin maydonlari, ming ga.	Yalpi hosil, ming t.	Hosildorlik, ts/ga.
1980	133,5	430,0	32,1
1985	151,0	361,0	23,9
1995	145,5	288,2	19,8
2000	145,0	196,8	13,6
2005	104,0	212,6	20,4
2010	101,0	188,0	18,6
2015	95,9	195,5	20,4
2020	87,5	201,3	23,0
2022	108,8	239,8	22,0

Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, 1980 yilga nisbatan 2022 yil paxta ekin maydonlari 24,7 ming gektarga, yalpi hosil 190,2 ming tonnaga, hosildorlik 10,1 ga/ts ga kamaygan. Tahlillardan ma’lumki, tarmoq rivojlanish dinamikasidan xulosa qilish mumkinki, paxtachilikda intensifikatsiya darajasi turli ko‘rsatkichlarda bo‘lgan.

Yalpi paxta xomashyosi hosilining oshishi asosan ekin maydonlarini kengaytirish hisobidan amalga oshirilgan. Yuqorida keltirilgan yillarga tegishli ma’lumotlarning tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, paxtachilik uchun rivojlanishining ekstensiv yo‘li xosdir. Fikrlarimizning dalili sifatida faktlarga murojat qilsak, 1980 yildan 2000 yilgacha paxta ekin maydonlari 11,5 ming gektar (8,6 foiz) ga kengaygani holda hosildorlik 18,5 ga/ts ga, yalpi hosil 233,2 ming tonnaga kamaygan. 2000-2010 yillar mobaynida paxta ekin maydonlari 44,0 ming gektarga, yalpi hosil 8,8 ming tonnaga kamaygan, hosildorlik o‘rtacha 5 ga/ts ko‘paygan. 2010-2020 yillarda paxtachilikda nisbatan ijobiy siljishlar yuz bergan. Masalan, mazkur yillarda paxta ekin maydonlari 13,1 ming gektarga kamaygan holda hosildorlik 4,4 ga/ts ga, yalpi hosil 13,3 ming tonnaga ko‘paygan. 2022 yilga kelib holsidorlik pasaygan, yalpi hosil ekin maydonlarining ko‘payishi hisobiga oshgan.

G‘o‘za hosildorligiga almashlab ekish, suv bilan yetarli darajada ta’minlanmaganligi, yerlarning meliorativ holatining yomonlashuvi va mahalliy organik o‘g‘itlarning ekin maydonlarga to‘liq berilmayotganligi[5] jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Mineral o‘g‘itlarni har gektar ekin maydonga har yili 30 tonna mahalliy organik o‘g‘itlar bilan birgalikda qo‘shib ekish va paxta-beda almashlab ekish sxemasini amaliyotga joriy etish g‘o‘za hosildorligini 6-8 ts/ga oshiradi[5, 43 b].

Istiqbolda paxtachilikni rivojlantirishda birinchi ustuvor vazifa dalalarni suv bilan uzluksiz ta’minlash maqsadida sug‘orish tizimlarini takomillashtirish, yildan yilga tuproqlarning takror sho‘rlanishining oldini olish uchun kollektor-drenaj tizimini yaxshilash lozim. Shuningdek, paxtachilik xo‘jaliklari ish jarayonini to‘liq mexanizatsiyalashtirish, o‘simliklarning kasallanishi va zararkunandalarga qarshi kurashish hamda almashlab ekish tadbirlarini amaliyotga keng jalb qilish zarur. Almashlab ekishning amaliyotga keng joriy etilishi yer va suv resurslaridan samarali

[5] Keyingi to‘rt (2019-2022) yilda o‘rtacha 40 foizdan ortiq ekin dalalarga mahalliy organik o‘g‘itlar byerilmagan.

foydalanishga, qishloq xo‘jaligida mahsulot assortimentini ko‘paytirishga imkoniyat yaratadi.

Umuman olganda, paxtachilikdagi ishlar natijasi hamon belgilangan vazifalarga to‘liq javob bermaydi. Mintaqa paxta hosildorligi bo‘yicha O‘zbekistonning o‘rtacha hosildorligidan ancha orqada qolmoqda. Shuningdek, hosildorlik bo‘yicha mintaqalar orasida oxirgi o‘rinda turadi. Qo‘shni Xorazm viloyatidan hosildorlik esa 11,6 ga/ts ga kam. Bundan tashqari paxta xomashyosining yalpi hosili ham boshqa mintaqalarga (bu ko‘rsatkich bo‘yicha Navoiy va Namangan viloyatlaridan oldin turadi xolos) nisbatan kam yetishtirilmoqda. Qoraqalpog‘iston ulushiga O‘zbekiston jami paxta ekin maydonlarining 10,4 foizi va yalpi hosilning esa 6,8 foizi to‘g‘ri keladi (2022 yil)[4, 93-152 betlar]. Ushbu miqdor yillar bo‘yicha turlicha ko‘rsatkichga ega bo‘lgan.

Yuqoridagi tahlillar shundan dalolatki, hududda paxtachilik tarmog‘i intensiv rivojlanish va samaradorligini oshirish bo‘yicha o‘z yechimini kutib turgan muammolarning mavjudligi bilan tavsiflanadi. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, ba’zi fermer xo‘jaliklar iqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlilidan ma’lum bo‘ldiki, respublikada paxta hosildorligini oshirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Jumladan, Amudaryo tumanidagi Boburbek Urozboev va Yusuf Xo‘ja fermer xo‘jaliklaridan o‘rtacha 40 ts/ga dan ortiq xosil olingan.

Xulosa. Paxtachilikni rivojlantirish sur’atlarini yanada jadallashtirish vazifasi birinchi navbatda ekin erlarining suv bilan ta’minlanishini yaxshilashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarini amalga oshirishni taqozo etadi. Sug‘oriladigan erlarning katta maydonida tuproqlarning qayta sho‘rlanishi kollektor-drenaj tarmoqlarini o‘tkazish va tamirlash zaruriyatini tug‘dirmoqda. Bu tadbir nafaqat paxtachilik balki, kishloq xo‘jaligi ekin yerlaridan samarali foydalanishga zamin yaratadi. Bundan tashqari, hosildorlikni oshirishda tarmoqni to‘liq mexanizatsiyalashtirish, o‘simlik kasalliklari va zararkunandalariga qarshi kurashish tadbirlarini amalga oshirish lozim.

Adabiyotlar

1. Mamatqulov A.B. Qishloq xo‘jaligida sug‘oriladigan sho‘rxok yerlardan samarali foydalanish. T.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2007. 136 b.
2. Раджапов М.Я., Умаров Е.К. Пахташылықты раўажландырыўдың аймақлық проблемалары (Қарақалпақстан Республикаси мысалында). Нөкис. 2010. 47 б.
3. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi 2015-2018 T.: 2019. 239 b.
4. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi 2019-2022. T.: 2023. 288 b.
5. Ходжалепесов П.З. Эффективность использования земльно-водных ресурсов и перспективы развития сельскохозяйственного производства в Республики Каракалпакстан. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Нукус. 2004. 135 стр.
6. Юсупбаев К.Ю. Особенности реализации экономической реформы в аграрном секторе Республики Каракалпакстан. Т.: 2001. 194 стр.

ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В ПРОЦЕССЕ ГЕОГРАФИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

[1]Наурузбаева Г.Т., [1]Бахрамова Г.Б.

[1]Каракалпакский государственный университете им. Бердаха

Аннотация: В статье рассматриваются актуальные аспекты формирования экологической культуры у подрастающего поколения в Узбекистане через интеграцию экологических знаний в систему географического образования. В условиях глобализации экологических проблем и антропогенного воздействия на экосистемы Центральной Азии особое значение приобретает роль школьного и вузовского географического образования в воспитании ответственного отношения к окружающей среде. Анализируются нормативно-правовая база, включая Концепцию развития экологического образования и Концепцию повышения экологической культуры населения до 2030 года, а также практические подходы к экологизации уроков

географии. Предлагаются методические рекомендации по использованию краеведческих материалов, интерактивных методов и народного фольклора для повышения экологической грамотности учащихся. Исследование подчеркивает необходимость преемственности экологического образования на всех уровнях, что способствует устойчивому развитию страны и адаптации к изменению климата.

Ключевые слова: экологическая культура, географическое образование, экологизация, Узбекистан, устойчивое развитие, школьное образование, краеведение, экологическое воспитание.

Abstract: The article examines the current aspects of forming ecological culture in the younger generation in Uzbekistan through the integration of ecological knowledge into the geographical education system. In the context of the globalization of environmental problems and anthropogenic impact on the ecosystems of Central Asia, the role of school and university geography education in fostering a responsible attitude towards the environment is gaining particular importance. The regulatory framework, including the Concept for the Development of Environmental Education and the Concept for Improving the Environmental Culture of the Population until 2030, as well as practical approaches to the greening of geography lessons, are analyzed. Methodological recommendations are offered for using local history materials, interactive methods, and folk literature to enhance students' ecological literacy. The study emphasizes the need for continuity in environmental education at all levels, which contributes to the country's sustainable development and adaptation to climate change.

Keywords: ecological culture, geographical education, greening, Uzbekistan, sustainable development, school education, local history, ecological education.

В современном мире, сталкивающемся с глобальными экологическими вызовами, такими как изменение климата, потеря биоразнообразия и загрязнение окружающей среды, формирование экологической культуры

становится приоритетной задачей образования. Экологическая культура представляет собой совокупность знаний, ценностей, норм поведения и навыков, позволяющих человеку гармонично взаимодействовать с природой, осознавать свою ответственность за ее сохранение и рационально использовать ресурсы. Географическое образование, изучающее взаимосвязи между человеком и окружающей средой, играет ключевую роль в этом процессе. Оно не только предоставляет научные знания о Земле как единой системе, но и воспитывает экологическое мышление, способствуя переходу от утилитарного отношения к природе к ответственному и устойчивому [1].

Экологическая культура — это неотъемлемая часть общей культуры личности, включающая экологическое сознание, мировоззрение и поведение.

Узбекистан, расположенный в центре Центральной Азии, сталкивается с серьезными экологическими вызовами: деградацией Аральского моря, засолением почв, водным дефицитом и антропогенным воздействием на биоразнообразие. В этих условиях формирование экологической культуры населения становится приоритетной задачей государственной политики. Экологическая культура подразумевает не только системные знания об окружающей среде, но и экологически ориентированное мировоззрение, ответственное поведение и активное участие в охране природы. Географическое образование, как междисциплинарная область, интегрирующая природоведческие, социально-экономические и гуманитарные аспекты, играет ключевую роль в этом процессе. Оно позволяет учащимся осмыслить взаимосвязи человека и природы на локальном, региональном и глобальном уровнях, способствуя формированию гармоничных отношений с окружающей средой [2].

В Узбекистане экологическое образование регулируется Законом «Об охране природы», Законом «Об образовании» и Национальной программой по подготовке кадров. Постановлением Президента от 19 мая 2025 года утверждена Концепция повышения экологической культуры населения до 2030

года, предусматривающая укрепление экологического воспитания для 4,2 млн школьников и 400 тыс. студентов среднего специального образования. Кроме того, создание Центрально-азиатского университета экологии (GREEN UNIVERSITY) в 2025 году направлено на подготовку квалифицированных кадров и интеграцию образования, науки и производства в сфере охраны природы [5,6].

Географическое образование в Узбекистане охватывает школьные курсы природоведения, географии и экологии, а также вузовские программы по географии и природопользованию. Экологизация географического образования подразумевает внедрение принципов устойчивого развития в содержание уроков, использование активных методов обучения и связь с локальными проблемами региона. Например, при изучении тем «Реки и озера» или «Природные зоны Узбекистана» учащиеся анализируют экологические последствия ирригации в Ферганской долине или опустынивания Кызылкума, что способствует развитию критического мышления и экологической ответственности [3].

Краеведение как метод географического образования особенно эффективно для формирования экологической культуры. Знакомство с природой родного края — от Тянь-Шаня до Аральского бассейна — позволяет учащимся осознать локальные угрозы и принять личное участие в их решении. В школах проводятся экскурсии, экологические проекты и конкурсы «Лучшая экологически чистая школа», что усиливает мотивацию к сохранению биоразнообразия [7,8].

Узбекский фольклор и народная педагогика интегрируются в географические уроки для воспитания уважения к природе. Пословицы вроде «Чистая вода — лекарство само по себе» или сказания о гармонии человека и природы формируют этические основы экологического сознания у младших школьников. Это особенно актуально в контексте зороастрийских традиций, где Навруз символизирует обновление природы и триумф света над тьмой.

Внедрение экологического образования в географические курсы включает:

- **Интерактивные методы**: Кейс-стади по проблемам Аральского моря, ролевые игры по рациональному использованию водных ресурсов.
- **Внеурочная деятельность**: Экологические отряды, полевые практики и мониторинг локальных экосистем.
- **Интеграция с другими дисциплинами**: Связь географии с биологией, химией и литературой для комплексного подхода [9,10].

Анализ исследования выявил основные барьеры в формировании экологической культуры через географическое образование в Узбекистане:

- недостаток ресурсов в сельских школах (ограниченный доступ к оборудованию, материалам и цифровым инструментам);
- низкий уровень профессиональной подготовки учителей (дефицит специализированных знаний по экологии и современным методам преподавания);
- влияние климатических изменений на учебный процесс (экстремальные погодные условия, приводящие к пропускам занятий и деградации инфраструктуры).

Для решения этих проблем предлагается:

- развитие онлайн-платформ для дистанционного обучения и обмена ресурсами;
- международное сотрудничество, включая инициативы вроде GREEN UNIVERSITY, с целью обмена опытом, технологиями и грантовым финансированиям.

Формирование экологической культуры через географическое образование представляет собой **стратегический вектор устойчивого развития Узбекистана**. Интеграция экологических принципов в школьные и вузовские программы, опора на национальные традиции (например, уважение к природе в узбекском фольклоре и исламских ценностях) и усиление

государственной поддержки позволят воспитать поколение, способное к гармоничному взаимодействию с окружающей средой.

Необходимо сосредоточить усилия на **оценке эффективности предложенных подходов** (через пилотные проекты и мониторинг) и их **адаптации к глобальным вызовам** (таким как изменение климата и урбанизация).

Список литературы

1. Махкамов Б.А. Экологическое образование учащихся в процессе трудового обучения // Молодой ученый. — 2012. — №1. Т.2. — С.97-99.

2. Беляева О.А. О формировании экологической культуры у молодого поколения в системе образования // Вестник образования. — 2018. — №3. — С.12-15.

3. Родзевич Н.Н. Методы и формы экологизации географического образования. — М.: Просвещение, 1994. — 128 с.

4. Закон Республики Узбекистан «Об образовании». — Ташкент: Узбекистан, 2020.

5. Концепция развития экологического образования в Республике Узбекистан // Постановление Правительства РУз. — 2019.

6. Концепция повышения экологической культуры населения на период до 2030 года // Постановление Президента РУз № ПП-586 от 19.05.2025.

7. Hamidov H., Khojimatov A.N., Allayorov R.Kh., Usmonkhojaeva M.A. Ecological culture and spirituality. Instructional manual. — Ташкент: Zuhra baraka bines, 2018. — 144 c.

8. Ergashev A. General ecology. — Ташкент: Fan va texnologiya, 2005. — 256 c.

9. Zaurov E.D., Eisenman S.W. The Geography, Climate and Vegetation of Uzbekistan // Medicinal Plants of Central Asia: Uzbekistan and Kyrgyzstan. — Springer, 2013. — P. 69-85.

10. Jobborova G. Uzbek folk ecology – formation of the foundations of ecological culture in elementary school students // E3S Web of Conferences. — 2023. — Vol. 452. — Art. 03004.

ЕР ЮЗАСИДА ЭКОТИЗИМЛАР БАРҚАРОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ИЛМИЙ ЖИҲАТЛАРИ

[1]Утепова Г.Б., [2]Куралбаева Г.К., [2]Ешпанова Г.

[1]Ажиниёз номидаги НДПИ География кафедраси доценти, г.ф.н.

[2]Ажиниёз номидаги НДПИ Аниқ ва табиий фанларни ўқитиш методикаси (география) мутахассислиги 1-курс магистрантлари

XX асрнинг 70-йилларидан бошлаб табиий географик фанларнинг ўрганиш предмети асосан экологик муаммоларнинг ечимини топишга йўналтирилди. XXI асрга келиб экологик муаммоларга янгича ёндашиш даврининг бошланиши, яъни табиатни муҳофаза қилиш босқичидан экологик хавфсизликни таъминлаш босқичига ўтилиши, экологик хавфсизлик муаммосининг географик, айниқса табиий географик жиҳатларини тадқиқ қилишни талаб этади. Экологик хавф табиий географик қонуниятларга боғлиқ равишда турли даражада намоён бўлади ва муайян ҳудудий бирликлар доирасидан чиқиб кетади.

Экологик хавфсизликнинг **ҳудудий жиҳатлари** табиий географик қонуниятлар асосида-зоналлик, азоналлик ва ҳудудий таксономик бирликлар доирасида қараб чиқилиши мақсадга мувофиқ. Бунга сабаб хавфли вазиятлар кўлами ва ҳолати ҳамда хавфсизликни таъминлаш масалаларининг зонал-азонал қонуниятлар, таксономик бирликлар доирасида турлича намоён бўлишидир. Аммо бу ҳудудий тафовутларни акс эттирувчи зоналлик, азоналлик ёки бошқа қонуниятлар борасида ягона қараш мавжуд эмас.

Экологик хавфсизликнинг ҳудудий жиҳатлари ландшафтлар доирасида ҳам қараб чиқилиши лозим. Чунки биринчидан, ландшафтлар зонал ёки азонал

қонуниятларга ҳар доим ҳам мос келавермайди. Бу борада Ф.Н.Мильков, - “Агар ландшафтлар аниқ зонал ва азонал бўлганида эди, у ҳолда ландшафтларнинг таксономик бирликлари ҳақида гапириш шарт бўлмасди” [1], - дея таъкидлайди. Иккинчидан, ҳар хил ландшафтлар баъзан эса бир турдаги ландшафтлар ҳам (унинг географик жойлашиши, ривожланиш динамикаси, компонентларининг хусусиятлари ва ҳ.к.ларга боғлиқ равишда) инсон таъсирига турлича берилади.

Зонал қонуниятлар асосида иқлимий шароитларнинг ўзгариши ётади ва зоналлик иқлим минтақалари, тупроқ, ўсимлик ва ҳайвонот оламининг кенгликдаги ўзгаришида акс этади. Маълумки, иқлим минтақалари ва табиат зоналари экватордан ҳар иккала қутбга томон ўзгариб боради. Ҳар бир иқлим минтақасида ўзига хос табиий шароит шаклланганлиги сабабли хавфли вазиятларнинг юзага келиши ҳам турличадир. Зонал қонуниятлар доирасида экологик хавфсизликни таъминлаш масалалари қуйидагича амалга оширилади:

√ ***Глобал даражада*** экологик хавфсизлик Ер юзасида экотизимлар барқарорлигини таъминлашга йўналтирилган жаҳон ҳамжамиятининг фаолияти бўлиб, бутун географик қобиқ ва унинг таркибий сфералари таҳлил қилинади. Хавфсизликни глобал миқёсда бошқаришнинг асл моҳияти – биосферадаги организмлар мувозанатини таъминловчи атроф табиий муҳитнинг қайта тикланиш табиий механизмини сақлаш ҳисобланади.

√ ***Регионал даражада*** экологик хавфсизлик муайян минтақаларда экотизимлар барқарорлигини таъминлашга йўналтирилган тадбирлар тизимини ўз ичига олиб, табиий географик район, провинция, округ, ўлка, табиат зоналари, иқлим минтақалари, қитъа ёки материклар доирасида кўриб чиқилади. Баъзан экологик хавфли вазият муайян табиий географик ўлкада, аммо бир қанча давлатлар ҳудудида юзага келади. Хавф манбаси бир давлат ҳудудида бўлиб, табиий географик қонуниятлар таъсирида иккинчи бир давлатда кучли даражада намоён бўлади. Шу сабабли регионал миқёсда экологик хафсизликни таъминлаш масалалари табиий географик

қонуниятларни ҳисобга олган ҳолда, давлатлараро тадбирлар тизимини ишлаб чиқишни талаб қилади.

√ ***Маҳаллий даражада*** экологик хавфсизлик муайян давлатларда экотизимлар барқарорлигини таъминлашга асосланган бўлиб, кичик табиат комплекслари, табиий географик зоналар ва маъмурий бирликлар миқёсида амалга оширилади. Азонал қонуниятлар асосида шаклланган табиат комплекслари (ботқоқлар, тўқайлар) муайян бир мураккаб маҳаллий шароитда юзага келади. Бу ҳолатларда экологик хавфсизликни таъминлаш масалалари азонал табиат комплекслари доирасида амалга оширилади. Масалан, Қуйи Амударё ҳудуди чўл зонасида шаклланган бўлиб, Амударё фаолияти ва суғорма деҳқончилик таъсирида геологик шароити, ер юзасининг ҳолати, грунт сувларининг сатҳи, ўсимлик ва ҳайвонот оламининг нисбатан бойлиги билан атрофдаги чўллардан фарқ қилади. Бундай ҳолатларда экологик хавфсизлик масаласи асосан маҳаллий хусусиятларга эга бўлади. Маҳаллий даражада экологик хавфсизлик кичик табиий географик ўлкалар (воҳа, водий ва ҳ.к.), кичик табиат комплекслари (ўрмон, кўл ва ҳ.к.) миқёсида кўриб чиқилади. Экологик хавфсизликни таъминлаш ва экологик хавфли вазиятлар моҳиятини тўлиқ англаб етиш учун уларни маҳаллий доирадан бошлаб тадқиқ қилиш бирламчи аҳамият касб этади.

Маълумки, географик тадқиқотларнинг муҳим томонларидан бири муаммолар ечимини топишга **даврий жиҳатдан** ёндашиш ҳисобланади. Экологик муаммолар ечимини топиш ва атроф табиий муҳитдаги жараёнларини тадқиқ қилишда вақтни, даврий ёндашувларни инкор қилиб бўлмайди. Агарда тадқиқотларда даврий ўзгаришлар ҳисобга олинмаса, у кейинчалик ўз аҳамиятини йўқотади. Бундан ташқари, муаммоларнинг даврийлигини тадқиқ қилиш орқали уларни башоратлаш мумкин бўлади. Шунинг учун ҳам экологик хавфсизликни таъминлашда унинг даврий хусусиятларини эътиборга олиш мақсадга мувофиқдир.

Шуларни эътиборга олган ҳолда ҳудудларнинг экологик хавфсизлик

ҳолатини аниқлаш, баҳолаш ва уни таъминлаш чора-тадбирларини ишлаб чиқиш ландшафтлар доирасида амалга оширилиши зарур. Бундай ҳолатда, экологик хавфсизлик ҳолати уни белгиловчи омиллар ва уларнинг асосий кўрсаткичлари бўйича аниқлангани мақсадга мувофиқдир.

Адабиётлар

1. Мильков Ф.Н. Основные проблемы физической географии.-М.: Высш.школа, 1987.

2. Рафиков А.А. Геоэкологик муаммолар. Т., Ўқитувчи, 1997.

3. Шодиметов Ю. Ижтимоий экологияга кириш. Т., Ўқитувчи, 1994

ИНТЕГРАЦИЯ ГЕОИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИИ И ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ПОДГОТОВКЕ МОЛОДЁЖИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО УПРАВЛЕНИЯ ПРИРОДНЫМИ РЕСУРСАМИ

[1]Худайбергенов Я.Г., [2]Мубареков А.Б.

[1]Декан факультета географии и природных ресурсов, доктор философии (PhD) по географическим наукам, доцент

[2]магистрант по специальности Геодезия и геоинформатика Каракалпакский государственный университет имени Бердаха, Нукус

Аннотация: В статье рассматривается значимость интеграции геоинформационных технологий в систему экологического образования молодёжи как ключевого инструмента формирования компетенций устойчивого управления природными ресурсами. Анализируется роль ГИС, кадастрового анализа и цифрового картографирования в развитии экологической культуры, пространственного мышления и практических навыков оценки состояния природных территорий. Показано, что сочетание экологического просвещения, цифровых технологий и проектного обучения способствует формированию у будущих специалистов комплексного понимания экологических процессов и ответственности за рациональное

природопользование. Предложены направления совершенствования образовательных программ с учётом современных цифровых и экологических вызовов.

Ключевые слова: Геоинформационные системы, экологическое образование, природные ресурсы, устойчивое развитие, молодёжь, картография, цифровые компетенции, пространственный анализ, экологическая культура.

Введение. Современные экологические вызовы и усиливающаяся нагрузка на природные ресурсы требуют подготовки специалистов, способных принимать обоснованные решения на основе пространственных данных и принципов устойчивого развития. Молодёжь является ключевым ресурсом будущего, поэтому формирование у неё компетенций в области экологического мышления и цифровых технологий становится приоритетной задачей. Интеграция геоинформационных систем (ГИС) в образовательный процесс представляет собой эффективный инструмент формирования практических навыков анализа природных ресурсов и принятия решений, направленных на их рациональное использование и охрану.

Актуальность. В условиях цифровой трансформации общества и расширения применения ГИС-технологий в экономике, градостроительстве, сельском хозяйстве и экологическом мониторинге возрастает потребность в специалистах, понимающих как природные процессы, так и пространственные инструменты их анализа. Экологическое образование молодёжи необходимо дополнять современными цифровыми компетенциями, включая навыки работы с картографическими данными, кадастровой информацией и геодезическими инструментами. Такой подход позволяет не только повысить качество профессиональной подготовки, но и сформировать у молодёжи ответственное отношение к природным ресурсам.

Цель исследования. Обосновать значимость интеграции геоинформационных технологий и экологического образования в подготовке молодёжи для устойчивого управления природными ресурсами.

Задачи исследования

1. выявить роль ГИС-технологий в изучении и управлении природными ресурсами;

2. определить ключевые направления экологического образования молодёжи;

3. проанализировать методические подходы к использованию геоинформационных технологий в образовательном процессе;

4. сформулировать рекомендации по внедрению ГИС и экологических практик в учебные программы.

Методы исследования

- ✓ анализ научной литературы и образовательных программ;
- ✓ сравнительный анализ традиционных и цифровых методов экологического обучения;
- ✓ изучение практик применения ГИС в мониторинге природных ресурсов и кадастровой деятельности;
- ✓ элементы педагогического моделирования.

Результаты и обсуждение. Интеграция ГИС-технологий в экологическое образование позволяет формировать комплексные компетенции, включающие:

- пространственное мышление и понимание природных процессов;
- навыки анализа и интерпретации картографической информации;
- умение оценивать состояние природных ресурсов (земля, вода, растительность, экосистемы);
- способность разрабатывать практические решения в сфере природопользования;
- экологическую ответственность и понимание принципов устойчивого развития.

Использование цифровых карт, кадастровых данных, спутниковых снимков и геодезических инструментов в образовательном процессе повышает мотивацию обучающихся и позволяет формировать у них практический опыт работы с реальными данными. Это создаёт основу для подготовки молодых специалистов, способных эффективно участвовать в экологическом мониторинге, территориальном планировании и оптимизации использования природных ресурсов.

Заключение. Интеграция геоинформационных технологий и экологического образования играет важную роль в подготовке молодёжи к устойчивому управлению природными ресурсами. Такой подход обеспечивает формирование у будущих специалистов критического экологического мышления, цифровых навыков и практической компетентности. Реализация данной модели требует обновления образовательных программ, внедрения ГИС-инструментов, расширения проектной и исследовательской деятельности обучающихся, а также взаимодействия образовательных учреждений с экологическими и кадастровыми организациями.

Литература

1. Каракин А.В., Смирнов П.Г. *Геодезия и картография: методы пространственного анализа.* Санкт-Петербург: Питер, 2022.
2. Берлянт А.М. *Картография.* Москва: Аспект Пресс, 2002.
3. Прокопьева Л.А. *Экологическое образование и устойчивое развитие общества.* Москва: Просвещение, 2021.
4. Иванова Т.Е. Цифровые компетенции в экологическом образовании молодёжи // *Педагогика и цифровизация*, №4, 2023.
5. UN. *Agenda 2030 for Sustainable Development.* United Nations, 2015.
6. Goodchild M.F. *Geographic Information Science and Systems.* Hoboken: Wiley, 2020.

ÚSHINSHI SEKCIYA

EKOLOGIYALÍQ TAZA ÓNDIRIS HÁM XIMIYALÍQ TEXNOLOGIYALAR

****

UCHINCHI SEKSIYA

EKOLOGIK TOZA ISHLAB CHIQARISH VA KIMYOVIY TEXNOLOGIYALAR

****

ТРЕТЬЕ СЕКЦИЯ

ЭКОЛОГИЧЕСКИ ЧИСТОЕ ПРОИЗВОДСТВО И ХИМИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ

IQTISODIY, EKOLOGIK VA IJTIMOIY OMILLARNI BIRLASHTIRGAN HOLDA, YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHNING METODOLOGIK, SIYOSIY VA AMALIY JIHATLARI

[1]Artiqov M.B., [2]Sherimmatova M.R., [3]Sherimmatova S.R.

[1]Ajiniyoz nomidagi NDPI katta o'qituvchi p.f.f.d. (PhD)

[2]Ajiniyoz nomidagi NDPI 1-kurs magistranti

[3]Ajiniyoz nomidagi NDPI 1-kurs talabasi

Jahon amaliyotida hududlarni barqaror rivojlantirish, ularning iqtisodiy hamda ekologik tizimlarini o'zaro samarali uyg'unligida o'rganishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Xususan, mamlakatlar rivojlanishi bevosita hududlar barqarorligiga bog'liq bo'lib, mazkur masalaning ijobiy jihatlari innovatsion iqtisodiyotni kengaytirish asosida resurslardan oqilona hamda samarali foydalanishni o'z ichiga qamrab olmoqda. Jumladan, iqtisodiyotda ishlab chiqarish faoliyatini to'g'ri tashkil qilish, soha davomiyligi va o'sishini ta'minlash resurslar mavjudligiga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda ekologik siyosatni takomillashtirish, tabiat resurslaridan oqilona foydalanish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. qilingan "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" mamlakatning 2030-yilgacha bo'lgan barqaror rivojlanish yo'lini belgilab berdi [1].

"Yashil" iqtisodiyotni shakllantirish va uning barqaror rivojlanishiga o'tish global darajada ham, O'zbekiston uchun ham ustuvor vazifalardandir. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi insoniyat kelajagi uchun muhim manba bo'lib, u BMTning qaror va hujjatlarida o'z ifodasini topgan. Barqaror rivojlanishning iqtisodiyekologik asosi, bu "yashil" iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir. Hozirgi beqaror tendensiyalarni bartaraf etish uchun 2015-yilda BMTning 2030-yilgacha bo'lgan davr uchun 17 ta "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadlarining o'ziga xos mezonlari aniqlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga

o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son qarori bilan “O‘zbekiston yashil iqtisodiyotga o‘tish maqsadlari belgilandi.

Yashil iqtisodiyot tushunchasi XX-asr oxirida paydo bo‘lib, iqtisodiyotda inson iqtisodiy faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta’sirini kamaytirish zarurligini ta’kidlaydi. Har qanday holatda ham iqtisodiy o‘sishga emas, balki barqaror rivojlanishga e’tibor qaratadigan tendensiya muhit. Ushbu tendensiya tarafdorlari iqtisodiyot o‘zi mavjud bo‘lgan va uning bir qismi bo‘lgan tabiiy muhitning bog‘liq tarkibiy qismi deb hisoblashadi. “Yashil” iqtisodiyotning muhim xususiyatlari quyidagilardan iborat: – tabiiy resurslardan samarali foydalanish; – tabiiy kapitalni saqlash va boyitish [2].

Atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha chora tadbirlarni moliyaviy mablag‘larsiz amalga oshirish mumkin emasligi tufayli alohida “Yashil” moliyalashtirish tizimini yaratish zarurati paydo bo‘ldi. Shu sababli Bunevich K.G. va Gorbacheva T.A. o‘zlarining tadqiqotlarida “Yashil moliya”, Yashil investitsiyalash” tushunchalarini ilgari surdilar. Yangi “Yashil” moliyaviy vositalar nafaqat ulardan foydalanishdan iqtisodiy foyda olish, balki atrof-muhit va iqlim muammolarini hal qilish va uni muhofaza qilish uchun mo‘ljallangan, degan fikrni keltirishgan [2]. Zhang D. va boshqalarning tadqiqotlarida yashil iqtisodiy samaradorlik, Durbin modeli, yashil iqtisodiyotda toza energiyaning roli, yashil iqtisodiyot ko‘rsatkichlari tahlil qilingan [3].

I. Rivojlanish bosqichi (1990-2000-yillar):

1. Rio-de-Janeyro sammiti (1992) va “Kun tartibi 21” qabul qilinishi.

2. Uglerod chiqindilarini kamaytirish bo‘yicha birinchi xalqaro kelishuvlar (Kioto protokoli, 1997).

3. Yashil texnologiyalarga investitsiyalar ko‘paydi.

4. Zamonaviy bosqich (2000-yillardan hozirgacha):

5. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasining kengayishi, “sirkulyar iqtisodiyot” va “dekarbonizatsiya”ga e’tibor.

6. Parij kelishuvi (2015) – global iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish.

7. Yashil energetika (qayta tiklanuvchi energiya manbalari), chiqindilarni qayta ishlash va innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi kabi bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

Adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq.)Toshkent, “O‘zbekiston” 2016.

